

**Ernazarova Gulnora Oblaquovna  
Isroilov Gobiljon Toshtemirovich  
Qurbonova Muattar Erkinovna**

34.0.  
E-33

# **PEDAGOGIK KOMPETENTLIK**



34,0  
E-33.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

-14075/44-

## PEDAGOGIK KOMPETENTLIK

O'quv qo'llama

Mualliflar:

p.f.d. Ernazarova Gulnora Oblaquovna

aproflov Qobiljon Toshtemirovich

Qurbanova Muattar Erkinovna

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TALIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq - 2023  
«City of books»



**G.O. Etmazova, Isroilov Q.T., Qurbonova M.E. / Pedagogik kompetentlik /**  
O'quv-qo'llama. - Chirchiq: «City of book», 2023. - 156 bet.

Ushbu o'quv qo'llama Pedagogik kompetentlik fanidan ilmiy-amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan, magistratning 5A110902 – Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagogika fanlari o'qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, bakalavrlarning pedagogika yo'nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие посвящено вопросам формирования и развития научно-практических знаний, умений и навыков по дисциплине педагогическая компетентность, предназначено для студентов направления 5a110902 – Педагогика и психология магистратуры, может быть использовано преподавателями педагогических наук, слушателями курсов повышения квалификации, а также студентами педагогических направлений бакалавриата.

This textbook is devoted to the formation and development of scientific and practical knowledge, skills and abilities in the discipline of pedagogical competence, is intended for students of the direction 5a110902 - Pedagogy and psychology of the master's degree, can be used by teachers of pedagogical sciences, students of advanced training courses, as well as students of pedagogical directions of the bachelor's degree.

#### Muhalliflar:

**G.O. Etmazova** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
"Umumiy pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.  
**Isroilov Qobiljon Toshemirovich, Qurbonova Maqtatlar**  
**Erkinovna** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ilmiy-  
tadqiqotchilari

#### Taqrizchilar:

**p.f.d., prof. X. Ibraimov** Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston  
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori  
**p.f.d., prof. Ximmataliyev D.O.** Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti Pedagogika va menejment kafedrasi professori

ISBN 978-9910-9964-9-8

© G.O. Etmazova va boshqalar. 2023  
© «City of book», 2023

#### Kirish

Pedagogik kompetentlik fani pedagogik kasbiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda va rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar, o'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish yo'llari, o'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish tizimi, o'qituvchi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar, professionalizatsiya, pedagogik kasbning saqlanishini ta'minlovchi kompetentsiyalar, pedagogik kreativlik, hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari kabi o'quv materiallari fan mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, kasbiy faoliyatda pedagogik kompetentlik, kreativlik, mahoratni muvaffaqiyatli, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladir, ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribalarni yanada boyitadi va o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llamaning maqsadi magistratni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-mazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Talabalarga pedagogik kompetentlik faniga doir manbalardan foydalana olishga o'rnatilish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish, boshqaruv oqituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — talim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid ta'limni yonaltirish bo'lgan pedagogik kompetentlik fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan ta'minlash, pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qamrovlantirish, talim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim konimatlarni egallashlarini ta'minlash, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda kreativlik, tushuncha, fasilitatorlik qobiliyatlarini va metodik savodxonlikni hisobga kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.



## I-mavzu. Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari



**Maqsad:** Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari haqida tushunchalar berish.

Pedagogik kompetentlik fanini o'qitishdan maqsad - magistrnlarni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va talimdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat ekanligi haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** pedagogik kompetentlik, ilmiy-nazariy asoslar, kompetentlik tushunchasi, talimdagi innovatsion jarayonlar, oqitish va tarbiyalashda kompetentlik, pedagogik-psixologik tayyorgarlik

Pedagogik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq.

Pedagogikaning ilk bosqichlari falsafa negizida paydo bo'lgan.

Pedagogika yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Pedagogika jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan insoniy faoliyat sohasi. Bu fan o'qituvchilarga bilim berish va bu bilimlarni hayotda qo'llay olish sirlarini o'rgatadi. Insonga ta'lim-tarbiya u ona qomida ekanligidan boshlab, to qabrga kirgunga qadar berilishi kerak. Demak, ta'lim-tarbiya, birinchidan, jarayon, ikkinchidan, u uzluksiz.

Pedagogika fanining tadqiqot ob'ekti – uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Pedagogika fanining predmeti bo'lgan ilmiy bilim asosida jamiyatning alohida funksiyasi – tarbiya mazmuni yotadi.

“Pedagogika” atamasi ikki yunoncha so'z: pais, pados – bola, go'dak va ago – yetaklaydigan so'zlarning birligidan hosil bo'lgan va “Bola yetaklovchi” yoki “Bolaga yo'l ko'rsatuvchi” degan ma'noni anglatadi.

Rivoyatlarga qaraganda, Qadimgi Yunonistonda qulдорlar ularning bolalarini maktabga olib boruvchi va maktabdan olib keluvchi maxsus qulni tayinlaganlar. Uni quladagoga deb ataganlar. Keyinchalik bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi kishilarni pedagoglar deb atash odat tusini olgan.

Pedagogika fanining nomi ham ayni shu so'zdan kelib chiqqan. XXI asr o'qish va o'qitishdagi inqilob har bir talabaning o'quv va tadqiqot ishlarining olib borishi holatidagi kon turlibiga qo'ydi.

Pedagogik kompetentlikning asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo'nalishlari (qimmat, shaxsiy, siyosiy va boshqalar)da muvaffaqiyatli pedagogik faollarni yaratishga yo'naltirilgan.

Ta'lim tarbiyani tashkil etishga qaratilgan Kontsepsiyalar ishlab chiqilgan va Amalda qo'llanilmoqda. “Kontsepsiya” yoki “konsept” lotincha so'zdan olingan bo'lib, “Tushunish”, “Tizim” ma'nosini anglatib, biror-bir narsa-buyum, hodisa yoki jarayonni tushunishning ma'lum bir usulini o'zida ifoda etadi (1-rasm).

### Kontsepsiya –

1) tabiat va jamiyatlardagi jarayonlar va narsa-hodisalarga doir qarashlar tizimi;

2) talabot, dastur, loyiha, rejalarni amalga oshirishga doir harakatlار strategiyasi;


3) faoliyat nima-xil turlarining konstruktiv tamoyili.

Pedagogika fanida kontsepsiya deganda ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlari mohiyatini yaxlit hodisa sifatida tushunish asosida uni amalga oshirish vositalari (usullari) ta'kid etish usuli nazarda tutiladi.

Kontsepsiya (pedagogik) – pedagogik ob'ekt mohiyati, tamoyil va metodlari mohiyatini ochib beruvchi yetakchi g'oyalar tizimi.




O'qitish (ta'lim) konseptsiyasi – o'quv jarayonining mohiyati, mazmuni, metodikasini tushunishga doir qarashlar tizimi yoki umumlashgan g'oyalar yig'indisi hisoblanadi.



1-rasm. Konseptsiya tarkibi

Pedagogikaning yangi tarmoqlaridan biri bo'lgan **pedagogik kompetentlik** fanini o'qitishda - magistrnlarni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va talimdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish ko'zda tutilgan (2-rasm).



2-rasm. Pedagogik kompetentlik fanining maqsadi

Pedagogik kompetentlik fanining vazifasi - talabalarga pedagogik kompetentlik faniga doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

- botaqak oqituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — talim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid iqtisodiy yonaltishi bo'lgan pedagogik kompetentlik fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;
- pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qaratilinishi;
- talim-tarbiya jarayonini bola ruhivati, uning neyropsixologik, neyropsixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim konikmalarni egallashlarini taminlash;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda kreativlik, yutirik, fasilitatorlik qobiliyatlarini va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni o'quv faoliyatini amalga oshirishga undash sohasidagi kompetentsiyasi, vazifalar o'quvchilarning ta'lim faoliyati uchun motivatsiyasini shakllantirishni amalga oshirish sifatini aks ettiradi.

Motivatsiya – insonning biror narsa qilish, faol bo'lish istagi.

Motivatsiya funksiyasi o'qituvchi faoliyatining umumiy tizimining maqsadga muvofiq tarkibiy elementidir.

Ta'lim faoliyati motivi ostida barcha omillar anglanadi, ta'lim faoliyatining namoyon bo'lishini shartlashda: ehtiyojlar, maqsad, munosabat, burch hissi, manfaatlar va boshqalar e'tiborga olinishi kerak.

Motiv- bu belgilangan niyat, faoliyatning psixologik tizimi, ma'lum bir harakatning istagi va maqsad bilan birgalikda eng yuqori darajaga kiritilgan xatti-harakatlarning asosiy regulyatorini tashkil etadi.

O'quv faoliyatida o'quvchi muayyan faoliyat sharoitlari shaklida qo'llab-quvvatlashga muhtoj.

O'quvchi ushbu faoliyatni amalga oshirishi va hatto ta'lim faoliyatiga, muvaffaqiyat kiritishi kerak. O'qituvchi uchun o'quvchilarni muvaffaqiyatga olib keladigan odatlar va fikrlarni shakllantira olish muhimdir.

Bu amaliyotda bu o'qituvchi o'quvchi bilan mulotoq qilishda ijobiy narsalardan foydalanishida namoyon bo'ladi. Masalan, malakali o'qituvchi shunday deydi: "yaxshi natija" yoki "munosib natija", "do'stona sinf", iboralar o'rniga: "yomon natija emas", "nizoli bo'lmagan sinf". Maqsad sari qochish kerak bo'lgan narsaga emas, balki erishish kerak bo'lgan narsaga undash lozim.

O'qituvchi o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ota-onalarga namoyish etadi, baholashda ularning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga oladi va har doim ijobiy o'zgarishlarni qayd etadi.

O'quvchining eng kichik muvaffaqiyati ham kompetentsiyali o'qituvchilar tomonidan ma'lum bir g'alaba va oldinga siljish sifatida qayd etiladi.

Kompetentsiyali o'qituvchi o'quvchilarga materialni o'zlashtirish bilan bog'liq shaxsiy maqsadlarni mustaqil ravishda shakllantirishga imkon beradi, olingan

bilimlarni qo'llashni talab qiladigan ijodiy vazifalarni qo'yadi, muammoli vazifalarni shakllantiradi, ularni o'quvchi ma'lum bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan holatidagina hal qilish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga dars davomida o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi qadrlashdan foydalanishga imkon beradi.

O'quvchi o'z potentsiali uchun mumkin bo'lgan natijalarga erishishi uchun.

Uy vazifasi, mustaqil ish uchun vaziyatlar mavjud bo'lib, ular faqat ichki motivlar mavjud bo'lganda muvaffaqiyatli hal qilinadi.

O'quvchilarning o'zini o'zi rag'batlantirishga qanday erishishni biladigan o'qituvchi faoliyatidagi usullardan foydalangan holda amalga oshiradi:

atrofdagi muhitga e'tibor berish, o'z kuchlariga tayanish odatlarga tayyorlik, ularning xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lish, turli xil sharoitlarda va turli odamlar bilan mulotoq qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kabilar.

Muayyan o'quvchiga nisbatan qo'llaniladigan ushbu usullarning umumiyligi uning shaxsiy ahmiyati va o'ziga xos tuyg'usini yaratishni ta'minlaydi.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Pedagogik kompetentlikning pedagogika fanlari tizimidagi o'rnini.
2. Fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari.
3. Pedagogik kompetentlikning boshqa pedagogik fanlardan farqi.
4. O'qituvchi kasbiy kompetentligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar



## 2-mavzu. Pedagogik kompetentlikning nazariy — metodologik asoslari



**Maqsad:** Pedagogik kompetentlikning nazariy — metodologik asoslari, haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

kompetentli yondashuv, kompetentli yondashuv tamoyillari, kompetentlik tuzilmasi, kompetensiyani tasnifi, pedagogik kompetentlikning nazariy asoslari haqida ta'lim berish.



**Tayanch tushunchalar:** ta'limda kompetentli yondashuv, kompetentlik, ijtimoiylashuv jarayoni, faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok, umumiy qobiliyat, integrallashgan sifat, ilmiy-metodik adabiyotlar.

-"Kompetent" tushunchasi protsessual tushunchadir, ya'ni kompetentlar ham o'z faoliyatida namoyon bo'ladi va shakllanadi;

-kompetentli yondashuv insonni ishlab chiqarishda tez-tez o'zgarib turadigan texnologiyalarga moslashishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi.

Biroq, kompetent tushunchasi uchun yagona yondashuv mavjud emas.

A.G. Bermusning fikriga ko'ra, kompetent shaxsiy, ob'ektiv va instrumental xususiyatlar va tarkibiy qismlarni birlashtiradigan tizimli birlikdir.

M.A.Choshanov, kompetentlik "Faqat bilimga ega bo'lish emas, balki undan foydalanishga doimiy intilishdir" deb hisoblaydi.

A.M.Aronov uni "Mutaxassisning muayyan faoliyatga qo'shilishga tayyorligi" deb ta'riflaydi.

Kompetentli yondashuvda ikkita asosiy tushunchalar – "Kompetent" va "Qobiliyat" ko'rib chiqiladi.

**Qobiliyat**-bu egalik, shaxsning tegishli kompetentga ega bo'lishi, unga va uning faoliyat mavzusiga shaxsiy munosabatini o'z ichiga oladi.

**Kompetent** – ular bilan bog'liq sifati samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan sub'ektlar va jarayonlar doirasiga nisbatan

**Kompetentli yondashuv tamoyillari** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish va faoliyatda muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Ta'limning mazmuni esa, bilim, dunyoqarash, axloqiy muammolarni hal qilishning didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajriba hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini kompetentli yondashuv asosida tashkil etishda, ta'lim tujribasini ta'lim mazmunini tashkil etuvchi bilim, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil ravishda hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalarini baholash o'quvchilarning muayyan ta'lim bosqichida o'rtishgan ta'lim darajasini tahlil qilishga asoslangan.

### "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati.

Jahonda mehnat bozorida kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lishni va uni izchil oshirib borishni talab etadi.

Inglizcha "Competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "Qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "Faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Psixologik nuqai nazardan kompetentlik "Noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, mulohaza kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga

to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik'ni anglatadi.


**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



3- rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarining mohiyati quyidagicha:

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy bilimlarni o'zlashtirish asosida faoliyatni tashkil etish, kasbiy-pedagogik vazifalarni hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirib borish bo'yicha, uning negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar bo'yicha, ular o'zida quyidagicha ifodalalanadi:

**psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yaratma olish, talabalar va talim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida ang'lay olish va bartaraf etma olish;

**metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, talim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni muvaffaqiyatli qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

**informatsion kompetentlik** – axborot muhitida maqsadga muvofiq, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rindi, muvaffaqiyatli foydalanish;

**kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining kreativlik malakalariga egaligini namoyish etma olish;



**innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

**kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatta o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik, bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqanda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar

1. Kompetentli yondashuvda ikkita asosiy tushunchalar – "kompetent" va "qobiliyat" ko'rib chiqiladi, o'z fikringizni bildiring
2. "Kompetentlik" tushunchasiga olimlar ta'rifini tushuntiring
3. Kompetentli yondashuv tamoyillarini tushuntiring
4. Kompetentlik tuzilmasi qanday komponentlar tizimidan iborat?
5. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyatini tushuntiring
6. Kasbiy kompetentlik nima?
7. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarni aytib bering

### 3-mavzu. Mamlakatimizda va rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar



**Maqsad:** Mamlakatimizda pedagogik kompetentlikning ilmiy va nazariy asoslari va rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar haqida ta'lim berish.



#### Vazifalar:

Mamlakatimizda pedagogik kompetentlikning ilmiy va nazariy asoslari haqida tushunchalar berish

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar haqida ta'lim berish haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** pedagogik kompetentlik, ilmiy-nazariy asoslar, kompetentlik tushunchasi, talindagi innovatsion jarayonlar, oqitish va tarbiyalashda kompetentlik, pedagogik-psixologik tayyorgarlik

Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning salohiyati, ya'ni kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazkur ta'lim muassasasi rahbarlarining reytingini belgillovchi eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

\*xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;

\*ilg'iga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda xodimlarni tanlash, vakant lavozimga nomzodni tanlash;

\*xodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'llab-quvvatlash o'qitish.

Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetentsiya bilan ishlash, talabalar hamda yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real faoliyatlarini va malakalarini baholash imkonini beradi.



Kompetentli yondashuv - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida kelingan tartibda tashkil etilsa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida yuzaga keluvchi qiyinchiliklarning ob'ektiv shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) o'qituvchi mehnatini tashkil etishda metodik ta'minotning yetarli bo'lmastligi;
- 2) o'qituvchi faoliyatini baholashdagi yuzaklilik;
- 3) o'qituvchining ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni talab etadi:

- 1) kasbiy rivojlanish (konstruktiv strategiya);
- 2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi);
- 3) kasbiy deformatsiya (destruktiv strategiya).

Mazkur tipologiya bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda bir yoki bir necha strategiyani qo'llash maqsadga muvofiq.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Modernizatsiya" tushunchasiga - "zamonaviy talab va didga moslab o'zgartirish, zamonaviylashtirish" - deb izoh berilgan.

**Asosiy kompetensiyalar** mutaxassisning ijtimoiy-kasbiy mahoratini aniqlaydi va u jamoalarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi.

"Kompetentlik" kasbiy bilimlar hamda shaxsiy sifatlarning ijobiy va ijodiy uyg'unlashgan darajasini, aniq faoliyatda ularning faollashish darajasini aks ettiradi. "Pedagogik kompetentlik" tushunchasi pedagogik mahoratning asosini tashkil etadi.

**Pedagogik kompetentlik** aniq kasbiy jarayonda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga mos ravishda pedagogik funktsiyalarni bajarishga tayyorlikni va qobiliyatni belgilaydigan integrativ kasbiy-shaxsiy xususiyat hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikning boshlang'ich ko'rsatkichi - bu shaxs va insonparvarlikka yo'nalganlikdir.

**Kasbiy-pedagogik kompetentlik** - pedagogik voqelikni tizimli idrok etish va unda tizimli ravishda harakat qilish qo'nikmasini o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyat pedagogik jarayonlar mantiqini yaxlit, tizimli ko'rish imkonini ta'minlaydi, pedagogik tizim rivojlanishining qonuniyatlari va tendentsiyalarini tushunish maqsadga muvofiq faoliyatni loyihalashtirishni osonlashtiradi.

**pedagogik kompetentlik** - ta'lim va tarbiya masalalarini akmeologik, yuqori darajada, malakali hal qilish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va tajriba, deb ta'riflanadi psixologik lug'atda.

Pedagogik kompetentlikning lug'aviy ma'nosi (nemischa kompetenz, frantsuzcha competence, lotin competens so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, shaxsning o'zining kasbiy vazifasiga mos kelishini, qobiliyatligini anglatadi) - pedagogik faoliyatga tayyorlikning nazariy va amaliy tashkil etuvchilarini yuqori darajada egallaganlikni, o'qituvchi kasbiy mahoratining yuqori ekanligini bildiradi.

Shuningdek, pedagogik kompetentlik boshqa qator tashkil etuvchilarni nazarda tutadi: pedagogik faoliyatning individual uslub, unga ijodiy yondoshish va pedagogik reflekssiyaning rivojlanganligi sifatida izohlanadi.

Kasbiy kompetentlik - Har qanday vaziyatlarda kasbiy vazifalarni namoatni hal qilish uchun zarur bo'ladigan shaxsning xususiy kapitali, resurslarini (bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy sifatlar tizimida tashkil etilgan) mobilizatsiyaga tayyorlik darajasidir.

#### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar

1. Ko'rilay so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi
2. Ko'rilay olimlarning «kompetentlik» tushunchasiga bergan ta'riflari
3. Kompetensiyalarning tayanch va asosiy kompetensiyalarga bo'linishi
4. Tayanch kompetentlik va uning kompetentlik turlariga bo'linishi
5. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasi tavsiflari
6. Vatanimiz olimlari tomonidan kompetentli yondashuvga asoslangan ta'limni ta'kidlab etish borasidagi ilmiy izlanishlari



#### 4-mavzu. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish aspektlari



**Maqсад:** Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish aspektlari, Pedagogning kasbiy kompetentligi, asosiy kompetentlar tizimi va ularni shakllantirish usullari haqida ta'lim berish.



##### Vazifalar:

Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish aspektlari haqida tushunchalar berish  
Pedagogning kasbiy kompetentligi, asosiy kompetentlar tizimi va ularni shakllantirish usullari haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** pedagogning kasbiy kompetentligi, O'z ustida ishlash, shaxsiy kompetentlik, individual kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, akmeologiya, o'z ustida ishlash bosqichlari, asosiy ta'lim kompetentlari.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining o'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- bilimlarni takomillashtirib borish;
- faoliyatga kreativ yondashish;
- kasbiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Pedagogning kasbiy kompetentligining quyidagi tarkibiy asoslardan iborat:

- Kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etish;
- O'z-o'zini rivojlantirish, o'zi-o'zini namoyon etish;
- O'zi-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish;
- Qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish va boshqalar.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va o'zi-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlari faollashirish, ularning kasbiy malakalarini aniqlab olish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Akmeologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir muvaffaqiyatli sifatida qaraydi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga **akmeologik** jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, yeng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Anan'ev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini oshirish bilan bog'liq inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning kasbiyizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, kasbiyizmga yetishdagi muvaffaqiyatlardan ota olish masalalari bilan shug'ullanadilar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak kasbiyizmga, mutaxassisning uzoq muddatli ishtirok etishiga olib keladigan subektiv va obektiv omillarini asoslab berdi. Obektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, subektiv omillarga esa insonning ixtiyoriy va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qila olishdagi malakalarini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Yuksak kasbiyizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- \* Ixtiyoriy muvaffaqiyat;
- \* O'qituvchilik;
- \* Qobiliyat;
- \* Ixtiyoriy.

- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yuri;
- o'z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan kasbiyizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalarda farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

#### **O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:**

- intellektual-ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka vayanigilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanoqlik.

Asosiy kompetentlarni tanlash va shakllantirish muammosi ta'limning mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Asosiy kompetentlarni shakllantirish-bu fikrlarning eng katta tarqalishi, kompetentlarning klassifikatsiyasi qo'llaniladi.

Pedagogik faoliyat-ijtimoiy faoliyatning maxsus turi, katta avlodlardan insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribani yosh avlodlarga o'tkazish, ularning shaxsiy hayoti uchun sharoit yaratishga qaratilgan jamiyada muayyan ijtimoiy rollarni bajarish uchun rivojlanish va tayyorgarlik (V.A.Slastenin). "Pedagogik mahorat asoslari" pedagogik faoliyatni belgilash bilan boshlanishi tasodifiy?

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Bu pedagogikada qabul qilingan mahorat haqidagi tushuncha. Bu "pedagogik faoliyatning eng yuqori darajasi" deb

(ta'limni) belgilangan vaqtda o'qituvchi maqbul natijalarga erishishda namoyon bo'ladi.

#### **Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari**

Har bir faoliyat singari, pedagogik ham quyidagi taktikiy qismlarni o'z ichiga oladi: maqsad, vositalar, ob'ekt, mavzu, erishilgan natija, ularning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ammo o'qituvchi pedagogik sharoitlarga muvofiq maqsaddan kelib chiqadigan aniq vazifalarni o'zi belgilashi kerak. Shunday qilib, maqsad pedagogik faoliyatda har doim yakuniy natijada ijtimoiy jihatdan belgilanadi.

Bu o'z navbatida o'qituvchidan ijodiy qarorlar, maqsadlarni ko'rish, ularni haqiqiy aniq vaziyat bilan taqqoslash qobiliyatini talab qiladi.

O'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini boshqarish (ta'lim berish, o'qitish) murakkab jarayon, chunki o'qituvchining maqsadi har doim o'quvchining kelajagi bilan ob'ektivlashiriladi.

V. A. Sukomlinskiyning so'zlariga ko'ra. Pedagogik faoliyat ob'ektlarning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

1. Inson tabiatining o'lik materiallari emas, balki o'ziga xos individual fazilatlarga ega bo'lgan faol mavjudotdir.

Pedagogik faoliyat ob'ekti bir vaqtning o'zida uning sub'ekti, pedagogik ta'sirga har xil munosabatda bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsdir, chunki u uni o'zining ichki dunyo, munosabati orqali idrok etadi.

2. O'qituvchi doimiy ravishda o'zgarib turadigan, o'sib borayotgan odam bilan shug'ullanadi, unga formulali yondashuvlar va stereotipik harakatlarni qo'llanilmaydi. Bu jarayon murakkab va doimiy ijodiy izlanishni talab qiladi.

3. O'qituvchilar bilan bir vaqtda, bola, o'spirin, yigiti atrofidagi barcha hayotiy yo'llash davrining turli yo'nalishlarda harakat qiladi. Shuning uchun pedagogik mehnat bu bir vaqtning o'zida barcha ta'sirlarni, shu jumladan o'quvchining o'zidan kelib chiqadigan ta'sirlarni tuzatishni o'z ichiga oladi. Ya'ni: shaxsni tarbiyalash, qayta tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash.



Sub'yekt - bu o'quvchiga ta'sir qiladigan kishilar ya'ni, o'qituvchilar jamoasi, oila-onalar, jamoat tashkilotlari va boshqalar.

Ta'limning asosiy vositalari o'quvchilarni o'z ichiga olgan turli xil faoliyat turlari: mehnat, aloqa, o'yin, o'qitish.

Pedagogik faoliyatning predmeti va mahsuloti – bu bolaning shaxsiyati va uning uyg'un rivojlanishi.

Pedagogik tarbiyaviy ish-bu shaxsning barkamol rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun tarbiyaviy muhitni tashkil etish va o'quvchilarning turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

O'qitish-bu asosan maktab o'quvchilari kognitiv faoliyatini boshqarishga qaratilgan ta'lim faoliyatining bir turi.

Umuman olganda, ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat bir xil tushunchalardir. Tarbiyaviy ishlarning o'zaro bog'liqligini bunday tushunish va ta'lim va tarbiya birligi haqidagi tezisning ma'nosini ochib beradi.

"Ham tarbiya, ham ta'lim ajralmas. Bilimlarni uzatmasdan tarbiyalash mumkin emas; barcha bilimlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi" (L. N. Tolstoy).

2. Pedagogik mahorat tushunchasi, uning tuzilishi.

Pedagogik mahorat-bu kasbiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zini tashkil etishning yuqori darajasini ta'minlaydigan shaxsiyat xususiyatlari majmuidir.

O'qituvchi shaxsining gumanistik yo'nalishiga uning qiziqishlari, qadriyatlari, ideallari kiradi.

Har bir o'qituvchi gumanisiga aylanishi, insonni er yuzidagi eng yuqori qadriyat sifatida tan olishi uchun uning pedagogikasi bo'lishi kerak.

Har bir bola shaxsiyatining ahamiyatini anglash, faoliyati sevgi va hurmat asosida bolalar bilan munosabatlarni o'rnatishi lozim.

Kasbiy pedagogik bilimlarning xususiyatlari:

- o'qituvchining o'rganilayotgan fanlarni sintez qilish qobiliyatini talab qiladigan bilimlarning murakkabligi (har bir alohida pedagogik muammoni hal qilish

o'qituvchining yagona sifatida namoyon bo'ladigan pedagogik bilimlarining butun (tizimni yangilaydi);

= shaxsiy raqobat

Agar biz o'qituvchining kasbiy mahorati haqida gapiradigan bo'lsak, unda, o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlari ham konseptsiyaning mazmuniga kiritiladi, bu unga o'zi yoki ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan shakllantirilgan pedagogik muammolarni mustaqil va muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.

Muayyan pedagogik muammolarni hal qilish uchun pedagogik nazariyani bilish, uning qoidalarini amalda qo'llash qobiliyati va tayyorligi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Bunday qilib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi deganda uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi tushunilishi mumkin.

Tashkiliy ko'nikmalarga safarbarlik, axborot didaktik, rivojlanish va yonaltirilganlik kiradi.

Axborot-didaktik ko'nikmalar ham o'qituvchining mahoratida ahamiyatli hisoblanadi, bunga:

«tutqil o'quv ma'lumot manbalari bilan ishlash;

«har xil manbalardan ma'lumot olish va uni o'quv jarayonining maqsad va vazifalariga nisbatan qayta ishlash;

«turli usullardan foydalangan holda talabalar tomonidan yangi materialni o'rnatish tabiiati va darajasini tezda tashxislash;

«qisqar kerak bo'lsa, materialni taqdim etish rejasi va yo'nalishini qayta qurish.

Yo'nalganlik qobiliyati quyidagilarga qaratilgan:

«o'quvchilarning axloqiy va qadriyat munosabatlari shakllantirish;

«ta'lim faoliyatiga barqaror qiziqishni shakllantirish;

«shaxsning ilimiy ahamiyatli fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan qo'shma ijodiy faoliyatni tashkil etish.

Iltisot qobiliyatlari to'plamiga quyidagilar kiradi:

- qo'shma faoliyat davomida olingan ma'lumotlarni, signallarni idrok etish va etarli darajada talqin qilish;

- boshqa odamlarning shaxsiy mohiyatiga chuqur kirib borish;

- boshqa odamning individual o'ziga xosligini o'rnatish;

- insonning tashqi xususiyatlarini va uning xatti-harakatlarini tezkor baholash asosida uning ichki dunyosini, yo'nalishini va kelajakdagi mumkin bo'lgan harakatlarini aniqlash;

- shaxs va temperamentning qaysi turiga tegishli ekanligini aniqlash;

- insonning xatti-harakatlarida va boshqa ko'rinishlarida uni boshqalardan va o'zini o'limishdagi o'xshash sharoitlarda ajratib turadigan belgilarni topish.

V.A. Kan-Kalik fikriga ko'ra:

1) nutqning ravonligi (talabalarga og'zaki murojaat);

2) faol ichki aloqa bilan nutqdagi pauzalar (e'tiborni talab qilish);

3) ko'rgazmali qurollar, jadvallar, doskadagi yozuvlar va boshqalarni osib qo'yish. (imo-ishora-vosita versiyasidan foydalanish);

4) oldingi uchta elementni o'z ichiga olgan aralash variant.

- o'qituvchining ko'nikmalari namoyon bo'ladigan psixologik aloqani o'rnatish:

1) jamoaviy qidiruv, qo'shma ijodiy faoliyat muhitini yaratish;

2) o'quvchilarning o'qituvchi va u o'qitadigan mavzu bilan mulotoq qilish kayfiyatini uyg'otish kabilar.

- pedagogik jarayonda mulotoqini boshqarish. bu jamoat sharoitida organik va izchil harakat qilishni o'z ichiga oladi, ya'ni odamlar bilan mulotoq qilish.

Ushbu guruhga quyidagi ko'nikmalar kiradi:

1) talabalar bilan birgalikda ijodiy faoliyatni tashkil etish;

2) suhbat elementlarini, ritorik savollarni kiritish orqali mulotoqni maqsadli ravishda qo'llab-quvvatlash;

3) sinfga va individual o'quvchilarga nisbatan ularni idrok etishga tayyorlaydigan xatti-harakatlar va mulotoqning eng mos usullarni tanlash

To'g'ri mulotoq psixologik to'siqni olib tashlaydi, o'quvchini o'qituvchiga yaqinlashtiradi;

4) o'quvchilar jamoasida farovonlik muhitini ta'minlashi.

mulotoq jarayonida quyidagi ko'nikmalar bilan erishiladigan hissiy mulohazalarni o'rnatish maqsadga muvofiq:

1) o'quvchilarning xatti-harakatlariga, ularning ko'zlariga va yuzlariga qarab mulohazaning umumiy psixologik munosabatini tushunish;

2) o'quvchilar bilan mulotoq qilishda hissiy holatlardagi o'zgarish momentini his qilish;

3) individual talabalarning umumiy faoliyatlardan o'chirilishini o'z vaqtida ko'ring va iloji boricha ularni yana faoliyatga qo'shing.

Kommunikativ harakatlar samaradorligini oshiradigan vositalardan biri bu pedagogik texnikadir.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Pedagogik faoliyat, mohiyati, tuzilishi, turlari.

2. Pedagogik mahorat tushunchasi, uning tuzilishi.

3. O'qituvchining kasbiy mahoratining tarkibiy qismlari.

4. Pedagogik faoliyat, mohiyati, tuzilishi, turlari.



## 5-mavzu. O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillaytirish tizimi



**Maqсад:** O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillaytirish tizimi haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi tizimi — pedagogik mahorat orqali namoyon bo'lishi haqida tushunchalar berish.

Kasbiy kompetentsiya va uning shakllanish bosqichlari haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** bilim, ko'nikma, malaka, mehnat ko'nikmalari, o'qitish va tarbiyalashda kompetentlik, metodik kompetentlik, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, pedagogik diagnostika, differentsial-psixologik kompetentlik, autopsixologik kompetentlik.


Ijtimoiy-iqtisodiy sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogik faoliyatini tashkil etishga ta'sir ko'rsatgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga sabab bo'lmog'da. Rivojlanayotgan yangi va yangi ko'p o'zgaruvchili amaliyotlar zamonaviy o'qituvchidan nafaqat bilimni, balki bilimlarni loyihalashtirish, shakllantirish va chiqarish qobiliyatini ham talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda bir qancha yondashuvlar mavjud, masalan, "Kasbiy kompetentlik" tushunchasini tavsiflashda **funktional-faoliyati yondashuvini** N.V.Kuzmina, V.P.Simonov, N.F.Talyzina va boshqalar pedagogik faoliyatga amaliy yondashuv, kompetentlikka nazariy va amaliy jihatdan tayyorlik deb hisoblaydilar. Ular tayyorlik kasbiy vazifalarni bajarish, kasbiy kompetensiyalar buyicha nazariy va amaliy ko'nikmalar: tahlil qilish, prognoz qilish, loyihalash, aks yettirishni amalga oshirish, tashkilotchi bo'lish mulogot qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lish deb hisoblaydilar.

**Aksiologik yondashuv** vakillari (K.A.Abulxanova-Slavskaya, N.S.Rozov, B.N.Gerslunskiy va hokazo) kompetentlarni tarbiyaviy qadriyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqqanlar. Ya'ni kasbiy kompetentlik o'qituvchini kasbiy dunyoqarashi, qadriyatlari dunyosiga kirishi bilan tushuntiradi.

**Universal yondashuv** umumiy bilimlarning asosiy darajasi bilan bog'liq bo'lib, u ayni paytda kengroq masalalar bo'yicha harakat qilish imkonini beradi.


A.K.Markova o'z tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tushunchalardan iborat ekanligini aytadi (4-rasm):



4-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (A.K.Markova)


Bunday yondashuv ham kasbiy, ham ijtimoiy harakatchanlikni ta'minlaydi, ya'ni yangiliklarga, o'zgarishlarga, ijodga, o'z-o'zini ifodalashga va yeng muhimni, o'z bilimlarini yangilash qobiliyatiga ochiqlikni nazarda tutadi.

Funktional-faoliyati, aksiologik va umumshaxsiy yondashuvlar shaxsiy faoliyati yondashuvda birlashtirilgan. Pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'rnatilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi (5-rasm):



5-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (B. Nazarova)

Pedagoglarning o'z usullarida izchil, muvaffaqiyatli ishlashlarida faoliyatga loyihalni yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihalni yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantirish olishlari maqsadga muvofiqdir (6-rasm).



6-rasm. Pedagogning o'z usulida ishlashi bir necha bosqichlari

Pedagogning o'z usulida ishlashi bir necha bosqichda kechadi (6-rasm). Pedagoglarning o'z usullarida izchil, muvaffaqiyatli ishlashlarida faoliyatga loyihalni yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihalni yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantirish olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o'z usulida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar quyidagi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi. Ma'lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (1-jadval).

Pedagogning o'z usulida ishlash modeli

1-jadval

| Bosqichlar | Ularda amalga oshiriladigan vazifalar | Qaydlar |
|------------|---------------------------------------|---------|
| 1-bosqich  |                                       |         |
| 2-bosqich  |                                       |         |
| 3-bosqich  |                                       |         |
| 4-bosqich  |                                       |         |

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qilish olishi ahamiyatli hisoblanadi.

O'zini o'zi tahlil qilish - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etilgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir.

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga ega bo'lishi ham muhimdir.

Pedagog quyidagi o'zini-o'zi baholash modeliga tayanch ish ko'rish mumkin (2-jadval):

2-jadval

| № | Mavjud yutuqlar | O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari |
|---|-----------------|--------------------------------------|
| 1 |                 |                                      |
| 2 |                 |                                      |
| 3 |                 |                                      |
| 4 |                 |                                      |



Ushbu model asosida o'z-o'zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o'z-o'zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko'p (1 dan katta) bo'lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi.

**O'z-o'zini rivojlantirish** — shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

### **Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.**

Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, muvaffaqiyatli ishlashlarida faoliyatga loyihalni yondosha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihalni yondoshuv asosida quyidagi modelni shakllantirish olishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** — har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o'zi uchun shaxsiy amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq.

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** — mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturdir.

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- didaktik malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
- o'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Quyidagi pedagogning "Individual rivojlantirish dasturi"ning namunasi keltirildi (3-jadval):

**Individual rivojlantirish dasturi** 3-jadval.

| U/r | Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar                                                                                                                                                                                                                                             | Mayjud daraja | Ishtiqbol vazifalar |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|---------------------|
| 1   | Pedagogik bilimlar                                                                                                                                                                                                                                                            |               |                     |
| 2   | Psixologik bilimlar                                                                                                                                                                                                                                                           |               |                     |
| 3   | Mutaxassislik bilimlari                                                                                                                                                                                                                                                       |               |                     |
| 4   | Didaktik malakalar:<br>bilishga oid (gnostik) loyihalash<br>ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik<br>muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ)<br>tashkilotchilik<br>tashkilotchilikni ta'minlovchi (protsessual) texnik-texnologik malakalar                                |               |                     |
| 5   | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish<br>malakalari: bilishga oid (gnostik) loyihalash<br>malakalari ijodiy-amaliy (konstruktiv)<br>tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik<br>(kommunikativ) tashkilotchilik<br>izchillikni ta'minlovchi (protsessual) texnik-texnologik malakalar |               |                     |
| 6   | Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar:                                                                                                                                                                                                          |               |                     |

|   |                                                                                                        |  |  |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|
|   | pedagogik fikrlash tizimlilik moslashuvchanlik mobillik kreativlik hozirjavoblik hissiy rivojlanganlik |  |  |
| 7 | Pedagogik refleksiya O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar |  |  |

Pedagogning professional kompetentsiyasi pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. professionallikka ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq.

O'z-o'zini rivojlantirishda pedagog "Individual rivojlanish dasturi" asosida pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatleri va rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lgan sifat, bilim, ko'nikma va malakani aniq, xolis ifodalashi mumkin.

### Pedagogik kreativlik va kompetentlik

Pedagogik mahorat zahirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda pedagogik funksiyalarni muayyan tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi kasbiy-shaxsiy tavsif ang'lanadi. Kasbiypedagogik kompetentlik pedagogik voqe'likni tizimli tushunish va unda tizimli ish ko'rish ko'nikmasini o'z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljall olishni ko'zda tutadi.

### Kompetentlik uch muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- boshqa odamlar bilan munosabatlarda madaniyatini;
  - o'z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko'nikmasini;
  - o'quv axborotini boshqalarga berish ko'nikmasini.
- Shunday qilib, kasbiy-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo'ljali;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o'z faoliyat sohasida mo'ljall ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik.

O'quvchining kasbiy kompetentligi kreativlik bilan tavsiflanadi. Kreativlik kasbda ishlash usuli, yangi pedagogik borliqni yaratish istagi va ko'nikmasi. Kasbiy-kompetent pedagog refleksiyaga qodir bo'lishi lozim.

**Refleksiya** - fikrlashning alohida usuli. U pedagogik jarayonga hamda o'z o'lasiga muayyan kasb egasi sifatida chetdan nazar tashlashni ko'zda tutadi.

N.M.Karamzin: "Buyuk odamlar iste'dodi boshqa odamlarda iste'dodlarni kashf etishdan iboratdir", degan edi.

O'z-o'zidan ravshanlik, har bir pedagog shu uslubda ishlashi shart.

Ammo "Iste'dodlarni kashf etish" mexanik jarayon emas. Bu yerda pedagogning birinchi bosqichda o'quvchilarga o'rnatilgan bo'lish orqali ularni qiziqish uyg'otish va so'ngira ularning o'z tashabbusiga yo'l ochish qobiliyati alohida rol o'ynaydi.

**Kasbiy** - pedagogik kompetentlikning yuqorida zikr etilgan elementlari omirlanib tuzilmani, mutaxassisning "ideal modeli"ni tashkil etadi, uning shaxsiy-faol tavsifini belgilaydi.

Pedagogik texnika - o'quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish shartidir.

**Pedagogik texnika** - shunday malakalar yig'indisiki, u pedagogga talaba ko'rib, eshitib turgan voqea, hodisa, narsalar orqali ularga o'z fikrlari va his-hayajonlarini yetkazish imkonini beradi.

Talabalar bilan bevosita muamala qilishda pedagogning ana shu malakalari uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Pedagogik texnikani to'liq egallash uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahoratining tarkibiy qismlarini ham egallashi muqaddaga muvofiq. Chunki pedagogning faoliyati bir qator xususiyatlari bilan aktyor va rejissyorning ijodiy faoliyatiga yaqindir. Harakat, diqqat, chehra



yorqinligi, xayol, muomala va boshqalar teatr pedagogikasining asosiy tushunchalari bo'lib, ularni bo'lajak pedagog ham o'zlashtirib olishi foydalidir.

**Professional muloqot madaniyati** – ish jarayonida odamlarning o'zaro munosabatlari tashkil etish sohasidagi hamkorlar bilan aloqa o'rnatish, ular bilan til topish imkoniyatini beruvchi bilimlar va ko'nikmalardir.

Muloqot madaniyati zaminida xushmuomalalik, sipolik, odoblilik, kamtarlik, bir so'zlilik, iltifodlilik kabi muloqotga qo'yiladigan umumiy ahloqiy talablar yotadi.

Xushmuomalalik - boshqa odamlarga nisbatan hurmat ifodasi.

Muomalada, so'zlarda, ovoz ohangida, imo-ishoralarda aks etadi.

Sipolik - har qanday, eng avvalo - konfliktli vaziyatlarda o'zini qo'lga olib bilish.

Odoblilik ham muloqot madaniyatining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

U eng avvalo muloqotda me'yorni bilishni nazarda tutadi.

Kamtarlik o'zgalarga baho berishda sipolikni, ularning didini hurmat qilishni anglatadi.

Ishga doir munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishda bir so'zlilik ham o'lkani ahamiyat kasb etadi.

Faoliyatning istalgan sohasida berilgan va'dalar va olingan majburiyatlarni aniq bajarilmasdan ish olib borish qiyin.

**Itifoqlilik** - birinchi bo'lib iltifot ko'rsatishga, boshqa odamni o'rg'usizlik va ko'ngilsizliklardan xalos etishga harakat qilish.

Muloqot madaniyatining yuksak darajasi muloqot jarayonida insonda quyidagi shaxsiy fazilalar mavjudligi bilan belgilanadi:

**-empatiya** - dunyoni boshqalar ko'zi bilan ko'rish, uni shu odamlar kabi tushunish ko'nikmasi;

**-xayrixohlik** - hurmat, simpatiya, odamlarni tushunish, boshqalarni qo'llab-quvvatlashga tayyorlik;

**-tashabbuskorlik** - odamlar bilan til topa bilish, muayyan sharoitda javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlik;

**-ochliqlik** - ochiq-oydin gapirish va ish ko'ra olish, boshqalarga o'z ichki dunyosini ochishga tayyorlik;

**-o'z-o'zini bilish** – odamlardan o'zi haqida har qanday axborotni olishga tayyorlik, lekin o'zgalar fikriga qaram bo'lmaslik.

Har bir shaxsning rivojlanish xususiyatlari individual muloqot madaniyatining belakrorligi haqida so'z yuritish imkoniyatini beradi.

Muloqot madaniyati ta'lim jarayonida rivojlanishi mumkinligi yodda tutish muhimdir.

Kasbiy yuksalishga inson mehnat faoliyatida kasbiy ixtisoslashuvning muvofiq, muayyan turdagi kasbiy faoliyatda yutuqlarga erishish va ularning tan olinishi xos. Kasbiy yutuqlar ko'pincha xodim mansab pillapoyalardan ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Mansabga doir ko'tarilish – xodimning mansab mavqei, ijtimoiy roli, shuningdek tashkilotdagi nuftuzining o'zgarishi. Boshqacha aytganda, mansabga doir ko'tarilish – bir tashkilot doirasida xodimning rivojlanish bosqichlari izchil o'zgarishi.

Kar'yeraga o'z bosqichlariga ega va insonning yoshi hamda uning kasbiy faoliyati o'zgarishi bilan uzviy bog'liq. Mansab pillapoyalardan ko'tarilish bosqichlariga ulanmang har birida inson o'zining turli xil ehtiyojlarini qondirishi nuqtai nazaridan shartli tavsif berish mumkin.

Ma'lumot olishni yakunlagach, inson o'z mehnat faoliyatini boshlaydi, yangi muammolar muammolar bilan to'qnash keladi, mazkur jamoaga kirish va unda o'z o'rinini topishga harakat qiladi. Bu davrni yangi o'yinni o'rganishga o'xshatish mumkin: tushunib yetish lozim bo'lgan qoidalar va tanlash talab etiladigan variantlar bor.

Mehnat faoliyatining dastlabki yillarida inson o'z imkoniyatlariga mos keladigan ishni qidirib, bir nechta faoliyat turlarini almashtirishi mumkin.

**Shakllanish bosqichi** – taxminan besh yil davom etadi. Inson 25–30 yoshida tanlagan kasbini o'zlashtiradi, maqsadga muvofiq ko'nikmalar va malakani shakllantiradi. Bu bosqichni o'z maslagini izlash davri deb nomlash mumkin.

Odatda bu yoshda inson oila quradi, shu bois yaxshi maosh olish istagi paydo bo'ladi.

**Ko'tarilish bosqichi** – odatda 15 yil davom etadi. Inson 30 yoshdan 45 yoshgacha amaliy tajriba to'playdi, o'quv va ko'nikmalarini oshiradi. Shaxsiy maslak endi muammo hisoblanmaydi, lekin o'z qobiliyatlarini ishga solish sohasini kengaytirish maqsadga muvofiqiyati yuzaga keladi. O'z ishi, yutuqlariga qayta baho berish yuz beradi. Bu davrda xodimning kuch-g'ayrati ish haqi miqdorini oshirish va salomatlik haqida o'ylashga qaratiladi.

**Erishtilgan natijalarni saqlab qolish bosqichi** – bu bosqich ham taxminan 15 yil davom etadi. 45 yoshdan 60 yoshgacha inson erishgan malaka o'zining cho'qqisiga ko'tariladi, u o'z tajribasini yoshlar bilan o'rtoqlashishdan manfaatdor bo'ladi. Bu davr ijodiy faoliyat va ba'zan xizmatning yanada yuqoriroq pillapoyalarga o'tish bilan tavsiflanadi.

Insonning aksariyat ehtiyojlari qondirilgan bo'lsada, uni mehnatga haq to'lash darajasi qiziqitirishda davom etadi, u boshqa daromad manbalariga ham qiziqish bildiradi.

**Yakunlash bosqichi** – besh yil davom etadi. Inson 60 yoshdan 65 yoshgacha pensiyaga chiqishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Hozirgi vaqtda Kar'yerani rejalashtirish va boshqarish jarayonining ayniqsa keng tarqalgan modellardan biri mansab pillapoyalardan ko'tarilishni rejalashtirish va rivojlantirish borasida hamkorlik modelidir. Mazkur model ikki tomon - xodim va uning rahbari hamkorligini nazarda tutadi. Xodim o'zining mansab pillapoyalardan ko'tarilishini rejalashtirish va rivojlantirish uchun javobgar bo'ladi.

## **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari
2. Pedagoglarning o'z ustida izchil, muvaffaqiyatli ishlashi
3. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.
4. Individual rivojlanish dasturi (IRD)
5. Pedagogik kreativlik va kompetentlik
6. Kasbiy yuksalishga inson mehnat faoliyatida kasbiy ixtisoslashuvning ustunligi



## 6-mavzu. Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari



**Maqsad:** Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

Pedagogik mahorat, kasbiy tayyorgarlik, professionalizm, pedagogik kompetensiya, kasbiy kompetensiya, zamonaviy pedagog, zamonaviy o'qituvchi, zamonaviy model, pedagogik kompetensiya modeli, pedagogik professionalizm haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** Pedagogik mahorat; kasbiy tayyorgarlik; professionalizm; pedagogik kompetensiya; kasbiy kompetensiya; zamonaviy pedagog; zamonaviy o'qituvchi; zamonaviy model; pedagogik kompetensiya modeli; pedagogik professionalizm

**Mahorat** – muayyan ish, harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

**Pedagogik mahorat** – o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

**Professionalizm** — o'z kasbining ustasi degan ma'noni beradi. Kompetensiya esa o'z kasbiga munosib, o'z kasbini har tomonlana uddalay oladi degan ma'noni anglatadi.

O'zbek tilida "professionalizm"ni "master" — "usta", "masterstvo" — "mahorat" so'zlari xalqaro andozalardan kiritib kelgan "professionalizm" va "kompetensiya" tarqatida qo'llashni maqsadga muvofiq deb belgilangan.

Professionalizimga erishish uchun istak, izlanuvchanlik, doimo o'qish-o'rganishga tayyorgarlik va o'z pedagogik mahoratini oshirib borish kabi qobiliyatlarni zarur bo'ladi.

Pedagoglarning kasbiy mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.


**Mahorat** (a. "mahorat" – mohirlik, ustalik, epehillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

**Professional mahorat** – o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkilot, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, mohirlik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga ega

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonliklashkil etadi (7-rasm).

**Professional bilimdonlik** – pedagogning kasbiy faoliyatimavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobiliyati, kasbiy tayyorgarlik darajasi.

O'qituvchi pedagogik jarayon va munosabatlarni maqsadga muvofiq muvofiqlashtirish shakli, metod va vositalarini yetarli darajada o'zlashtira olgan faoliyati maqsadga muvofiq.




7-rasm-Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan mulloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanaadi.

Pedagog faoliyatida barcha umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar yetakchi o'rin tutadi. Pedagogik odobda pedagogik qarashlar, pedagogik faoliyat va munosabatlarni ifodalovchi muhim kategoriyalar asosiy o'rinini egallaydi (8-rasm):



8-rasm.Pedagogik odobning asosiy shakllari

Pedagogik odobning asosiy shakllari quyidagi mazmunga ega:

**Pedagogik adolat.** "Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi.

Pedagogik adolat pedagogning pedagogik jarayonga ob'ektiv, haqoniy yondasha olishi, uning tarbiyalanganlik darajasini ifodalaydi.

**Intuitsiya** (lot. "intuitio", "intueri" – "sinchiklab, diqqat bilan qaramoq") – mantiqiy bog'lannagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar yetarli bo'lmaganda chuqur mulohaza yuritish asosida masalalarni yechishning tarkibini bo'lgan e'vositlik (umumiy ijodiy fikrlash) jarayoni.

(M) = to'zkorlik, ba'zan lahzada shaklladigan faraz va masalalarning yechimini;

(M) = faraz va masala yechimining yetarli darajada mantiqiy asoslanmasligi;

"ijodiy" intuitsiya qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi.



**Professional intuitsiya** – o'qituvchining pedagogik jarayonda o'zaro mantiqiy bog'lanmagan yoki, mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar yetarli bo'lmagan chuqur mulohaza yuritish asosida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni yechishga qaratilgan e'vrestik fikrlash jarayoni.

O'qituvchiga xos bo'lgan tashkilotchilik qobiliyati uning faoliyatida o'ziga xos o'rin egallaydi.

**Tashkilotchilik qobiliyati** — sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

**Didaktik qobiliyat** – Didaktik qobiliyat – bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi.

**Konstruktiv qobiliyat** – Konstruktiv qobiliyat – o'quv-tarbiya ishlarni rejalashtirish va natijasini oldindan aytilish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

**Kommunikativ qobiliyat** – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan mulohaza qobiliyatiligidir.


### **Pedagogik majburiyat (pedagogik deontologiya).**

Pedagogik majburiyat jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalarni o'zida jamlaydi.

O'qituvchiga xos qobiliyalar orasida perseptiv qobiliyat ham muhim ahamiyatga ega. Perseptiv-pedagogik qobiliyat o'zida uch turdagi sezgirlikni qamrab oladi. Ular:

- ob'ektni his etish;
- me'yor va yondoshuvni his qilish;
- dahldorlikni his qilish.

O'qituvchilarda perseptiv-pedagogik qobiliyalarning mavjud darajasi pedagogik intuitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Intuitsiya ma'lum belgilarga ko'ra oddiy mulohazadan farq qiladi.



9-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish shakllari

1) nutq;

2) paralingvistik tizim (yun. "para" – "yaqin", mulogot tarkibida so'zli, g'oyaviy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan uzatish);

3) ekstralingvistik tizim (ingl. "exterior" – "tashqarida", nemischa "linguistik" – qabul qilingan shaxs tomonidan nutqning bevosita ijtimoiy vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash,

tutish va b.);


4) muloqotning tashkiliy ko'lamini va vaqti;

5) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;

6) belgilarning optik-kinetik tizimini (mimika, pantomimika, jestlar – qo'l va oyog' harakatlari)


Kasbiy shakllanishda o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda quyidagi shakllardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir (9-rasm):

O'qituvchi qobiliyatlarni rivojlantirishda ma'lum metodlarni qo'llash orqali maqsadga erishadi. Ushbu metodlar quyidagilardir (10-rasm).




10-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish metodlari

Pedagogik muloqot yo'nalishi (11-rasm).



11-rasm. Pedagogik muloqot yo'nalishlari.

Pedagogik muloqot jarayonida bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilar (12-rasm):




12-rasm. Pedagogik muloqot jarayonida bajariladigan vazifalar.

Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi vositalar orqali ro'y beradi.


O'qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkin. Ular quyidagilardir (13-rasm).





13-rasm. Pedagogik muloqot turlari

O'qituvchilar o'z faoliyatlarida muloqotning muayyan turlariga tayanib ish ko'radi. Muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi (14-rasm).



14-rasm. Pedagogik muloqot uslublari.

## 7-mavzu. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari



**Maqсад:** Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari haqida ta'lim berish.



**Vazifalar:**

Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari haqida tushunchalar berish.


Kasbiy kompetensiya, kompetentlik standartlari, "Ishonira olish" kompetensiyasi, "Tashabbuskorlik" kompetensiyasi, kompetentlikni baholash mezonlari haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, nazariy va amaliy aspektlar, kompetentlik standartlari, "Ishonira olish" kompetensiyasi, "Tashabbuskorlik" kompetensiyasi, kompetentlikni baholash.

Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland ta'kidlaydi, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta'kidlaydiki, "Inson shaxsi o'rganilayotganda nomzod yoki xodim o'zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to'g'ri javob bermaydi, xodimlar bilan ishlashda kompetentli yondashuv xodimlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunda aniq xodimning tegishli kasbiy kompetensiyaga ega ekanligi va darajasi aniqlanadi.

**"Kasbiy kompetensiya"** atamasi shunday izohlanadi: "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir"; Kasbiy kompetensiyalar shaxsiy xarakterli bayon etilishi mumkin, masalan, "Stressga chidamli", "Komanda ishiga loyiqdirlilik", "kreativlik" kompetensiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi ko'rsatilishi ham mumkin, masalan: "Muzokara olib borish", "Biznes-reja tuzish" kompetensiyalari.



18-rasm. Kasbiy kompetentsiya komponentlari

**Lavozim kompetentsiyasi** ro'yxatini shakllanirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

- teli-atvori (bevosita ko'rish mumkin bo'lgan);
  - aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos)
- Kasbiy kompetentsiya namunalari dan bir nechasini keltiramiz:

“Ishonitra olish” kompetentsiyasi.

Aniqlash: Boshqalarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'z qaror va harakatlari ga ko'ndirish.

“Tashabbuskorlik” kompetentsiyasi. Aniqlash: harakatlarni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqega muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish. Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular

bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirila maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum kompetentsiyaga moslashtiriladi. Test xodimlarning ushu kompetentsiyalarini qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetentsiyani egallash darajalari aniqlanadi, masalan: Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;
- yo'ishga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda xodimlarni tanlash, vakant lavozimiga nomzodni tanlash;

• xodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'shimcha o'qitish.

Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetentsiya bilan ishlash, ishkonaning hamma uchun yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real ta'vifnomalarini va malakalarini baholash imkonini beradi.

Xodimning ish tajribasini baholash, shuningdek og'zaki suhbat o'tkazish ko'pincha bir tomonlama amalga oshiriladi va har doim to'g'ri bo'lavermaydi. Talab etiladigan kompetentsiyalarining mavjudligiga o'tkaziladigan test quyidagi javoblarga to'liq javob bera olishi lozim bo'ladi, masalan: “Xodim tashkilot, muassasa yoki kompaniyamizdagi vazifalarni biz talab qiladigan darajada bajara oladimi?” “Unda yetarli tajriba, maqsadga muvofiqiy tayyorgarlik, alohida malaka va shu kabilar bormi?”.

Umuman olganda kompetentli yondashuv - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida keltirilgan tartibda tashkili etilisa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

### Kompetentlik standartlari

Kompetentlik standartlari - o'quv reja kompetentligiga asoslangan tayanch funktsiyasidir, chunki ular o'quv talablari, kasbni aniqlash va xodimlarni to'ldirish kabilar uchun muhim vosita.



Kompetentlik standartlari uch tipga ajratilgan bo'lishi mumkin, ya'ni, soha standartlari (industry standards), tarmoq standartlari (cross-industry standards) va korxona standartlari (enterprise standards). Soha standartlari – ish o'rinlari sohasida talab etadigan ba'zi bir kompetentliklarga qaratilgan.

Tarmoq standartlari – umumiy kompetentliklarni ajratadi va soha standartlariga umumlashtiradi.

Korxona standartlari – alohida kompaniya darajasida ishlab chiqiladi va amalg'a oshiriladi va odarda soha standartlarining o'ziga xoslig'i xisoblanadi, chunki farqli jih'atlar qo'shilgan yoki o'zgartirilgan.

Biroq individual talablar, milliy tuzilmaga va sanoat tarmoqlaridan bilimlarga ega bo'lishga e'tibor qaratish uchun korxona darajasidagi standartlarni ishlab chiqish muhim. Shuning uchun ham korxona standartlari tasdiqlanishidan oldin ta'lim muassasalari vakillari buday standartlarni ma'qullaydilar.

Ta'lim berish va o'qitish kompetentligiga asoslangan o'quv rejasini yaratish maqsadida metodni qo'llashdan oldin kompetentlik standartlari tasdiqlanishi lozim bo'lgan yuridik, siyosiy, nazariy va amaliy jih'adan tahlil qilish maqsadga muvofiq.

#### **Kompetentlik standartlari formati**

Kompetentlik standartlari formati alohida kompetentsiyalar va mexonlarni ifoda etuvchi elementlardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, tizim o'quvchi uchun o'zgaruvchan isbot bo'lib xizmat qiladi. Kompetentsiya birliklari kompetentlik guruhlari elementi ketma ketliklardan va bog'langan mezonlardan iboratdir. Birliklarda mehnat bozorida talabi mavjud bo'lgan model'lar va soha osti ixtisosliklar kompetentliklaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, milliy ixtisosliklar butunicha yechimini topmagan bo'lsada, alohida bandlik bo'yicha kompetentligini ixtisoslaydi. Soha kompetentligi va standartlarni tashkil etuvchi eng kichik kompetentliklardan bo'lgan kompetentlik elementlari ish o'рни talabidan va foydalanayotgan mezonlar kelib chiqqan xolda alohida bilimlar izohini ifoda etadi.

Foydalaniladigan mezonlar aniq elementlardan muvaffaqiyatli foydalanish maqsadida vazifa, funksiya yoki faoliyatlardan kompetentli foydalanish uchun daraja yoki standartni belgilaydi. Kompetentlik elementi uchun foydalanig sohasini o'rnatishda o'zgaruvchan diapazonlar qo'shilgan. Ular aniq yoki umumiy sharoitlarda faoliyat hajmini ifodalaydi.

Hozirgi paytda oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- professor-o'qituvchi tomonidan o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish;
- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, information texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;
- anglangan va mustaqil faoliyat (mustakil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish);
- tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;
- tanqidiy fikr yuritish olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;

• hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va e'tiborga asoslangan pedagogik mul'oqotni o'rnatish;

- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish.

Hozirgi zamon oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi:

**Ijtimoiy bilimdonlik** - dars mobaynida auditoriya bilan muvaffaqiyatli o'zaro munomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog'lom ma'naviy mul'tini hosil qila olish qobiliyati.

**Uslubiy bilimdonlik** - barcha bilimlarini, ko'rgan-kechinganlarni yoshlarga tushuntirish, ravon tilda yetkazish olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlardan muvaffaqiyatli foydalanishi.



**Ixtisoslik bilimdonligi** - o'z fani va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

Bugungi talaba ilimga, yangiliklarga bo'lgan kuchi qiziqishi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangiliklaridan boxabarligi sababli anchagina ma'lumotlarga ega, uning ehtiyojlar tizimini, o'qituvchiga bo'lgan talab-takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim:

**Kuzatuvchanlik qobiliyati** - o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha kata bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham faxmlab oladi.

**Nutq qobiliyati** - nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalashdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha talabalarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, talabaning javobini tahlil qilayotgan yoki baxolayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

**Tashkilotchilik qobiliyati** - birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruxlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishini to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali ukiuvchilarda vaqtni o'ziga xos his yetilish - ismi vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

**Obro' ortira olish qobiliyati** - o'quvchilarga bevosita emosionalirodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchilarning fanni yaxshi bilishi, mexrbonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi.

Talabalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqimaydigan, halol-pokiza to'g'ri talab ko'ya oladigan o'qituvchini juda xurmat qiladilar.

**To'g'ri muomala qila olish qobiliyati** - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlar o'rnatib bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

**Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati** - o'z harakatlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tubtayanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib berib olishda ifodalanaadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning qudrati, odamga ishonch bilan bog'liqdir.

**Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati** - o'qituvchi uchun diqqatning barcha nusxasatlari - xajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabi taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir kancha ijobiy shifatlarga - aniq maksadni ko'zlash, kat'yilik, mecnasevatlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Lavozim kompetentsiyasi ro'yxatini shakllantirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

- fe'l-atvori (bevosita ko'rish mumkin bo'lgan);
  - aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos)
- Kasbiy kompetentsiya namunalardan bir nechasini keltiramiz:

**“Ishontira olish” kompetentsiyasi.** Aniqlash: Boshqalarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'z qaror va harakatlarga ko'ndirish.

**“Tashabbuskorlik” kompetentsiyasi.** Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqecaga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsata olish.

Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish odatida har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum



kompetentsiyaga moslashtiriladi. Test xodimlarning ushbu kompetentsiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetentsiyani egallash darajalari aniqlanadi.

Hozirgi paytda oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajraladi:

- professor-o'qituvchi tomonidan o'z bilimini muntaзам ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish;
- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, information texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;
- anglangan va mustaqil faoliyat (mustakil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish);
- tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;
- tanqidiy fikr yuritish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;
- hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik mulqotini o'rnatish;
- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish.

## O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar

1. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarini kasbiy shakllantirish.

2. Kasbiy kompetentsiya, kompetentlik standartlari

3. "Ishontirish olish" kompetentsiyasi.

4. "Tashabbuskorlik" kompetentsiyasi.

5. Kompetentlikni baholash mezonlari

6. Hozirgi zamon oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlari

7. Ijtimoiy bilimdonlik

8. Uslubiy bilimdonlik

9. Ixtisoslik bilimdonligi

## 8-mavzu. Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar.



**Maqсад:** Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. Professiogramma haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

1. Professiogramma — kasb tavsifnomasi. Pedagogika nazariyasida bilimlar ikki guruhga ajratilishi, o'zlashtiriladigan bilim, BILIM > KO'NIKMA > MALAKA.
2. Malaka turlari, pedagogika nuqtai nazaridan kompetentlik haqida tushunchalar berish
3. Pedagogik faoliyatga nisbatan kompetentlik turlari, nazoratning mazmuni, turlari va amalga joriy etish metodlari haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** professiogramma, bilim, ko'nikma, malaka, didaktika, oqitish va tarbiyalashda kompetentlik, o'zlashtiriladigan bilim

O'qituvchi uchun muhim ko'nikmalar: maktab mahmuriyati, ota-onalar, jamoatchilik bilan o'zaro aloqalarini o'rnatish (muloqot qobiliyatlari, bugungi tushunchalarga ko'ra, kommunikativlarga yaqin); axborot ko'nikmalari va malakalari; o'z fikrlarini yorqin, mazmunli, mantiqiy ifoda etish qobiliyati (bugungi g'oyalarga ko'ra — didaktik va nutq); ishonch hosil qilish, o'zga jalb qilish, o'z tarafdori jalb qilish qobiliyati kabilar.

### Pedagogika nazariyasida bilimlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Muvofig tarzda fan asoslarini ifodalovchi ilmiy bilimlar;
2. Dobzarblik va turg'unlik jihatidan o'zgaruvchan bo'lgan axborotlar ko'rinishidagi ilmiy ma'lumotlar.

Ilmiy ma'lumotlar odatda nazariyaning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bu bilimlarning muntazam jamlanish hozirgi faning muayyan holatini ifodalovchi

deduktiv tizimdagi axborotlar hajmining ortib borishiga olib keladi, lekin mazkur fan negizini tashkil qiluvchi bilimlar tizimiga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi. Bu holda yangi ma'lumotlarning faqat bir qismigina ilmiy nazariyaning asosiy holatlarini o'zgartirib borish uchun xizmat qiladi.

Bunday holda bilimlar qanchalik umumlashgan bo'lsa, ular shu darajada turg'un xarakterga ega bo'ladi.

Bilimlar o'rganilayotgan buyum va hodisalar mazmuni va qarash ko'lamini kengligiga xizmat qiluvchi mukammallikka ega bo'lishi lozim.

**O'zlashtiriladigan bilim**-hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos xizmat qiladi. Ko'nikma va malakalarning mazmuni va o'zaro nisbati haqida bir qancha yo'nalishdagi qarashlar mavjud. Didaktikada mavjud bo'lgan an'anaviy nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, ko'nikma malakadan ilgari hosil bo'ladi va mashq natijasida ko'nikma malakaga aylanadi.

Chunonchi "Pedagogik entsiklopediya" da:

"Ko'nikma ishlashga to'g'ri keladigan sharoitlarga mos harakatlarni samarali bajara olish" deb ta'riflanadi. Ko'nikmalar ham amaliy, ham nazariy xarakterga ega bo'ladi.

Xuddi shu "Pedagogik entsiklopediyada":

"Malaka-yuqori darajadagi harakat" sifatida ta'riflanadi.

Ushbu bosqichda harakatlarning avtomatlashadi, aqliy boshqaruv bir daraja kamayadi. Malakada amaliy faoliyatning shu qadar tezroq bajariladiki, hapakat o'z-o'zidan amalga oshayotgandek ko'rinadi.

A.A. Smirnov, A.N. Leon'evlar tahriri ostida nashr etilgan "Psixologiya" kitobida malaka quyidagicha ta'riflanadi: «Mashq natijasida mustahkamlangan hapakat usuliga malaka deyiladi». «Ko'nikmalar esa ishni bajarishning mustahkam va tartibli darajasiga erishish imkonini beruvchi mashqlarni talab qilmaydi».



M.A.Daniylov ko'nikmalarni harakatlarni bilish deb, malakani esa harakatning ayrim avtomatlashgan qismini ifodalaydi deb yozadi.

K.K.Platonovning fikricha "Ko'nikma shakllantirilgan bilim va malakalar asosida hosil bo'ladi; malaka-bu maqsadli faoliyat davomida uni tashkil etuvchi harakatlarni avtomatlashirilgan holda, unga nisbatan maxsus yo'naltirilgan diqqatsiz, biroq aqliy nazorat ostida bajarilishidir".

K.K.Platonov o'z fikrini davom ettirib shu adabiyotning boshqa joyida yana shunday yozadi: hap qanday malaka, bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olib, mavjud bilim va ko'nikmalar asosida shakllanadi, ularni yangi sharoitlarda yetishmaydigan elementlarni qayta shakllantiradi. Psixologiya sohasidagi adabiyotlarda ko'nikma va malakalarga oid quyidagi fikrlar bildirilgan: "Maqsadli harakatlarning inson tomonidan qisman avtomatik ravishda bajarilishiga malaka" deyiladi.

"**Malaka**" deganda-odamning bilim va oddiy tajriba asosida egallagan muayyan harakatlarni ongli bajarish qobiliyati anglanadi.

Bilimlar bajarilayotgan harakatlarning nazariy asosidir. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim davrlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi.

Hap qanday malakalarni egallash bilimlarga asoslangan aniq faoliyat amaliyotini talab qiladi, ularsiz umuman malakalar bo'lishi mumkin emas.

Malakani psixologik asosi deganda faoliyat maqsadi sharoit va uni bajarish usullari orasidagi o'zaro aloqadorligi anglanadi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki malaka bilimlarga tayanadi.

Bilimsiz malaka yo'q. Ko'nikma va malakani shakllantirish jarayoni ilmiy tadqiqot ishlarida turlicha qilingan. Ko'pchilik adabiyotlarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni quyidagicha qabul qilingan:

#### **BILIM > KO'NIKMA > MALAKA**

Ushbu ketma-ketlik K.K.Platonov tomonidan taklif etilgan bo'lib u bizning fikrimizcha ilmiy jihatdan ko'pchilik olimlar tomonidan asoslab berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: "Ko'nikma-harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatidir; ko'nikma ma'lum darajada fikrlab bajariladigan harakatlardir;

ko'nikmalar-qandaydir harakatni yangi sharoitlarda bajarish usulidir; ko'nikma murakkab tizimli psixik va amaliy harakatlarni egallashdir".

Malakalar quyidagicha ta'riflanadi: "Malaka-yuqori o'zlashtirilganlik darajasiga ega bo'lgan harakatlardir majmuasidir; malaka-mashqlar natijasida mustahkamlangan hapakat usulidir;

**-Pedagog rejissyorlik malakalar**-notiqlik va pedagogik rejissura malakalarni o'z ichiga oluvchi umumpedagogik malakalar.

**-pedagogik** faoliyatning muqobil modellarni tuzish jamoa va shaxs rivojlanishini loyihalash, ta'lim va tarbiya jarayonini hamda ularning natijalarini nazorat qilishni oldindan aytib berish bo'yicha umumpedagogik malakalar. Kasbiy ishlash staji oshib borgan sari quyidagi malakalarning sezilarli rivojlanishi kuzatiladi:

**-Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish malakalari.** Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va bir tizimga keltirish undagi asosiy larini ajratish, pedagogik, ishlab chiqarish va muhandislik sohasiga malakalarni hosil qilishdagi bilim malakalari. Ko'rsatilgan diagnostik malakardan ilg'or pedagogik tajribani tahlil etish va qo'llash malakalari ish staji oshishi bilan rivojlanib boradi.

**-Maxsus malakalar**-ishlab chiqarishning biyor sohasi bo'yicha mutaxassislikning muhandislik texnikaviy malakalari.

**-professional pedagogik malakalar** tarkibi umumlashgan faoliyatning uch bosqichini tashkil etadi.

Shakllangan kasbiy ko'nikmalarga xos belgilar: xarakatni bajarish aniqligi va tezligi, turg'unlik, mustahkamlik, moslashuvchanlik.

Mehnat ko'nikmasini mehnat harakatlari majmuini anglagan holda, berilgan holat uchun maqadtra muvofiq uslub tanlay olish va shunga ko'ra yuqori sifat va miqdoriy mehnat ko'rsatgichlariga erishishdir deb baholaymiz.

Mehnat ko'nikmalarining keltirilgan xususiyatlaridan ko'rinish turidiki kasbiy ko'nikma bu nafaqat jismoniy balki aqliy harakatlarga ham tayyorgarlik, ma'lum ishlab chiqarish vazifalarini bajara olish, ularni hal qilishning eng qulay usullarini tanlay olish, maqsadga muvofiq harakatlarni rejalashtirish va bajara olish qobiliyati



hamdir. Kasbiy ko'nikmaning aqliy jihatlarini jismoniy jihatlardagi bo'lgan kabi mukammal shakllantirib borish talab etiladi.

Yuqori kasbiy ko'nikmani egallashga boshqichma-boshqich erishiladi. Ta'limning dastlabki davrida talaba sodda boshlang'ich ko'nikmalarni egallaydi, mehnat harakatlarni nomukammal, sekin bajaradi, hap bir harakatni ongli ravishda kuzatib nazorat qilib boradi lekin barbir maqsadga muvofiq natijaga erisha olmaydi.

Dastlab ko'nikma xarakatni maqsadli ravishda takrorlashi natijasida malakaga o'ta boradi, bunda bir sharoitning o'zida o'sha harakatlari yengil va oson, bajarilishini ongli nazorat qilmasdan, xuddi avtomatik harakatlardек bajariladi. Shunday qilib, malaka shakllantirilgan ko'nikmaning mashqlar davomida hosil bo'lgan avtomatlashgan komponentidir.

Ko'nikma va malakarning o'zaro farqi harakatni xatosiz bajarish tezligi bilan belgilanadi. Mustahkam malaka uchun bu holat umuman xarakterli emas. Boshqacha qilib aytganda hosil qilingan malaka ishchi tomonidan tayrlangan eng ko'p detallar soni va ular sifatining davomiy yuqori darajasi bilan belgilanadi.

Ko'nikma kelib chiqishiga ko'ra malaka usiqypma sifatida shakllanadi. Bu holat insondagi xarakatlar turli-tumaniigi, atrof muhitga ijodiy munosabatni talab qilish bilan belgilanadi. Har bir yangi ko'nikma hap doim ham analiz va silez natijasi, ilgari malum bo'lgan bilimlarga yangilarni qo'shilishidir, malaka esa bir harakatning o'zini ko'p martalab takrorlash natijasidir.

**Ko'nikma** – bu o'quvchilarning malum sharoitda maqsadga muvofiq harakat usullarini tanlash va qo'llash hamda shu turdaiyi mehnat qilishni ongli va to'g'ri bajarish, mehnatda ijobiy natijalarga erishishdir.

O. Abduquddusovning fikricha bilish hali uddalay olish degani emas. Ish-harakat usullarini o'zlashtirish o'quv faoliyatining maxsus sohasi – boshqichidir. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ish-harakat usullari psixologiyada ko'nikma va malakalar deb e'tirof etiladi.

**Malaka** ish-harakat usullarini aniq, tez va takomil darajada amalga oshirishni anglatadi.

Malaka turli darajada o'zlashtirilib, har doim ong bilan nazorat qilinadi.

Har qanday ish-harakat usullari ko'nikma yoki malakaga aylanishi uchun bir necha marta takrorlanishi maqsadga muvofiq. Bunda malaka uchun dastlab bir xil operatsiyalarni oddiy va keyinchalik esa turli sharoitlarda takrorlash maqsadga muvofiq.

Amaliy ko'nikma va malakalar bevosita sezish organlariga tayangan holda o'zlashtirilishi mumkin, bunda eshitish, kuzatish, xati-harakatlarni amalga oshirish, ehamalash, ranglarni farqlash kabi sensor ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Motor ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun dastgohda ishlash, mashinada yozish, yo'riqnoma boyicha tajriba-sinov ishlarga tayyorlanish kabi harakatlarnish mashqlarini bajarish talab etiladi.

Ba'zi bir ko'nikma va malakalar sensomotor o'zlashtirishni talab etadi. Masalan, xul yozish, chizma chizish, grafiklar tuzish kabilar.

Intellektual (baqliy) xati-harakatlar ham ko'nikma va malaka deb e'tirof etiladi. **Malaka** – ko'nikmaning tartibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim komponentlarini maksimal anqlikda, tezlikda va maqsadga muvofiq ravishda avtomatlashirilgan tarzda bajarishga bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Malaka o'quvchilarda ko'p karra mashq qilish natijasida shakllanadi.

**Malaka (kvalifikatsiya)** - shaxsning u yoki bu turdagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajasi bo'lib, muayyan ish mehnat mahsuloti sifati va sonida eksi etadigan turli mohirlik darajasida, boshqacha ifodalasak, ishchi malakasi, o'rtta, oliy yoki ilmiy malakaviy darajada bajarilishi mumkin.

Shu boisdan kasbga tayyorlashning an'anaviy to'rtta malakaviy darajasi farqlanadi:

ishchi malakasiga ega bo'lgan mutaxassislar,  
o'rtta bo'g'in mutaxassislari,  
oliy bo'g'in mutaxassislari,  
ilmiy malakali mutaxassislar.



Yanada aniq ifodalaydigan bo'lsak, malaka kichik mutaxassisning kashiy tayyorgarlik darajasi bo'lib, ma'lum ishni bajarish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar mavjudligidir.

Har qanday mehnat jarayoni, istalgan faoliyat turi murakkab ierarxik (quyi qismlarning yuqori qismlarga bosqichma-bosqich bo'yisinishi) tuzilishga ega. Ko'pincha quyidagi ierarxik darajalar farqlanadi: **operatsiya – usul – amal**.

Shu sababli faoliyatning ayrim turlarini bajarish ko'nikmasini ierarxiyaning qaysi bir darajasi bilan bog'lab, qolgan darajalari bilan bog'lamaslik mumkin emas. Boshqacha ifodalasak, faoliyatning ayrim turlarini bajarish ko'nikmasi operatsiyalar, usullar, amallar va harakatga mansub bo'lgan barcha bo'yisunuvchi ko'nikmalar o'zlashtirilgan paytdagina shakllanadi.

O'z navbatida, mazkur ierarxik yondashuv, mehnat jarayonini amalga oshirish qobiliyatini bir-biridan ayri holda ko'nikma va malakaga ajratishga asos qoldirmaydi. Masalan, operatsiyani bajarish qobiliyatini ko'nikma deb, usullarni bajarish qobiliyatini malaka deb atashga hech qanday asos yo'q.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, ko'pchilik mutaxassislarning fikrlariga qo'shilgan holda, malakani ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi kategoriyasi sifatida, kvalifikatsiya tushunchasiga turdosh kategoriya sifatida tavsiflash mumkin. Haqiqatan ham, ko'nikmalar shakllanganlik nuqtai nazaridan boshlang'ich, oraliq va tug'al (mohirlik) darajalarga bo'linadi.

Tug'al darajadagi, ya'ni avtomatlashgan ko'nikmaning o'zi malaka deganidir. Ta'kidlash joizki, malaka va kvalifikatsiya tushunchalaridagi farqlar saqlanib qoladi, zero malaka - psixologiya kategoriyasi hisoblanasa, kvalifikatsiya - mehnat jarayonlari nazariyasi va amaliyotiga mansubdir.

“Kompetentlik” so'zi (uning ildizlari lotincha *competens* - ya'ni mos keluvchi, qobiliyatli) o'z semantikasida ikki xil ma'noga ega:

- 1) chuqur bilimga ega, puxta biladigan;
- 2) kompetent, ma'lum sohadagi yangiliklardan xabardor.

Pedagogikada kompetent so'zi (lotincha *competere* - erishish, mos kelish, to'g'ri kelish) mazkur shahs ega bo'lgan bilimlar, tajriba masalalari doirasi sifatida aniqlanadi va lavozim yo'riqnomalarda yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda muvotajlanadi.

Pedagogik lug'atda “Kompetentlik” - shaxsning ma'lumoti darajasi bo'lib, u bilishga oid yoki amaliy faoliyatning nazariy vositalarini egallash darajasi bilan belgilanadi.

Psixologiyada “Kompetentlik” tushunchasi biror malakani rivojlantirishning yuqori darajasi, masala yoki yaxlit faoliyatni yechish usuli bo'lib, u ijro etishning muvaffaqiyatiga, tezligiga, aniqligiga o'z ifodasini topadi, sifatini ta'minlashning psixologik tizimi bilan bog'lanadi.

Psixologiya lug'atida “Kompetentlik” tushunchasi mazkur odam bilim va tajribaga, vakolatlar yig'indisiga, xuquq va majburiyatlarga ega bo'lgan muammolar faoliyat sohasi doirasi sifatida talqin qilinadi.

“Kompetentlik” - biror narsani yaxshi, muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati, biror kasbda qo'llaniladigan belgilangan standartga rioya qilish qobiliyatidir. Psixologlar o'zlarida kompetentlikni mutaxassisning shaxsiy imkoniyatlari chegarasida qarab chiqishadi.

Pedagogik nazoratning rejali ravishda amalga oshirilishi o'quvchiga ma'lum bir puyida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, muvaffaqiyatga erishish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga imkon beradi.

O'quvchilar tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotlar va o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishining uyg'un holda olib borilishi har bir o'quvchiga o'zi erishgan yutuqlarni ko'rib, mohiyatini anglashga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarini bartaraf etish chorra-tadbirlarini ko'rishga imkon beradi.

Respublikamiz ta'lim muassasalari amaliyotida nazoratning joriy, oraliq va yakuniy turlaridan ko'proq foydalaniladi.



Joriy nazorat - o'qituvchi tomonidan asosan har bir mashg'ulot (dars)da o'quvchining har kunlik ishini nazorat qilish uchun amalga oshiriladi. Bunday nazoratdan oldin o'qituvchi avval o'rilgan materialni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganligi bilan tanish bo'lishi maqsadga muvofiq.

Oraliq nazorat - odatda ma'lum mantiqiy tugallangan bo'lim, bob yoki o'quv yarim yilligi va yilning tugatilishi bilan o'tkaziladi. Bunday nazorat orqali nisbatan katta hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-bilish faoliyatining natijalari tekshiriladi.

Yakuniy nazorat - o'quv yilining oxirida, shuningdek, o'quv kursi o'rganilib bo'lingandan so'ng joriy va oraliq nazorat natijalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

### **Masgadlarni belgilash bo'yicha kompetentsiya va pedagogik faoliyatning**

#### **vazifalari**

Pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash sohasidagi kompetentsiya o'qituvchining masgadlarni belgilash jarayonining har bir bosqichini amalga oshirish sifatini aks ettiradi:

- \* dars (tadbir)masgadini tanlash va shakllantirish;
- \* o'quvchilar uchun dars masgadini qayta tuzish;
- \* dars yoki topshiriqning masgadini shakllantirish va asoslash;
- \* natija tasvirini yaratish va unga erishish usulini tavsiflash, unga qo'yiladigan talablar tizimini tushuntirish;
- \* o'quvchilarda masgadli talim jarayonini va masgadlarni belgilash bo'yicha o'z faoliyatini kuzatish va baholash.

Har bir dars boyicha ham, darslarning butun tsiklini tashkil etish jarayonida ham qaror qabul qilish muhim.

Pedagogikada o'qituvchiga qo'yiladigan talablar turi xil atamalar bilan ifodalanadi: "kasbiy muvofiqlik", "kasbiy tayyorgarlik". Ushbu tushunchalar maxsus semantik soylarga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi.

Shunday qilib, "kasbiy muvofiqlik" deganda tanlangan kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan insonning aqliy va psixofiziologik xususiyatlarining yig'indisi tushuniladi.

"Kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi yanada sig'imli va harakatchan. Kasbiy tayyorgarlikka qo'shimcha ravishda pedagogik faoliyatda kasbiy tayyorgarlik ko'nikma va malakalar darajasini ham o'z ichiga oladi. Uning tarkibida, bir tomondan, psixologik, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarlikni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining ilmiy, nazariy va amaliy tayyorgarligini ajratish qonuniydir.

Shunday qilib, o'quvchi psixofiziologik fazilatlari bo'yicha o'qituvchi sifatida ishlabga yaroqli bo'lishi mumkin, ammo nazariy yoki amaliy tayyorgarlikning etarli emasliligi sababli u hali bunga tayyor emas.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tushunchasini tashkil etuvchi idealizatsiya qilingan shaxsiy va kasbiy fazilatlar professorlik shaklida taqdim etilishi mumkin. Profesiogramma-bu o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, pedagogik va maxsus bilim va ko'nikmalar to'planini o'z ichiga olgan pasportning bir turi.

Il. V. Kuzmina o'qituvchining faoliyatini sinchkovlik bilan tahlil qilib, pedagogik faoliyat tarkibida o'zaro bog'liq uchta tarkibiy qismini ajratib ko'rsatdi: biz ilgari aytib o'tilgan konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ.

Pedagogik jarayonning samaradorligi fikr-mulohazalarning mavjudligi bilan bog'liq. Shu sababli, pedagogik faoliyat tarkibida biz pedagogik faoliyatda zarur deb hisoblagan nazorat va baholash (aks ettiruvchi) komponentini ajratib ko'rsatish kerak.

Profesiogrammada o'qituvchining pozitsiyasi yetakchi o'rinni egallaydi-uning dunyoga intellektual-ixtiyoriy va hissiy-baholovchi munosabatlari tizimi. O'qituvchining ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasini farqlang. O'qituvchining ijtimoiy pozitsiyasi uning qarashlari, e'tiqodlari va qadriyat yo'nalishlari tizimidan iborat. Kasbiy pozitsiya-pedagogik kasbga, pedagogik faoliyatning masgadlari va vositalariga munosabat.



O'qituvchi ma'lumot beruvchi, do'st, diktator, maslahatchi, ariza beruvchi, usta va boshqalar sifatida harakat qilishi mumkin. Ushbu professional pozitsiyalarining har biri o'qituvchining shaxsiyatiga, uning ijtimoiy mavqei-ga qarab ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchi shaxsining eng chuqur, asosiy xususiyati haqli ravishda ishonch deb hisoblanadi. O'qituvchining yuzi gumanistik pozitsiya, bilim-ga bo'lish istagi, insonning qadri-qimmatini kamitadigan kamechiliklar va axloqiy illatlarga toqat qilmaydigan munosabat, burch va mas'uliyat hissi bilan belgilanadi; ularning pedagogik mahoratini oshirish va o'quvchilar uchun namuna bo'lish istagi, madaniyatni ko'tarish qobiliyati.

O'qituvchining navbatdagi eng muhim xususiyati-bu shaxsning yo'nalishi. Pedagogik yo'nalishning asosi o'qituvchi kasbiga qiziqishdir. Shaxsning kasbiy va pedagogik yo'nalishi pedagogik burch va javobgarlik kabi fazilatlarda ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi uchun zarur bo'lgan sifat pedagogik o'lchovdir-ta'sirni dozalashtirish va bir vositani boshqasiga muvozanatlashga yordam beradigan intuitiv o'lchov hissi. Pedagogik taktika ayniqsa o'qituvchining nazorat va baholash faoliyatida aniq namoyon bo'ladi, bu erda alohida e'tibor va adolat juda muhimdir.

O'qituvchining individual ma'naviy madaniyatining namoyon bo'lishi ijodiy fidoiylik bo'lib, unda o'z-o'zini tasdiqlash jamiyatga xizmat qilish bilan uzviy bog'liqdir. Shaxsning ma'naviy kuchlari va madaniy ehtiyojlarining namoyon bo'lishidan biri bu bilim-ga bo'lgan ehtiyoj va ularning ichki qiymatini tan olishdir.

Barcha nazariy asoslarga, pedagogik faoliyatga va o'qituvchining shaxsiga qo'yiladigan talablarga asoslanib, biz "o'qituvchi" kasbiga qaysi odamlar kelishini aniqlaymiz, bolani ular-ga bizning kelajagimizning tayanchi sifatida ishonib topshirish mumkinmi? Buning uchun quyida keltirilgan o'quvchilar o'rtasida kichik so'rovlar o'tkazamiz.

### 3.3. Profессиография

Mutaxassislarining professional tanlovini optimallashtirish uchun quyidagilar zarur:

\* mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tanlash zarurligi to'g'risida qaror qabul qilindi;

\* mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini baholashga uslubiy yondashuvlarni baholash;

\* mutaxassislik bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyatni (o'qishni) samarali boshqarish qilishga imkon beradigan mezonlarni tanlang.

Ushbu ish faoliyatini psixologik tahlil qilmasdan mumkin emas, uning maqsadi kasbiy faoliyat tomonidan insonning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash, ya'ni ushbu mutaxassislikning kasbiy muhim fazilatlari. Ular mutaxassisning rol xususiyatlarining asosini tashkil qiladi. Ushbu rohnani o'rganish mehnat psixologiyasining bir sohasi — profессиография bilan shug'ullanadi.

Kasbiyографияning maqsadi kasbiy faoliyat jarayonida mutaxassisning mehnat ob'ektlari, vositalari va mahsulotlari, atrof-dagi odamlar va ushbu faoliyat bilan birga keladigan boshqa hodisalar bilan o'zaro ta'sirning xususiyatlarini aniqlashdir. Akmeография. bundan tashqari, ushbu maqsadni insonning tanlangan faoliyat turida o'zining professional cho'qqilariga erishishini aniqlash bilan bog'laydi.

Kasbiy muvofiqlik masalasini muvaffaqiyatli hal qilish uchun tizimli yondashuv zarur. Kasbiy faoliyatning psixologik mazmunini tahlil qilishda bir nechta tarkibiy qismlar ajratilib turadi. bu erda quyidagi kasbiy fazilatlarda juda muhimdir:

1. Faoliyatning shaxsiy tarkibiy qismi, ya'ni hissiy, ixtiyoriy va motivation rohnalarining xususiyatlari, tashkiliy qobiliyatlari;

2. Faoliyatning hissiy-idrok komponenti, ya'ni idrok va e'tiborning xususiyatlari;

3. Faoliyatning gnostik yoki intellektual tarkibiy qismi, ya'ni axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish jarayonining xususiyatlari;

4. Faoliyatning motor komponenti, ya'ni. psixomotor fazilatlari va nutqning xususiyatlari.

Amaliy psixolog uchun "inson-inson" tizimi mutaxassisining muvaffaqiyati faoliyati uning ushbu tizim tomonidan talab qilinadigan fazilatlarni shakllantirish bilan hal qiluvchi bog'liqligini tushunish muhimdir.

Inson - inson tizimining mutaxassisiga taqdim etiladigan fazilatlari:

- \* mulqotga intilish;
- \* notanish odamlar bilan osongina aloqa qilish qobiliyati;
- \* odamlar bilan ishlashda bargaror, o'zini yaxshi his qilish;
- \* yaxshi niyat, sezgirlik;
- \* chidamlilik, his-tuyg'ularni ushlab turish qobiliyati;
- \* boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, boshqa odamlarning niyatlari va kayfiyatlarini tushunish qobiliyati, boshqa odamlarning munosabatlarini tushunish qobiliyati, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish, ularning o'zaro munosabatlarini tashkil etish qobiliyati;
- \* tinglash qobiliyati, boshqa odamlarning fikrini hisobga olish;
- \* nutqni, yuz ifodalarni, imo-ishoralarni boshqarish qobiliyati;
- \* aniqlik, aniqlik, uyg'unlik;
- \* odamlar psixologiyasini bilish; yaxshi operativ, mexanik va vizual xotira;
- \* mantiqiy fikrlash;
- \* qat'iyatlik, sabr-toqat.

Ushbu fazilatlarning rivojlanish darajasini baholash usullari sifatida turli xil testlardan foydalanish mumkin.

#### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar

1. Pedagogika nazariyasida bilimlar ikki guruhga ajratilishi
2. O'zlashtiriladigan bilim
3.  $OLIM > KONIKMA > MALAKA$
4. Malaka turlari
5. Pedagogika nuqtai nazaridan kompetentlik
6. Pedagogik faoliyatga nisbatan kompetentlik turlari
7. Nazoratning mazmuni, turlari va amalga joriy etish metodlari haqida tushunchalar berish.
8. Professiogramma — kasb tavsifnomasi.



## 9-mavzu. Pedagogik kasbning sathlarini tashkil etuvchi kompetentsiyalar



**Maqсад:** Pedagogik kasbning sathlarini tashkil etuvchi kompetentsiyalar haqida ta'lim berish.



### Vazifalar:

kompetentli o'qituvchi, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy sharoitlari haqida tushunchalar berish.

Ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetentsiyalari, pedagogik mulqot ko'nikmalari haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** pedagogning kasbiy kompetentligi, kompetentsiya; model; o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi; kompetentsiyaga asoslangan yondashuv

Zamonaviy o'qituvchi tomonidan qanday kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish kerakligini tartibga soladi. Biroq, ular "qanday aniq" degan savolga javob bermaydilar o'qituvchi kasbiy mahorat darajasini oshirishi kerak".

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning o'ziga xos usullarini tanlashda "O'qituvchining malakasi"ni aniqlash kerak.

Pedagogik faoliyatta ta'lim standartlari, ta'lim to'g'risidagi qonun va kompetentsiyaga asoslangan yondashuv bo'yicha zamonaviy ilmiy nashrlarni tahlil qilish asosida olingan o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi modelini shakllantirish mumkin.

Har bir ta'lim muassasasi rivojlanish traektoriyasini qurish uchun aniq o'qituvchilar va o'qituvchilardan foydalanishi, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish uchun tegishli usullarni tanlashi mumkin.

O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini uning faoliyatida rivojlantirishda uning o'ziga xos xususiyatlari va o'qituvchi ishlaydigan muhit kabilarini e'tiborga olish muhim.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'qituvchilar uchun qo'shimcha ta'lim, talab qilinadi:

- ☐ o'z faoliyatini yuqori darajada amalga oshirishni professional darajada, ta'limlangan ish dasturiga muvofiq o'qitiladigan o'quv fanlari, kurs, modulning to'liq bajarilishini ta'minlash;
- ☐ kasbiy darajani muntazam ravishda oshirish;
- ☐ ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egallab turgan lavozimiga muvofiqligi uchun attestatsiyadan o'tish;
- ☐ Qonunning bandlarida shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchi o'z nuqtai nazaridan bir joyda turmasligi kasbiy rivojlanishi kerak.

Bundan tashqari, bu aholining barcha qatlamlarini hisobga olgan holda bog'rikenglik xatti-harakatlarining to'g'ri strategiyasini ishlab chiqish kerak.

Shunday qilib, zamonaviy o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lish uchun o'zining kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bilim va ko'nikmalarni to'plashdan kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishga o'tish (kompetentsiyaga asoslangan yondashuv) yaqinda dolzarblashadi.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalarining chambarchas bog'liqligi to'g'risida guvohlik beradi.

Shuningdek, mavjud nazariy va amaliy asoslarni o'rganib chiqib, "Kasbiy kompetentlik" deganda ma'lum bir vaqtda shakllangan o'qituvchining kasbiy kompetentsiyalari to'plamini tushunish kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Quyida kasbiy kompetentlik tarkibiga kiruvchi ba'zi kompetentsiyalar bilan tanishamiz:

### 1. O'qituvchining axborot kompetentsiyasi :

O'qituvchining shaxsiyatining murakkab xususiyatlaridan biri bo'lib, uning ilmiy ma'balarni mustaqil ravishda electron qidirishi, kerakli, axborot, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash qobiliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tartibga solish, qayta ishlash, saqlash, axborotlarni uzatish, taqdim etish va topshirish kabilar.

2. Axborot kompetentsiyasi: o'qituvchining shaxs sifatida faoliyat yuritish qobiliyati, axborot bilan elektron ishlash, kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq orgtexnika va dastur texnologiyalari bilan amalda, kundalik hayotda va pedagogik faoliyatda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi.

### 3. Axborot-tahliliy kompetentsiya:

yangi bilimlarni rivojlantirish, prognozni amalga oshirish, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatidan iborat o'qituvchi shaxsiyatining murakkab xususiyatlarga ega bo'lishi.

### Zamonaviy innovatsiyalar sohasidagi kompetentsiyalarga:

Ta'lim innovatsiyalari sohasidagi kompetentsiyalarga ega bo'lish, ta'lim innovatsiyalari sohasida muvaffaqiyatli faoliyat, innovatsion ta'lim faoliyatini amalga oshirish qobiliyati kabilar kiradi.

### 4. AKT sohasidagi kompetentsiya:

asosiy qidiruv tizimlari va internetda ma'lumot qidirish, tanlashning umumiy qoidalarini bilish, ma'lumotni baholash va tanlash mezonlari to'g'risida; sinxron va asinxron internet-aloga vositalari to'g'risida; o'qitish uchun ishlatiladigan veb-texnologiyalar to'g'risida; kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan ma'lumot materiallari to'g'risida; o'quvchilarning yutuqlarini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish uchun onlayn testlarning asosiy turlari va internet xizmatlari to'g'risida atroflicha tushunchalarga ega bo'lish.

### 5. Intellektual va pedagogik kompetentsiya:

1. Pedagogik hodisalarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati

2. Pedagogik hodisalarni taqqoslash qobiliyati: standart bilan taqqoslash, ta'minlash, bitta hodisaning muvofiqdigi boshqasiga, miqdoriy va sifat jihatidan baholash.

3. Abstraksiyadan foydalanish qobiliyati.

4. Bilimlarni umumlashtirish va konkretlashtirish qobiliyati.

5. Pedagogik xulosalardan foydalanish qobiliyati.

6. Professional tasavvurdan foydalanish qobiliyati.

Operatsion kompetentsiya: mavzu-uslubiy faoliyat, loyiha-texnologik faoliyat, boshqarali faoliyat, tashkiliy faoliyat, pedagogik improvizatsiya, ekspert faoliyati.

Inklyuziv ta'lim sohasidagi kompetentsiya komponentlari quyidagilar:

Kognitiv komponent: sharoitda o'quv jarayonini tashkil etish va mazmuni o'zlashtirish inklyuziv ta'lim.

Hissiy komponent: affektiv reaksiyalar va hissiy baholash tuyg'ular, bog'liq iqtisodiy inklyuziv ta'lim ijtimoiy ob'ekt sifatida o'rnatish.

Motivatsion-konativ komponent: tayyorlik kompetentsiyaning namoyon bo'lishi.

Yangilash komponenti: ta'lim jarayonida o'z-o'zini tahlil qilish pedagogik faoliyat, faoliyatni tahlil qilish talabalar, o'qituvchi va bolalarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish o'quv jarayoni, natijalarni tahlil qilish.

Texnologik tarkibiy qism: turli xil ta'lim ehtiyojlari va rivojlanishdagi turli xil pedagogiyalarga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim usullari va metodologiyalarini bajarish qobiliyati.

Diagnostika komponenti: sozlash qobiliyati talabalarning shakllanish jarayonining aniq diagnostikasi jamoa, shaxsni shakllantirish, bilim, ko'nikma va alohida talabalarning tarbiyasi.

Tuzatish komponenti: oraliq va yakuniy diagnostika natijalarini hisobga olgan holda uning har bir bosqichida pedagogik harakatlar jarayonini sozlash qobiliyati.



Bashoratli komponent-ta'minlash qobiliyati ushbu yoki boshqa pedagogik harakatlarning natijalari inklyuziv ta'lim mezonlari.

Birinchi yordam ko'rsatishga tayyorgarlik.

Diagnostik kompetensiya:

1. Tarkibiy va tashkiliy tarkibiy qism: bilim etarli diagnostika usullari va proektsion usullar, ularni to'g'ri qo'llash qobiliyati muayyan vaziyat.

2. Motivatsion va qiymat komponenti: daraja kognitiv motivatsiya, etarli fikr diagnostika faoliyatining roli va ma'nosi, ularning ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadga muvofiqati.

3. Operatsion va faoliyat komponenti: aniq, tashxisni izchil amalga oshirish, mustaqil va to'g'ri tanlash va foydalanish diagnostika vositalari.

Taqdim etilgan model zamonaviy o'qituvchiga etkazish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning (kompetensiyalarda birlashtirilgan) eng to'liq tavsifini o'z ichiga oladi.

Kompetensiyali yondashuv shaxsning ma'lum bir sohada bilimdon, bilimdon, obro'li sifatida an'anaviy ta'rif bilimning asosidir.

Tizimli yondashuv kasbiy kompetensiyani tizimli hodisa sifatida ko'rib chiqadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi pedagogik faoliyatining yo'nalishi, ushbu faoliyatning tarkibiy qismlari va o'qituvchi shaxsining tuzilishi bilan belgilanadigan ajralmas kasbiy xususiyat sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Sinfda o'qituvchi jamoaviy va individual ishlarning turli shakllarini birlashtiradi, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qiladi, xuddi shu turdagi mashqlarni qisqartiradi. U faol mulotoq holatlarini yaratadi – nafaqat monolog, balki dialog, polilog ham – o'quvchiga o'zini ifoda etish, tashabbus ko'rsatish, tanlash usullarida mustaqillik berish imkonini beradi, kognitiv faoliyat, o'quv topshiriqlarining turlari, didaktik materialning turlari va shakllarini biladi.

Ushbu kompetensiyani uchta asosiy ko'rsatkich orqali ochib berish mumkin:

«sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini o'rnatish qobiliyati,  
«o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati,  
«pedagogik baholashni amalga oshirish qobiliyati.

O'qituvchining o'quvchilar bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini o'rnatish qobiliyati o'zaro tushunish, hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, o'quvchini qadrlash qobiliyati, unga yordam berishga tayyorligi, unga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi.

O'qituvchi misollar va o'xshashliklardan foydalanadi, shunda o'quvchi ilgari o'rganilgan bilimlarni yoki harakat usullarini boshqa vaziyatlarga o'tkazishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga topshiriqni qanday qilib yaxshiroq tashkil etish kerakligini, qanday vazifalarni boshlashni, nimaga alohida e'tibor berish kerakligini tushuntiradi – bu o'quvchilarga shakllantirishga, bilimlarni mustaqil izlash usullari va o'z-o'zini tartibyalashga intilishga yordam beradi.

Pedagogik baholash o'quvchining bilim darajasini belgilaydi, ushbu darajaning me'yoriy tasdiqlangan talablarga muvofiqligi darajasi quyidagilar uchun asosdir pedagogik faoliyatni boshqarish va tartibga solish, chunki uning maqsadlariga erishish darajasini aks ettiradi.

Kompetentli o'qituvchi baholash mezonlarini yaxshi tushunadi, ularni o'quvchilar topshiriqni bajarishdan oldin ham har doim u nima uchun u yoki bu baho berilganligini asoslashi mumkinligini tushuntiradi.

O'qituvchi o'quvchiga ularning o'zini o'zi qadrlashi topshiriqlarni bajarish talablariga qay darajada javob berishini ko'rsatishni qanday qilishni biladi. Bularning barchasi o'qituvchiga o'quvchining mumkin bo'lgan tushumovchiligini, g'azabini yoki iqtidorini barcha tomonlardan e'tiborga olish imkon beradi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Kasbiy kompetentli o'qituvchi
2. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari
3. Ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari



## 10-mavzu. Pedagogik kreativlik



**Maqsad:** Pedagogik kreativlik haqida ta'lim berish.



**Vazifalar:**

“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati haqida tushunchalar berish.

O'qituvchining kreativ individualligi, o'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va kreativ faoliyat natijasi, o'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlari, potensial kreativlik, o'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bosqichlari, prospektiv refleksiya haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** kreativlik, pedagogik kreativlik, o'qituvchining kreativ individualligi, o'qituvchining innovatsion faoliyati, kreativ faoliyat, kreativlik bosqichlari, potensial kreativlik, prospektiv refleksiya.

Mamlakatimizda mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizga kasb-hunar sirlarini egallashi, sog'lom raqobaga asoslangan mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun zarariyatini bugun zamoning o'zi talab qilmoqda. Davlat dasturi hamda boshqa huquqiy-me'yoriy manbalarda mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilayotganligini yana bir bor tasdiqladi. Ta'lim jarayoni o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bo'lajak

mutaxassis uchun kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy shakllantirish davri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga yerishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo

bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Giltford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikrning ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyati; xayol qila olish, fantastik (fantaziya).

**Potensial kreativlik** N.M. Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning maqsadga muvofiqiy subektiv shartidir.

**Faoliyatsidagi kreativlik** - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning yeng muhim subektiv shartidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatsidagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini (tashuvchi (subtekt) tomonidan uning o'zlashtirishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slavenin, N.M. Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatsidagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydi.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar, yo'riqnomalar amalga o'tkaziladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani va amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.



Demak, o'quvchining individual kreativ qobiliyatini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida anglanadi.

Individual kreativ qobiliyatni xarakterlaydigan muvaffaqiyatli o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi:

o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining belakor ekanligini anglay olishi;

o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlar to'plami;


individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uygunligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning kreativ sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi;

kreativ sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rini anglay olish kabilar. Kadrlar tayyorlashda innovatsion, progressiv ta'lim, akmeologik omillarni inobatga olib, unda shaxsga individual, insonparvarlik tamoyillari asosida yondashuvni, bu narsa o'z navbatida o'quvchilardagi kasbiy mahoratni o'stirishni nazarda tutadi. Kreativlik sifatлари quyidagilar sanaladi (19-rasm):

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlarga quyidagilar kiradi: refleksiya qobiliyati, hissiyotga boylik, ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik, mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi, boy tasavvur, o'z kreativligini to'lato'kis namoyish etish, eruditsiya (bilag'onlik), ijodiy yo'nalganlik, mantiqiy fikrlay olish kabilar.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllanib va rivojlanib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafoollamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari maqsadga muvofiq degan ehtimolni ifodalaydi.



19-rasm. Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlار

Bolalarda kreativlikni rivojlanirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odanni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlanirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;


2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholammasligi;



- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jiharga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir (20-rasm):



20-rasm. Shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jhati

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmasilik;

- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Pedagogik kreativlik: pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.


Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan kreativlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, muhabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi maqsadga muvofiq:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish muvaffaqiyatli sanaladi (21-rasm).




21-rasm. Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantiruvchi metodlar

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi (22-rasm):








22-rasm. Pedagogning kreativ potentsiali tarkibiy asoslari

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'ljajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabali yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi (23-rasm):



23-rasm. Pedagogning kreativlik potentsiali tamoyillari


Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon etib oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
  - masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
  - masalani hal qilish rejasini tuzish;
  - masalani hal qilishda muvaffaqiyatli metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduktivya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
  - masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
  - qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
  - masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
  - masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimini yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.
- Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:
- ijodiy fikrlashga odatlanadi;



- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boorish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.



24-rasm. Pedagogning kreativlik metodlari

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi. Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsiyalini uch darajada aniqlash imkonini beradi (5-jadval):

5-jadval

| Pedagoglar kreativ potentsiyalining muhim darajalari |           |
|------------------------------------------------------|-----------|
| N <sup>o</sup>                                       | Darajalar |
| Daraja xususiyatlari                                 |           |
| 1                                                    | Yuqori    |
| 2                                                    | O'rta     |
| 3                                                    | Past      |

Bolalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan David L. Yu'is tomonidan

amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Ko'rsatma quyidagilardan iborat:

1. Bolalarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering.

2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak qiling.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun ko'ymang.
5. Vaqt-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejaralarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashing.
8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.
9. Kamchiliklarini ko'rsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.
10. Bolani kamsitmang va o'zini yomon, g'ij deb hisoblashishiga yo'l qo'ymang.
11. Uni mustaqil fikrlashga o'rgating.
12. Bolani sevimli mashg'ulotini tashkil etishi uchun maqsadga muvofiq buyumlar bilan qurollantiring.
13. Uni turli voqealarni o'ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.
14. Bolani yoshlikdan o'qib-o'rganishga odallantiring.
15. Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qaratng.
16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
17. Otlarga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.
18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
19. Bolani har bir yutug'i uchun maqtang.
20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo'ling.
21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan mulqot qilishga o'rgatib boring.
22. Uning borligini anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab toping.
23. Bolaga turli latla-putalar bilan o'ynashni taqdimlang – bu uning tasavvurini boyitadi.
24. Uni muammolari topish va uni hal qilishga rag'batlantiring.



25. Bolaga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odli bo'ling.
26. U bilan muhokama qilnadigan mavzularni cheklamang.
27. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering.
28. Bolaga uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun yordam bering.
29. Bolaga uning uchun foydalil bo'lgan teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko'maklashing.
30. Uni o'z qobiliyatlarini ijodiy qabul qilishga odatlantirib boring.
31. Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
32. Bolaning o'ziga va uning sog'lom fikrga ega bo'lishiga ishoning.
33. Bolaga "Men ham buni bilmayman" deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga beqaror bo'lishga o'rgatmang. Bolaga, garchi u ishning ijodiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishini oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yarating.
35. Kundalik daftar yuritish va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

#### **O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari.**

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyati natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishni ko'zda tutadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli mulogoti aks fikrlarga nisbatan beqaror munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z kreativligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi

ishining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti mulogotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Mulogotning yangi vaziyati-bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqei, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatini yaratish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'rnatilish qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashtirib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti-bu o'qituvchining madaniyat va mulogotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqeikni o'zgartirishga, uning muammolari va mualliflari yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi mulogot munasabatlari o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qisovlar, hukmga bo'ysunish kabi usullardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim munasabat bu o'qituvchi va talabaning ijodidagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- Ijodiy faoliyatning oqig'i tahlili;
- Ijodiy faoliyatga nisbatan tanqid yondashuv;
- Ijodiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- Dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- O'z imkoniyatlarini to'yogga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va ilg'ituvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga bo'lgan maqsadga muvofiqiyat quyidagilar bilan o'zlashadi:



•ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

•ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

•pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga yangilik, maqbullik (optimal'nost'), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiritadi. Keyingi bosqichda-sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatta eng muhim masalalardan biri-o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-innovator semahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovi qilaqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

•yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;

•yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'liy muhtab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Insonning kasbga yaroqliligi - ishlab chiqarishning muayyan sohasida ma'lum lah funktsiyalarini o'zlashtirish va muvaffaqiyati faoliyat olib boorish uchun muqaddaga muvofiq bo'lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va ahloqiy fazilatlarining muqaddaga muvofiqiy yig'indisi. Pedagogik faoliyatga yaroqlilikni tavsiflovchi shaxsliy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishinlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), odoibilik,

kuzatuvchanlik, zehni o'tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'ziga nisbatan o'ta talabchanlik kiradi. Bularning barchasini diagnostika qilish va muayyan darajada shirovdan o'tkazish mumkin.

Kasbiy bilimlarni takomillashtirish va mahoratga erishish uchun pedagog pedagogik faoliyat tuzilishini tasavvur qilishi lozim. Psixologik tadqiqotlar (N.V.Kuz'mina, A.I.Sherbakov va b.) ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik faoliyatning quyidagi turlari mavjudligini ko'rsatadi:

Diagnostika (diagnosis – tanib olish, aniqlash) faoliyati ta'lim oluvchilarni o'rganib, ularning rivojlanish, tarbiya darajasini aniqlash bilan bog'liq. Har bir ta'lim oluvchining jismoniy va ruhiy rivojlanish xususiyatlarini, uning aqliy va



ahloqiy darajasini bilmasdan talimtarbiya ishini amalga oshirish mumkin emas. Bunga erishish uchun pedagog kuzatuvchan bo'lishi, o'rganish va diagnostika metodlarini bilishi lozim.

Konstruktiv-loyihalash faoliyati – tarbiya faoliyati yo'nalishini, uning har bir bosqichdagi aniq maqsad va vazifalarini belgilay bilish, uning natijalarini prognoz qilish.

Tashkilotchilik faoliyati talim oluvchilarni tarbiya ishiga jalb qilish va ularning faolligini rag'batlantirish bilan bog'liq. Buning uchun pedagog aniq vazifalarni belgilash, talim oluvchilar tashabbusini rivojlantirish, vazifalar va topshiriqlarni taqsimlash, ish jarayoniga rahbarlik qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Ta'limiy-baholash faoliyati - talim va tarbiya jarayonini tahlil qilish, ijodiy tomonlar va kamchiliklarni aniqlashdan iborat. Bu turdagi faoliyat pedagogga ishda ikki tomonlama aloqani quvvatlash, uni takomillashtirish yo'llarini izlashga yordam beradi.

Tadqiqot-ijodiy faoliyat - talim-tarbiya ishining yangi shakllari va usullarini topish yo'lida izlanish, mavjudlarini ijodiy rivojlantirish.

Pedagog o'zini o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirishdan ko'zlaydigan maqsad – o'z pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish.

Kompetentsiya-malum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sohada uning faoliyati tajribasi tufayli o'quvchining shaxsiy fazilatlari to'plami.

"Kompetentsiya" tushunchasining mazmuni "bilim" yoki "ko'nikmalar" yoki "ko'nikmalar" kabi tushunchalarga qaraganda ancha kengroq. "Kompetentsiya" va "kompetentsiya" atamalarini farqlash kerak. Ushbu tushunchalarni ajratib, bir qator mualliflar kompetentsiya o'rganish (o'qitish) natijasi sifatida harakat qilishini, kompetentlik esa amaldagi kompetentsiya ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, assimilyatsiya (bilim, ko'nikma, ko'nikma) va qo'llash (faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq) kabi baholash parametrlari ajratib turadi.

So'nggi paytlarda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni aktuallashtirish bir qator omillarga bog'liq.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv shaxsni nafaqat mutaxassis, o'z ishining mutaxassisi sifatida, balki shaxs va jamoa va jamiyat a'zosi sifatida ko'p qirrali o'qitish va tarbiyalash g'oyasi bilan bevosita bog'liqdir, shuning uchun u gumanitar asosda.

Gumanitar ta'limning maqsadi nafaqat o'quvchiga ma'lum bir sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarning umumiyligini berish, balki dunyoqarashni, fanlararo instinktni, individual ijodiy echimlar, o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek gumanistik qadriyatlarini shakllantirishdir.

Bularning barchasi kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchi tomonidan bir-biridan alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni kompleksda o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Ta'limdagi kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning mahosini tavsiflovchi konseptual apparat hali o'rnatilmagan. Shunga qaramay, ushbu yondashuvning ba'zi muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv-bu talim maqsadlarini aniqlash, talim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish va talim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari to'plami. Ta'limdagi kompetentsiyaga asoslangan yondashuv printsiplariga asoslanadi. Ushbu printsiplarga quyidagi qoidalar kiradi:

- har bir uchun talim, jamiyada muvaffaqiyatli sozlashtirish va shaxsiy rivojlanish.
- O'quvchiga talim natijalarini o'zi rejalashtirish va doimiy o'zini o'zi qadrlash jarayonida ularni takomillashtirish imkoniyatini berish.
- O'quvchilarning mustaqil, mazmunli faoliyatini o'z motivatsiyasi va natijasi uchun javobgarligi asosida tashkil etishning turli shakllari.



- Ta'limning ma'nosi o'quvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli sohalar va faoliyatdagi muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lib, uning elementi o'quvchining o'z tajribasi hisoblanadi.

- Ta'lim mazmuni kognitiv, dunyoqarash, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishda didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajribadir.

- O'quv jarayonini tashkil etishning ma'nosi ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish bo'yicha o'quvchilar tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir.

- Ta'lim natijalarini baholash ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar tomonidan erishilgan ta'lim darajasini tahlil qilishga asoslangan.

Ta'limni modernizatsiya qilish strategiyasi shuni ko'rsatadiki, Umumiy ta'limning yangilangan mazmuni asosiy kompetentsiyalarga asoslanadi.

Maktabda shakllantirilgan va ishlab chiqilgan asosiy kompetentsiyalar orasida axborot, ijtimoiy-huquqiy va kommunikativ kompetentsiya bo'lishi kerak.

Kompetentsiyalar nafaqat ta'lim muassasasida, balki oila, do'stlar, ish, siyosat, din, madaniyat va boshqalar ta'siri ostida ham ta'lim jarayonida shakllanadi. Shu munosabat bilan kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'quvchi yashaydigan va rivojlanadigan butun ta'limiy madaniy vaziyatga bog'liq. Har bir kompetentsiyaga nisbatan uning rivojlanishining turli darajalarini ajratish mumkin (masalan, minimal, ilg'or, yuqori).

Turli xil yosh bosqichlarida turli xil fan sohalarida olingan faoliyat usullari majmui, natijada bolada asosiy maktabdan chiqishda, fan sohasidan qat'i nazar, har qanday faoliyatda qo'llaniladigan faoliyatning umumlashtirilgan usullarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

Faoliyatning ushbu umumlashtirilgan usullarini kompetentsiyalar deb atash mumkin. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv-bu ta'lim maqsadlarini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlashning umumiy tamoyillari to'plami, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash majmui.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchidan umumta'lim maktabi bitiruvchisi keyingi kasbiy faoliyatida qanday universal (asosiy) va maxsus (malakaviy) shaxsiyat fazilatlari zarurligini aniq tushunishni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchining faoliyatining taxminiy asosini – ob'ekt, vositalar, maqsadlar, mahsulotlar va faoliyat natijalarini tavsiflashni o'z ichiga olgan faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamini tuzish qobiliyatini nazarda tutadi.

O'quvchidan bolalarga ushbu bilimlarni o'rgatish, ushbu ko'nikmalarni o'rgatish va zamonaviy o'quvchi keyingi hayotda foydalanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish talab qilinadi.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchi tomonidan bir-biridan alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni kompleksda o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan u o'zgaradi, aniqrog'i, o'qitish usullari tizimi yangi usulda aniqlanadi. O'qitish usullarini tanlash va qurish tegishli kompetentsiyalarning tuzilishiga va ularning ta'limda bajaradigan funksiyalariga asoslanadi.

### **"Tarbiya" darslarida kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amaliy amalga oshirish usuli.**

Ushbu ishda men O'rta sinflarda "Tarbiya" darslarida kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amaliy amalga oshirish usulini taklif qilamiz. Ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi qoidalariga asoslangan konstruktivizm falsafasiga amal qilish kerak:

1. Bilimlarni tayyor shaklda berish mumkin emas, faqat o'quvchilarning bilimlarini o'z-o'zini qurish va o'z-o'zini o'stirish uchun pedagogik sharoitlarni yaratish mumkin.

2. O'quvchilarni atrofidagi voqealardan muhim muammolarni izlash, tadqiq qilish va hal qilishga jalb qilish orqali o'rganish motivatsiyasi, ularning echimini maktab, umuman, shahar hayotidagi haqiqiy vaziyat bilan bevosita bog'liq.



3. Umumlashtirilgan tushunchalar, tizimli bilimlar va integral ko'nikmalarga asoslangan o'quv mazmunini loyihalash.

4. O'quvchilarning aqliy faoliyatini rag'batlantirish, bayonotlar, taxminlar, farazlar va taxminlarni rag'batlantirish, o'quvchilar bilan muloqot va fikr almashishni tashkil etish.

5. O'quvchi yaqin maslahatchi, tadqiqot va kognitiv faoliyatning koordinatori, u sharoit yaratadi. Tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.

O'quv predmeti o'z-o'zidan maqsad emas, balki shaxsni rivojlantirish vositasidir. Shunday qilib, zamonaaviy o'quvchi ta'limning yangi paradigmasi nuqtai nazaridan hal qiladigan eng muhim vazifalar o'quvchilarni qarama - qarshi axborot oqimida harakat qilishni o'rgatish, o'quvchilarni muammoli tadqiqot kognitiv faoliyatiga jalb qilish va o'quv jarayoniga amaliy e'tibor berishdir. Konstruktivizm falsafasining ushbu qoidalarini amalga oshirish amalda har kuni darslarda, ma'ruzalarda, seminarlarda, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishda, konferentsiyalarda, ekologik to'garaklar doirasida, olimpiadalarda qo'llanilishi kerak.

**Loyiha faoliyati.** Vazifalar o'quvchilarni loyiha faoliyatiga jalb qilish orqali hal qilinishi kerak, ular davomida ular turli xil ma'lumot manbalaridan foydalanadilar. Ilmiy va amaliy konferentsiyalar. Ta'limning yangi paradigmasi o'quvchilar o'z loyihalarini himoya qiladigan konferentsiya darslarida ham amalga oshirilishi kerak. Konferentsiya doirasida loyihalar tanlovi o'tkaziladi, tanlov natijalarini sarhisob qilishda o'quvchilarning ovoz berish natijalari hisobga olinishi kerak. Hakamlar hay'ati tarkibiga quyidagilar kiradi: maktab direktori, tarbiya, geografiya, biologiya, ijtimoiy fanlar o'quvchilari. Bunday konferentsiyalar o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Loyihani tayyorlash va himoya qilish o'quvchilarda mustaqil ravishda bilim olish, o'z nuqtai nazarini to'g'ri himoya qilish, notiqlik mahoratini shakllantirish qobiliyatini shakllantiradi. Ilmiy-amaliy konferentsiyaning misoli, shuningdek, "Inson salomatligi" mavzusidagi ochiq dars – konferentsiyadir. ushbu darsning maqsadi: olingan bilimlarni mustahkamlash,

ishlarning ekologik muammolarini aniqlash va salbiy omillarning inson salomatligiga ta'sirini kamaytirish yo'llarini izlash.

Darsga parallel sinf o'quvchilari taklif etiladi.

Asosiy vazifalar: materialni mustaqil tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish, so'ngira unil qayta ishlash va taqdimot shaklida taqdim etish.

Dars metodologiyasi: dars konferentsiya shaklida bo'lib o'tadi, unda o'quvchilar turli mavzulardagi taqdimotlarni taqdim etadilar: "Inson hayoti", "salomatlik – tuman boylik", "salomatlik-o'z q'olimizda", "Suv resurslari" va boshqalar.

Dars natijalari: dars o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Dars davomida o'quvchilar o'zlarining taqdimotlarini himoya qilishda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalardan foydalanadilar.

Tematik loyiha faoliyati. Har yili tanlangan mavzu bo'yicha loyihalarni himoya qilish kerak. Ish jarayonida mavzu va muammo chuqurroq o'rganiladi. Loyiha faoliyati muammoli yo'naltirilgan tadqiqot kognitiv faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'quvchi koordinator va maslahatchi vazifasini bajaradi. Tashabbusni qo'llab-quvvatlash, asoslash va boshqar qilishni o'rgatadi.

Bilan ko'nikmalarni o'rgatish maqsadi munozara o'tkazish va guruhda ishlash uchun "Salomatlik turniri" o'tkazilishi kerak ushbu tadbirning maqsadi: iqtidorli bolalarning maqbul rivojlanishiga hissa qo'shadigan sharoitlarni yaratish, atrof-muhitni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish.

Asosiy vazifalar: iqtidorli bolalar bilan ishlashda samarali bo'lgan uslubiy metodlardan foydalanish.

Natija: o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini to'g'ri himoya qilish, munozara o'tkazish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, guruhda ishlash qobiliyatini shakllantirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kollektiv o'quv ishlari o'quvchining o'zini boshqa odamning nuqtai nazarini bilan baholash qobiliyati, shuningdek o'zini turli nuqtai nazardan baholay olish qobiliyati



rivojlanadi. Boshqa odam oldida javobgarlik, qaror qabul qilish qobiliyati oshadi. Bu o'quvchining faol hayotiy pozitsiyasini, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini va o'zini o'zi qadrlashni, aloqa jarayonida nizolarni engish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb qiladi.

O'z – o'zini tarbiyalashning barcha turdagi o'quv va kognitiv motivlarini shakllantirishning asosiy zaxirasi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirishdir. Ushbu faollashtirish o'quv ishlarining turli shakllarida amalga oshirilishi mumkin. 1. O'quvchi tomonidan boshqariladigan o'quv faoliyati, bu erda o'quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlari o'quvchi yordamida amalga oshiriladi va amalga oshiriladi. Asta-sekin o'quvchi o'quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini o'quvchilarga mustaqil ravishda amalga oshirish uchun topshiradi. Psixologlarning fikriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi qadrlash bilan boshlanishi kerak. Bu mustaqil talim faoliyatiga olib ketadi.

2. Mustaqil o'quv faoliyati uning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlari o'quvchi yordamisiz o'quvchilar tomonidan amalga oshirilganda amalga oshiriladi.

Mavzuni o'rganish uchun motivatsiya yaratish. Motivatsiyani tarbiyalash-bu umuman o'quvchining shaxsini shakllantirish bilan bog'liq uzoq jarayon. Psixologlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning kognitiv motivlari ijtimoiy motivlarga qaraganda osongroq va tezroq tiklanadi.

Zamonaviy o'quvchining eng muhim vazifasi o'quvchilarda bilim olish uchun motivatsiyani yaratish va ularning mavzusiga qiziqishni rivojlantirish, shuningdek o'quv jarayonida shaxsning individualligini shakllantirish, uning barcha sohalarini rivojlantirishdir. Individuallikni rivojlantirgan shaxs to'liq ishonadi va o'z kuchiga umid qiladi. U natijat erkin, balki mustaqil shaxs hamdir. Siz yoshligingizdan tarbiyaga qiziqishni rivojlantirishingiz mumkin.

**Iqtidori bolalar bilan ishlash.** Zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish kognitiv motivlarning barcha turlarini yaxshilaydi, birinchi navbatda: bilimga, talim mazmuni va jarayoniga qiziqish.

O'quvchi muammoni hal qilishning turli usullarini, uni tekshirishning turli usullarini muvaffaqiyatli qilishda ishtirok etadigan darajada, u, albatta, talim va kognitiv motivlarni – bilim olish usullariga qiziqishni yaxshilaydi. O'quvchilarni maqsadlarni belgilash usullari ham euk bo'lib bormoqda.

Muammoli talim vazifalarni erkin tanlash holatlari, munozara muhiti bilan birga keladi, bu esa talimning obro'si motivatsiyasini, kompetentsiyaga intilish motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash. Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, o'quv predmeti maqsad emas, balki shaxsni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsiyatni shakllantirishda o'quvchilarning zamonamizning tanqidi olimlari bilan uchrashuvlari katta ahamiyatga ega. Bunday uchrashuvlar ilmiy ishlarga hurmat va mahalliy olimlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalaydi, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bunday uchrashuvlardan so'ng, ko'pchilik o'quvchilar ilm-fan bilan jiddiyroq shug'ullana boshladilar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning ham mazmunli, ham protsessual tarkibiy qismlari dastlab o'zgaruvchan-shaxsiy deb taxmin qilinadigan va talim mazmunini o'zlashtirish va u uchun muhim tarkibni o'zlashtirgan shaxsni rivojlantirish natijalarini aks ettiradigan yangi, yaxlit talim natijasiga erishishga qaratilgan bir vaqtning o'zida.

Mamlakatimizda kompetentsiyalarga asoslangan yondashuv bilimlarni olinmaytiradi. Talim emas, balki hayotiy muammolarni hal qilish tajribasi allaqachon to'plangan va tushunilgan. Treningning asosiy natijasi bilim, ko'nikma va ko'nikmalar emas, balki mazmunli faoliyat tajribasi bo'ladi. Hayotiy tajriba muvaffaqiyatli ravishda shakllanadi. Didaktik birliklarning to'plangan yuki emas, balki uni turli vaziyatlarda qo'llash qobiliyati baholanadi. Maktab hayot muammolarini hal qilishga tayyor bo'lishi va uning mustaqilligiga tayanishi kerak. Va shuning uchun o'qitish usullari va shakllari o'quv mazmuniga bo'ysunmasligi kerak, balki ma'lum pedagogik maqsadlarga erishish uchun mustaqil vosita sifatida ishlatilishi kerak. O'quvchining monologi, frontal-individual so'rov, ma'lumoti suhbat,



o'quvchilarning ushbu topshiriqlar bo'yicha darslik bilan mustaqil individual ishi va boshqalar kabi o'quv ishlarining qobiliyatsiz shakllari va usullaridan voz kechishga harakat qiling.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar

1. "Kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. P.Torrensning fikricha, kreativlik nejjizida qanday ko'nikmalakalar namoyon bo'ladi?
3. Kreativlikka xos eng muhim sifatlar qaysilar?
4. Shaxsning kreativlik xususiyatlari qaysi yoshda ko'zga tashlanadi?
5. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda qanday shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq?
6. Qanday omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi?
7. P.Torrens shaxs kreativligi o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi deb hisoblaydi?
8. Shaxs kreativligini aniqlovchi testlar necha turga bo'linadi?
9. Pedagogik kreativlik nima?
10. "Pedagogning kreativlik potentsiali" deganda nimani tushunasiz?
11. Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun nimalarga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq?
12. Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantirishda qanday metodlardan foydalanish mumkin?
13. Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida qanday malakalarni namoyon etadi?
14. Pedagogning kreativlik potentsiali qanday tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi?
15. Pedagogning kreativlik potentsiali qanday tamoyillarga tayanadi?
16. Pedagogning kreativlik potentsialini qanday darajalarda aniqlash mumkin?

98

### II-mavzu. Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari.

#### Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari



**Maqsad:** Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari.

Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari haqida ta'lim berish.



**Vazifalar:**

Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari haqida tushunchalar berish.

Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish, faoliyat sub'yekti kompetentligining tashkil etuvchilari, ta'lim sifatini o'zgartirishda o'quvchining roli haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, mustaqil ishini tashkil etish, bitiruvchisining kompetentligining invariantlari, o'qitish va tarbiyalashda kompetentlik, faoliyat sub'yekti kompetentligi

Hamkorlik pedagogikasi insonparvarlik pedagogikasi bilan uzviy va o'zaro aloqador. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi ko'pdan qo'llab kelimmoqda. Bu g'oya ilk bor D.Dyui tomonidan XX asrning 20 yillarida ilgari surilgan. Lekin ushbu pedagogikaning metodik tavsifi 70 yillarning oxiri, 80 yillarning boshlarida dunyoning turli mamlakatlarida Rossiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Garbiy Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Yaponiya, va Isroilda mabnuotda e'ton qilingan.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy g'oyalari keyinchalik Amerikaik olimlar Djoj Aronson (1978), Rodjers va Devid Djonsonlar (1987) Robert Slavin, (1990), hamda Isroillik olim Shlomo Sharan (1988) tomonidan taklif qilingan va uslubiy jihatdan tavsiflangan.

Shuningdek, hamkorlik ta'lim texnologiyasining g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa

99

novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi talabalarda intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyog'arashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi "Cooperative learning"dan farq qilib, u juflik va kichik guruhda ishlash orqali talabalarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida tanqidiy rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D. Ushinskiy, N.P. Pirogov, L.N. Tolstoy, J.J. Russo, Ya. Korchak, K. Rodjers, E. Bern, S.T. Shatskiy, V.A. Sukominskiy va boshqalardir.

Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni subektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida o'quvchi bilan o'quvchi faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. "O'quvchi-o'quvchi" munosabatlardagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi. Aynan ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining subekt sifatida, o'quvchini esa obekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qo'lda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. "O'quvchi-o'quvchi" munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'unish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

#### Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua:

- ta'lim mazmuni shaxs rivojlanishining mazmuni sifatida qaraladi
- bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish va umumlashtirish fikrlashga o'rgatish
- maktab fanlarini integratsiyalash, umumlashtirishga o'tilishi
- ta'limning variativligi va tabaqalashganligi
- o'rgatishning ijobiy rag'batlaridan foydalaniladi

#### Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud:

1. shaxsiy-insonparvar yondashuv;
2. didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
3. tarbiya kontseptsiyasi;
4. atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.

**Shaxsiy-insonparvar yondashuv:** shaxsga yangicha qarash ta'lim berishning maqsadi sifatida, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi; shaxs subektdir, har bir bolaning qobiliyati bor va hokazo.

#### Tarbiya kontseptsiyasi:



- bilimlar maktabini tarbiya maktabiga almashirish
- barcha tarbiyaviy tizimlar markazida o'quvchi shaxsini qo'yish
- tarbiyaga insonparvar yondashuv, umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish
- milliy va madaniy an'analarni tiklash
- individual va jamoaviy tarbiyani hisobga olish

Pedagogik mulqotni insonparvarlashirish va demokratiyalash:

- bolalarga muhabbat, ularning taqdiriga qiziqish;
- boladagi umidli ishonch;
- hamkorlik, mulqot mahorati;
- To'g'ridan-to'g'ri majbur qilishni bekor qilish;
- ijobiy rag'batlantirishning muhimiligi;
- bolalardagi kamchiliklarga sabrli bo'lish;
- o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashirish;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy qarashlarga bo'lgan huquq;
- bola huquqlari haqidagi konvensiyaga amal qilish;

O'qituvchi-o'quvchi munosabatlari usuli: ta'qilash emas, yo'naltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishonirish; buyruq berish emas, tashkillahtirish; chegaralamaslik, erkin tanlashni yo'lga qo'yish.

Zamonaviy sharoitda natijalarga olib kelmaydigan to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan metod sifatida voz kechish:

- majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;
- tug'na qiziquvchanlikni hisobga olib o'qitish;
- muvafqiyatsizlikka sabab bo'ladigan majburiy istakni almashirish;
- bolalarning mustaqilligi va mustaqil faoliyatini o'rnatish;
- jamoa orgali bevosita talablarning qo'llanishi.

Pedagog hamkorlik asosida o'qituvchilarning o'zaro mahsuldor mulqotlari ham namoyon bo'ladi.

Aksariyat o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarini hissiy-intellektual jihatdan kuchli bosim ostida kechadigan harakat sifatida baholaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar bu bosimning doimiy ekanligini e'tirof etadilar.

O'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari muayyan darjadagi jismoniy yuklamani bajarishni ham talab qiladi. Bu esa kasbiy faoliyatning zo'rliqsh talab qilishini tasdiqlaydi. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi zo'rliqsh pedagogik hamkorlik jarayonida ziddiyatli vaziyatlarni ham keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etish magsadga muvofiqiyati kuchli. Aks holda bunday ziddiyatlarni bartaraf etmaslik natijasida shaxslararo munosabatlarda murakkab vaziyat vujudga kelib, ta'lim subektleri orasidagi mulqot va hamkorlik murakkablashadi. Vujudga kelgan turli-tuman nuqai nazarlarni muvaffaqiyatli muvofiqlashirish va boshqarish uchun ularning har biri muayyan xulq-atvor atirategiyalarini qo'llash orgali yechilishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Shundagina ziddiyatli jarayon ishtirokchilari o'zaro kelishuvga erishib, muammoga yechim topishlari mumkin.

Oila, maktab va ijtimoiy muhit o'sib kelayotgan avlodni shakllantiruvchi muhim institutlar sifatida aks etadi. Natijalar barcha uchta tarbiya manbalarining birgalikdagi harakatida aniqlanadi. Bundan bolalarni himoya qituvchi ijtimoiy va




davlat institutlariga ta'sir etuvchi ota-onalar bilan hamkorlik, omilkor boshqarish g'oyasi kelib chiqadi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchi pedagogik faoliyatining yuqori darajada isiqbolga yo'naltirilgan shaklidir.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchilarning kasb mahoratini oshirishga yo'naltirilgan yopiq xarakterdagi bilish jarayonlarida kasbiy ongning faoliyatiga asoslanmagan shakllarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bunday vaziyatda ongning faoliyati qo'zg'almaydi, balki hissiy ta'sirlar amalga oshadi. Shuning uchun ham o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishdagi ishtirokchilik yo'nalishtan biri ularning shaxsiy ongini pedagogik hamkorlik strategiyalari bilan boyitishdan iborat. Buning uchun o'qituvchilarning tanqidiy, yo'naltiruvchi, fikr-ijodiy, nazariy-tahliliy ongini rivojlantirish nazarda tutiladi.



Chunki ularning barchasi o'qituvchilarga beriladigan talim-tarbiyaning mohiyati, mazmuni hamda yo'nalishtirish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi pedagogik jarayonning asosiy qadriyati o'qituvchi tomonidan ta'minlanadigan o'quvchilarda o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, rivojlanish

imkoniyatiga ega bo'lishdan iborat. O'qituvchilar hamkorlik strategiyalari yordamida o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlaydilar.

O'zaro pedagogik hamkorlik jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlarni quyidagi strategiyalar yordamida yechish mumkin:

"Hamkorlik pedagogikasi" ichiga kiradi va quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

- qiyin maqsad g'oyasi;
- tayanch g'oyasi (asosiy tushunchalar, signallar);
- erkin tanlash g'oyasi (ko'p masalalarning ichidan);
- katta bloklar g'oyasi;
- dialogli fikrlash g'oyasi.

Hamkorlik har ikkala tomonning o'zaro munosabatlari va majburiyatlarini prinsipiiga asoslanadi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi barcha uchun umumiy bo'lgan muammolarni birgalikda muhokama yo'li bilan yechishdan iborat. Pedagogik hamkorlik jarayonini rivojlantiruvchi strategiyalar ichida eng namunadorlari o'zaro kelishuvga asoslangan strategiyalar, hamkorlik strategiyalari, chekinish va moslashish strategiyalaridir.

Qo'llaniladigan strategiyalarning muvaffaqiyati hamkorlik jarayonining muayyan darajada insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda amalga oshirilishiga bog'liq. Bunda hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari, tayanadigan qadriyatlarini aniq hisobga olish talab etiladi.

Inson tabiatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchida o'ziga xos iqtidor va talant mavjud. Bu iqtidor va talant ota-onalar va o'qituvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasida ro'yobga chiqadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi muayyan shart-sharoitni vujudga keltirganda o'quvchilardagi iqtidorni ro'yobga chiqarishga muvaffiq bo'ladi.

Hamkorlikdagi ijodiy pedagogik faoliyat hamkorlik xarakteriga ega bo'lib, o'quv jarayonining tarkibiy qismini tashkil etishi kerak. Shunga ko'ra hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalash va tashkil etish o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismini hisoblanadi. O'quvchilar bilim olish jarayonida voqetkni o'rganadilar, anglab



yetalilar va ijod qiladilar, yaratadilar. Ijodiy yaratuvchilik jarayoniga o'quvchilar o'ziga xos tarzda yondashadilar. O'qituvchi esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijod qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi lozim.

Talim bilan o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi orasidagi mutanosiblik hamkorlikdagi o'quv faoliyati organi ta'minlanadi. Chunki o'quv jarayoni pedagogik jihatdan maxsus yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda o'quvchilar hamkorlikdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini amalga oshiradilar.

Ular o'quv harakatlarini aniq o'quv predmeti doirasidagi o'quv materiallari yordamida bajaradilar. O'quvchilarning ruhiy rivojlanishlari asosida ularning tashqi faoliyatlari bilan bog'liq harakatlari ichki rivojlanish imkonini beradi. Shu asosda ular kognitiv faoliyat tajribasi, tafakkur, idrok rivojlanadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarda bilish qiziqishlari shakllandi. Demak, o'quvchini rivojlantirish, birinchi navbatda, uning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun ham talim jarayonida o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga yo'naltirish ularning taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'la oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi hamkorlikni o'rnatishda pedagogning nutqi asosiy o'rin egallaydi. Chunki o'qituvchining nutqi o'zaro mulqot va hamkorlikning verbal ko'rinishdagi tarkibiy qismini hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, noverbal mulqotning turli yo'naltirishlari ham pedagogik hamkorlikning muhim vositasi sifatida xizmat qilishini mutaxassislar ta'kidlamogdalar.

O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarda ular orasida bilish va asabiy baholash xarakteridagi axborot almashinib jarayoni kechadi. Bunday axborotlarni o'zaro bir-biriga uzatish verbal hamda noverbal usullarda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikka kirishar ekan, axborotlarning ma'lum qismini ularning yuz ifodasi, xatti-harakatlari, ko'z qarashlaridan anglab oladi. Xatti-harakatlar, ko'z qarashlar, qiyofadagi ifodalar so'zdan ko'ra ko'proq anglashimlilik xarakteriga ega.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida noverbal mulqot bir qator yo'naltirishlarda amalga oshiriladi:

- xatti-harakatlar yordamida;
- dahlldorlik asosida;
- jestlar, ohanglar yordamida;
- mulqotdagi masofa organi;
- vizual xarakterdagi o'zaro hamkorlik vositasida.

Biz o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari doirasida noverbal mulqotning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida nutqning noverbal vositalari muhim o'rin egallashiga ishonch hosil qilish mumkin. O'qituvchi o'z ishini yengillashirish uchun o'quvchilar bilan bo'zlashmasdan turib ham mulqotga kirishishi mumkin.

Huning uchun o'qituvchi nafaqat o'quvchilarning nutq ohangiga balki har bir lahvasi, ko'z qarashlari, harakatlarga e'tibor qaratib shu asosda o'zining ham noverbal vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borishi lozim.

O'quvchilarni har tomonlana rivojlantirishda hamkorlikdagi vaziyatlarni tashkil etish metodidan foydalanish muvaffaqiyatlidir. Hamkorlikdagi pedagogik vaziyatlarni tashkil etish metodi innovation metod sifatida alohida pedagogik qilmatga ega. Bu metod yordamida o'quvchilarda mulqotga kirishuvchanlik, lahchanlik, yetakchilik, keng ko'lamli, aniq izchillilikka ega bo'lmagan materiallarni tartibga solish va tahlil qilish, axborotlar yetarli bo'lmagan sharoitlarda ularni to'ldirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

Hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi o'quvchilarni tabiiylikka intilishga chorlaydi. Shu tariqa hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi quyidagilarni taqozo etadi:

- Verbal mulqot vositasida hamkorlikdagi vaziyatlarni bayon qilish;
- muayyan vaziyatlarni mustaqil o'rganish va sinfdoshlari bilan muhokama qilish;
- o'quvchilarning vaziyatlarni birgalikda muhokama qilish jarayonlarini o'qituvchi tomonidan boshqarish;



- muhokamalar jarayonida o'quvchilarga muamolarning yechimlarini topish maqsadga muvofiqligini anglatish kabilar.

Mazkur jarayonda o'quvchilar mustaqil ishlash va tashabbus ko'rsatish tajribasini egallaydilar.

Hamkorlik vaziyatlarida muhokama predmeti aniq namoyon bo'lishi kerak. Hamkorlikda ishlash vaziyatlarini vujudga keltirishda quyidagi qoidalar tayanish talab etiladi. Jumladan:

Hamkorlikdagi o'quv vaziyati ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'qituvchi tomonidan maxsus loyihalashtiriladi va tashkil etiladi. O'quv jarayoni maqsadidan kelib chiqqan holda o'qituvchi tashkil etiladigan hamkorlikdagi o'quv vaziyatiga metodik ishlov beradi. Buning uchun u o'quv vaziyatida amalga oshiriladigan muhokama jarayonini aniq maqsadga yo'naltirishi, ijodiy muhitni vujudga keltirishi va boshqarishi lozim.

Hamkorlikdagi o'quv vaziyati muayyan o'quv kursi yoki o'quv predmeti mazmunidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi kerak.

O'qituvchi muayyan o'quv maqsadini amalga oshirishga qaratilgan hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? degan savolga javob topishi muhim ahamiyatga ega. Bu savolga javob topish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- hamkorlikdagi o'quv vaziyatlarida o'quvchilar oldiga aniq yechimni talab qiladigan topshiriqlar qo'yish;

- o'quvchilar oldiga yechimni qo'shimcha axborotlar izlashni talab qiladigan muammolarni qo'yish;

- hamkorlikdagi o'quv vaziyatini davom ettirish imkonini beradigan dolzarb muammolarga yechim topishga o'quvchilarni undash;

- o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish uchun qulay bo'lgan tipik vaziyatlarni tashkil etish kabilar.

Hamkorlikdagi vaziyatlarni o'quv jarayoni xarakteri bilan bog'liq holda uchta katta guruhga bo'lish mumkin:

a) ko'rgazmali xarakterdagi hamkorlikdagi o'quv vaziyatlari;

b) tahliliy, mulohaza yuritishga undovchi o'quv vaziyatlari;

v) qarorlar qabul qilishga undovchi o'quv vaziyatlari.

O'qituvchi hamkorlikdagi vaziyatni loyihalashda o'zi ilgari qo'llagan vaziyatlarga o'xshamaslikka harakat qilishi lozim. Hamkorlikdagi o'quv vaziyatlarini loyihalash o'qituvchidan kreativlikni talab qiladi. O'qituvchi o'quv vaziyatini loyihalashda uning mazmuniga alohida e'tibor qaratishi, katroflangan natija olishga intilishi, biroq natija uning uchun ham kutilmagan bo'lishini nazarda tutishi lozim. Har qanday holatda ham o'qituvchi o'quv vaziyatini loyihalashda aniq didaktik qoidalar amal qilishi kerak.

#### **Hamkorlik pedagogikasida ota-onalar, mahalla masalalari.**

Hamkorlik jarayoni — jamiyat taraqqiyotining asoschilari bo'lgan yoshlar kamolotining asosi hisoblanadi. Albatta bu ishlarni amalga oshirishda o'qituvchining har bir daqiqasi qimmatli hisoblanadi. Chunki, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchining diqqatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini ularga tushuntiradi. Bunda o'qituvchi gaplashib o'tirgan o'quvchilarni tartibga chiqirishi, to'xtatishi kabi salbiy holatlarni bartaraf etish bilan ularga yangi mavzuni, yangi materiallarni tushuntiradi.

O'quvchilar orasidan yangi mavzu bo'yicha kimlar javob berishini aniqlaydi. Albatta bunda bolaning oila va mahallada olgan tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Bunday holatlarda o'qituvchining yakkama — yakka suhbatlari puxta, asosi va mantiqan boy bo'lsa, o'quvchilarning unga bo'lgan ishonchi oshadi. O'qituvchining erkin diqqat, maslahati, o'zaro yordami tufayli hamkorlik holati vujudga keladi. Ushbu hamkorlikda o'qituvchi doimo ularga namuna bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'zining tashqi ko'rinishi, toza — ozoza, ixcham kiyinishi, ma'lumoti, ulgur bilim egasi, o'zining fanini puxta biladigan, yurt ravnaqi uchun jonini fido qilishga tayyor, o'z shogirdlaridan bilimini, malakasini ayamaydigan, do'st, sirdosh, fidokor bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni to'liq o'rganishi, maktab, oila va



mahalla hamkorligida tarbiyaviy tadbirlarni mukammal, ta'sirchan uyushirishi lozim.

O'quvchilarda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga qiziqitirish, rostgo'y, ma'rifatlil, mehrii, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga munosabatini, ruhiy holati va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijobiy va salbiy o'zgarishlarni kuzatish va sababini o'rganish, yolg'on gapirish va boshqa salbiy sifatlarni aniqlash o'quvchining mahorati, tashkilotchilik faoliyati va kasb ko'nikmasiga bog'liq.

Tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun maktab, oila va mahalla hamkorligida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tarbiya jarayonini boshqarishga maktab bilan jamoatchilik munosabatlarini rivojlantirish;

- tarbiyaviy ishlar bo'yicha muvaffaqiyatli nazoratni tashkil etish.

Chunki, o'quvchining har bir harakati yoki gapirgan gaplari jamoatchilik tomonidan baholalanadi. O'quvchilar doimo o'quvchilarning to'g'riligi, adolaparvarligi, sinfda uning yaxshi ko'rgan o'quvchisi bor – yo'qligiga e'tibor beradilar. Bu o'rinda oshkora mulohot qabul qilingan meyor va talablar asosida amalga oshishi, o'quvchi o'zini u yoki bu vaziyatlarda, holatlarda qanday tutishi lozimligini hamma bilishi oshkorolikni tashkil etadi.

Shu nuqtaiy nazardan qaratilganda bugungi kunda umumta'lim maktablariidagi pedagogik faoliyatining oila, mahalla bilan hamkorlikda olib borilayotganligi kutilgan samaralarni bermogda. Shunday

bo'lsada, bu boradagi ishlarni yanada jonlantirish, ta'lim muassasalarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada kuchaytirish ustuvor vazifalardan sanaladi. Chunki tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi, mahallada, ya'ni jamiyada kamolot bosqichiga ko'tariladi.

Darhaqiqat, Yurtboshimiz takidlaganlaridek, "Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atrofdicha tahlil qilar ekamiz, hech ikkilanmasdan ayitish kerakki, biz har qaysi xonadon,

butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz".

Ta'lim muassasalarining oila va mahallalar bilan hamkorligini yanada yuksaltirish bugungi kunning talabi bo'lib qolmogda. Ayrim ta'lim muassasalarida ba'zi tarbiyachilar tomonidan o'quvchining tarjimai holi, bosh vaqtini mazmuni tashkil qilish holati, oilaviy ahvoli, undagi ma'naviy-ma'rifiy muhit yuzaki o'rganiladi. Bunday ishlarga vaqtini qizg'anish yoki beparvolik bilan qarash holatlari kuzatiladi. Natijada oila-mahalla-ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uziladi. Hamkorlikning uzilishi nimaga olib keladi? O'quvchining kundalik faoliyati haqida ota-ona, mahalla faollari va muassasasi kerakli ma'lumotga ega bo'lmaydi.

Bolani har tomonlarna rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun ota-onadan yuksak mas'uliyat, mahalladan e'tibor, o'quvchidan haqiqiy pedagogik odob va mahorat talab qilinadi.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari ilk hayotiy tushunchasi va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Shu o'rinda ajdodlar merosiga nazar soladigan bo'lsak A.Navoiy lagambaridlik, xushomatgo'ylikni eng yomon sifatlardan deb biladi va u, ota-onalarni o'z bolalarini yosh avlodni chin insonga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlari egasi qilib tarbiyalashga da'vat etadi.

Husayin Voiz al-Koshifiy – bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish haqida aytigsa, ota-onalar oldiga ma'suliyatli vazifalar qo'yadi, har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalashga jiddiy yondoshib, unga ijobiy xislatlarni o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki oiladagi muhitning ta'sirida tarbiyalanib boradi deb fikr bildiradi.

A.Donish ijodida xotin-qizlarga munosabati, ota-onalar huquqi, madaniyati masalasi ham alohida o'rinda turadi. U ota-ona huquqini belgilash, ular bilan bolalari o'rtasidagi o'zaro aloqa haqida to'xtalib, o'z huquqlarini suiste'mol qilgan ota-onalar huquqini belgilash haqida gapirar ekan, ular bilan bolalari o'rtasidagi



o'zaro aloqa haqida to'xtalib, o'z huquqlarini suisie'mol qilgan ota-onalarni tartibga chiqarib qo'yish lozimligini aytib, ularning huquqini chegaralashni taklif etadi. Ota-ona o'z huquqlarini, bolalar o'z huquqlarini bilishlari va bajarishlari kerakligini aytadi.

M.Behbudi'y qarashlaricha maktab tartibiyati bilan oila tartibiyati uzviy birgalikda olib borilishi lozim, aks holda fojicalar ro'y beradi, degan g'oyani oldinga suradi. Maktab har qancha to'g'ri yo'l ko'rsatsa-yu, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tartibiyati tamoman izdan chiqadi.

O'tirish boy merosimidan foydalanib biz pedagoglar oila tartibiyasiga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Hech kim yomon xulqli bo'lib tug'ilmaydi, yoshlarning axloqiy sifatlari u tartibyalanyotgan muhit va berayotgan tartibga bog'liqdir.

Ta'lim oldiga yangi maqsadlarning qo'yilishi, ijtimoiy buyurtma ko'llanining kengayishi, ta'lim jarayonida o'qituvchi, ota-ona va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Chunki o'quvchi ta'lim jarayonining faol subektiga aylandi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalariga qo'yiladigan "baho" o'qituvchi, ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi barcha pedagogik munosabatlarni tartibga solib turuvchi mezon hisoblanadi. Chunki o'quvchiga qo'yiladigan baho quyidagi vazifalarni bajaradi.

Natijada baho orqali ota-onalar farzandlarining intellektual rivojlanishi, o'quv faoliyati, xulqi, ma'naviy dunyoqarashidan xabardor bo'lib turadilar. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda baho obektiv hamda subektiv xarakterga ega. Baho yordamida o'quvchining xulq-atvori va o'zlashtirish darajasi muayyan talablar va axloq meyorlariga qay darajada mos kelishi aniqlanadi. O'qituvchilar va ota-onalar o'quvchi faoliyatiga baho berishi natijasida uning ruhiyati hamda harakatlarda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Hamkorlikda o'rganish "Chuqur mulohazalar asosida tuzilgan jamoaviy, hamkorlikda ishlash o'rganish va o'qitish jarayonining yuqori samarasiz yondashuvlardan biri hisoblanadi." Quyidagilar haqida o'ylab ko'ring:

- hamkorlikda o'qitishni kichik guruhlardan boshlang;

112

- ijtimoiy munosabatlarda kamdan-kam yo'lgi'izlikda o'rganiladi;
- guruhda barcha o'rganishga ma'sul bo'lishi lozim;
- ijtimoiy, kommunikativ va fikrlash kabi dastlabki ko'nikmalar ochiqchasiga yetkazilishi kerak;
- guruhlar bir jamoa sifatida ish ko'rishlari kerak;
- barcha materiallar ham hamkorlikda ishlashga mos emas;
- 2-4 ta guruhlar eng samari hasoblanadi;
- kim bilan kim ishlashi haqida o'ylab ko'ring;
- boshqa strategiyalar bilan qo'shiladigan talablar xaqida o'ylang;
- sifatning oshishi sinf hanasining muxitiga bog'liq.

Hamkorlikda o'rganishga oid misollar:

Hamkorlikda o'rganishga tayyorlanish jarayonida qo'yidagilarga e'tibor bering:

- ishlash tuzilmasiga;
- kerakli va foydalaniladigan jarayonga;
- sinf xonasini qanday xivisi qilishingizga.

Hamkorlikda o'rganish: foydalaning ba'zi sabablari:

- tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, yetkazib olish – bu o'rganishning eng samari usulidir;

- tadqiqotlarda keltirilishicha, intellekt ijtimoiy ta'sir ostida bo'ladi;
- shaxslararo intellekt smarani muhim belgisidir;
- ba'zi talabalar shu yo'l bilan yaxshiroq ta'lim olishadi;
- hamkorlikda o'rganishning real hayotga bog'lanish yaxshi.

### Djonson taklif etgan muvaffaqiyatli guruh ishinin 5 asosiy elementi:

#### **1. Individual ma'suliyat**

- xar bir talaba o'zlarining o'rganishlariga javobgar

#### **2. Yuzma-yuz o'zaro harakat**

- 2-4 ta guruhlar va boshqalar bilan ko'rishish
- lozim bo'lsa xonani o'zgartirng!

113



3. **Hamkorlikdagi ko'nikmalar** (guruhlar ichidagi ishlar jarayoniga shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar kiritilsin)

- Ijtimoiy ko'nikmalar
- Kommunikativlikka oid ko'nikmalar
- Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari

4. **Qayta ishlash jarayoni**

- Guruhlardagi ijtimoiy va akademik munosabatlarni ifodalashni va baxolanishi lozim

- Uzoq muddat samara bermog'i lozim

5. **Ijobiy o'zaro bog'liqlik**

- Bir birini qo'llab quvvatlovchi talabalar
- O'qitiladigan talabalar
- Djonson bularni qo'llab quvvatlashning 9 ta yo'lini aniqlashitradi.

**Dionsonning 9 ta ijobiy o'zaro bog'liqligi:**

1. Maqsad: Anniq va muhim bo'lgan maqsad yoki vazifani belgilang
2. Vazifa: Vazifalar aniq, o'zgarmaydigan
3. Resurslar: Taqsimlash
4. Stimul: birgalikda yaxshi ishlansa imtiyozlar berilishi
5. Maiburlanmaslik: raqobatchilik, baxslar standartlarga qarshi yoki yutuq uchun
6. Atrof-muxit: jismoman xatti harakatlarga qulay
7. Ijodiylik: talabalar guruh nomini yoki emblemasini loyihalashtirishadi
8. Ketma-ketlik: xar bir talaba o'ziga birlitirilgan topshirig'ni shunday bajarish kerakki, natijada guruh birlasha olsin
9. Simulation (Modellashitirish): ijtimoiy ko'nikmalarga odatda duch kelishi sababli roli o'yin.

**O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar**

1. Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari
2. Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi,
3. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi,
4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlari,
5. Hamkorlik pedagogikasi qachondan boshlab rivojlana boshladi?
6. Hamkorlik pedagogikasi haqida tushuncha bering?
7. Hamkorlikda o'qitishda oila, mahallaning o'rnini izohlab bering?
8. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga misollar keltiring?
9. O'quvchi va o'quvchi hamkorligining ta'lim jarayoniga tutgan o'rni?

## 12-mavzu. Pedagogik tuyurtlik, fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti



**Masad:** Pedagogik tuyurtlik fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti haqida ta'lim berish.



**Vazifalar:** Pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari, loyiha faoliyatining asosiy g'oyasi, loyiha uslubini qo'llash, o'quvchilarning asosiy kompetentlarini shakllantirish, pedagogik qobiliyatlarning muhim komponentlari, pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlar, pedagogik tizimlarni loyihalashtirish, loyihaviy ta'limning asoslari, o'quv loyihaviy faoliyatning protsessual tuzilmasi haqida tushunchalar berish.



**Tayanch tushunchalar:** pedagogik fasilitatsiya, pedagogik tuyurtlik, loyiha uslub, kompetentli yondashuv, kooperativ hamkorlik, o'quvchining kasbiy pozitsiyasi, kooperativ hamkorlik, loyihaviy faoliyat.

### Pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari

Ta'limdagi innovatsion jarayonlar qoidaga muvofiq uch asosiy – ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruvga doir jihat bilan bog'liqligida ko'rib chiqiladi. Mazkur jihatlarning mazmunidan innovatsion jarayonlar yuzaga keladigan umumiy shartsharoitlar hosil bo'ladi. Mavjud shartsharoitlar innovatsion jarayonning amalga oshishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Innovatsion jarayonlar ham stixiyali, shuningdek, ongli boshqarilishi mumkin. Yangilik kiritish – bu eng avvalo, tabiiy va sun'iy o'zgarishlar jarayonini boshqarish funksiyasi.

Shuning uchun ta'limdagi innovatsion jarayon – bu ta'limdagi o'zgarishlarni

boshqarish jarayoni demakdir. Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatlardan tashqari o'z ichiga ko'plab uni amalga oshirish shart-sharoitlarini, shu jumladan, faoliyat sub'ektlarini qamrab oladi. Innovatsion jarayon sub'ektidaganda, ta'lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar (rektor, prorektor, kafedra mudirlari, professor-o'quvchilar, talabalar, ota-onalar, homiyar, metodistlar, konsultantlar, ekspertlar) va ta'limni boshqarish organlari anglanadi. Ular harakatining birligi malum bir natijalarga erishishga olib keladi. Innovatsion jarayon sub'ekti sifatida o'quvchi yangilikni o'zlashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi. Mazkur jihat innovatsion muhit sharoitida pedagog faoliyatini boshqarishda qator o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratishni talab etadi. Odatda, oliy ta'lim muassasalarida rahbarxodimlar innovatsiyalarni joriy etish jarayonida professor-o'quvchilarning xulq-atvori turli xil ko'rinishlarda (ayrimlari yangilikni tatbiq etishga qarshilik ko'rsatishi, ba'zilar butunlay inkor etish)da namoyon bo'lishi haqida ko'p gapirishadi. Aslida mazkur holat tabiiy jarayon bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishda pedagog faoliyatini boshqarishda quyidagi bosqichlarni hisobga olishlari va ana shu asosda ularga ta'sir ko'rsatishlari lozim: yangilikni inkor etish, yangilikka qarshilik ko'rsatish, yangilikni tadqiq etishga kiritish, yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish, yangilikni qo'llashni anangaga aylantirish.

Birinchi - inkor etish bosqichi jamoa a'zolarining yangi g'oyani qabul qilishga tayyor emasliklari, avvalgi yo'nalish bo'yicha ish tutishga istak bildirishlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichda rahbar yangi g'oya haqida ko'proq axborot berishi, uning imkoniyatlari va natijaviyligini ko'rsatib bera olishi muhim sanaladi.

Ikkinchi - yangilikka qarshilik ko'rsatish bosqichida rahbar jamoa a'zolarining ochiq qarshiligiga uchraydi. Ana shu sababli mazkur bosqichda rahbar u tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaning qo'llab-quvvatlovchi a'zolari to'plashi va ularga suyanishi maqsadga muvofiq.



**Uchinchi** - yangilikni tadqiq etish bosqichida pedagoglar ma'lum tanaffusdan so'ng yangi g'oyalarni idrok etadilar, yangi faoliyat usullarini qo'llay boshlaydilar. Mazkur bosqichda rahbar tomonidan "Aqliy hujum" uyushtirilishi jamoaning innovatsion faoliyatini tashkil etishda yaxshi samara beradi.

**To'rtinchi**, ya'ni yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish -ijodiy guruhlarni keng tarqda rivojlantirish bosqichidir. Innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirishni tezda yaxshilashning maqsadi aniqlanadi, yangi mazmuni izlanadi, yangi rituallar yaratiladi.

**Beshinchi** – yangilikni qo'llashni an'anaga aylantirish bosqichida yangilik ta'lim muassasasi ta'lim amaliyotiga mustahkam kiritib boradi va joriy etiladi.

Innovatsion muhit sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bu o'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar bo'lib, mazkur muammoning hal qilinishiga quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- pedagogning o'z ishidan qoniqmasligi;
- pedagogik mehnat samadorligining pasayishi;
- psixik zo'rliqlashning kuchayib borishi;
- kasbiy deformatsiyalarning to'planib borishi va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar ko'p aspektli tavsifga ega bo'lib, ularni asosiy jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

**Kasbiy.** Ushbu jihat bilan bog'liq qiyinchiliklar samaradorlik, ishonch, faoliyat sifati orasidagi sabab-oqibat aloqadorliklari va faoliyat sub'ektlarining individual o'ziga xosliklarini o'rganish bilan tavsiflanadi.

**Fiziologik.** Mazkur jihat o'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni uning oliy nerv faoliyati tizimi va sensoromotor harakatlari orasidagi bog'liqlikda ko'rib chiqadi.

**Ijtimoiy.** Ushbu jihat bilan bog'liq qiyinchiliklar o'qituvchining ijtimoiy mavqei, obro'-e'tibori, uni ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

**Tibbiy.** Mazkur aspekt faoliyatdagi qiyinchiliklarni o'qituvchining ruhiy, jismoniy sog'lomligi, turli kasalliklarni o'tirishi, ularni salomatlikka ta'sirini aniqlab beradi.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganishning kasbiy jihati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, keng qamrovli tahlilni talab etadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

-faoliyatning ob'ektiv shart-sharoitlari. Ya'ni shaxsning o'z faolligini namoyon qilishga to'sqinlik qilinishi, boshqacha ayiganda bar'larining mavjudligi;

-shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.

**"Pedagogika fanini o'rganish nima uchun maqsadga muvofiq?" mavzusida erkin yozish topshirig'i.**

**Topshiriq:** "Pedagogika fanini o'rganish nima uchun maqsadga muvofiq?" mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni dafarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

O'quvchilardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir daqiqa sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

O'quvchilardan ayrimlarning fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

Texnologiyaning metodik ta'minoti pedagogika faisiliatsiya asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish shakli, metod va vositalarini o'zida aks ettiradi.

Ta'lim muassasalarida o'quv ishlari shakllari orasida mustaqil ishlar asosiy va muhim o'rin tutadi. Kuzatishlarimiz va tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki,



pedagogika kollejlariida mustaqil ishlarni tashkil etish va o'lkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish o'quvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish va uning tekshirilib, baholanishidan iborat bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, mustaqil ishlarni tashkil etish va o'lkazish o'quvchilarning individual va ijodiy potensialini yuzaga chiqarishga to'liq imkon bermayapti. Ana shu muammoni hal etishda esa pedagogik fasilitatsiya imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarni har tomonlamma qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Pedagogik qo'llabquvvatlash jarayoni asosan o'quvchilarga yo'naltiradi. Bunda o'quvchilarning moddiy boriq, atrofdagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv – tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda o'quvchilarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda, shunday o'quv faoliyati anglanadiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etishi ta'minlanadi.

**Mustaqil ish** - o'quvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda o'quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O'quvchilarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ish bir qancha o'ziga xos xususiyatlariga ega:

– mustaqil ishlarning ikkinchi o'ziga xosligi o'quvchi faoliyatining o'zo'zini boshqaradigan shakli hisoblangan o'z-o'zini nazorat qilishda aks etadi;

– uchinchi o'ziga xoslik o'z-o'zini nazorat qilish bilan mustahkam bog'liq bo'lgan, o'z-o'zini boshqarishda muhim rol o'ynaydigan baholovchi faoliyadir;

– va nihoyat, mustaqil ish har doim qandaydir natija bilan tugallanadi. Bu mashq bajarish, vazifalarni hal etish, insho yozish, jadval to'ldirish, grafiklar hosil qilish, savollarga javob berishga tayyorlanish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga tayanish zamonaviy ta'lim tizimida eng maqbul yo'l hisoblanadi. O'quv jarayoni ana shunday tarzda tashkil etiladiga o'quvchining mustaqil ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o'quvchi ham bevosita ishtirok etadi. Mustaqil ishini tashkil etishda shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchini shaxsiy ahamiyatga molik shunday darajaga ko'taradiki, bu hol, o'z navbatida, mustaqil ishning har qanday turida faollik va kreativlikning kuchayishiga imkon yaratadi. Natijada mustaqil ish tizimi tashkiliy jihatdan murakkab yaxlitlik, ya'ni "qismlarning o'zaro ta'siri ularning o'zidan ko'ra muhimroq" bo'lgan yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonning asosiy funksiyalari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi). Maqsad asosida ta'lim va tarbiyaning mazmuni belgilanadi. O'quvchi o'quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishtarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani hal qilishi unutmastiligi kerak.

•**Ta'limiy maqsad**-o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni usbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.

•**Tarbiyaviy maqsad**-fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini shakllantirishdir.

•**Rivojlantiruvchi maqsad**-ta'lim jarayonini ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Har qanday didaktik jarayonda motiv hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Motivlariga o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqiradi, uning shaxsiy qiziqishlarini



ichki ehtiyojga aylantiradi. Albatta motivlarni hosil qilish va unga o'quvchi qiziqishini kam yoki ko'p bo'lishi o'quvchining mahoratiga bog'liq. Ta'lim turli bosqichlarda amalga oshadi. Birinchi bosqich-o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalaridan iborat ekanini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi. Ikkinchi bosqich-ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar. Uchinchi bosqich-yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'quvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi. Turtinchi bosqichda-ular o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiiq qiladilar.

Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosi samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim muvaffaqiyatli usul motivatsionmammoli vaziyatlarni quyish yoki o'tganilayolgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'quvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va maqsadga muvofiqiyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko'rinadi. Bundan tashqari o'quvchi, o'quvchiga o'z faoliyatining ob'ekti sifatida qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

Quyidagilar mutaxassisning pedagogik tayyorlanganligining maqsadga muvofiq va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

Dars berish mahorati.

Tarbiyalash mahorati

O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlari;

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolissona nazorat qilish va baholash mahorati

#### Dars berish mahorati:

Kasbiy layoqat va eruditsiya;

Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;

Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati;

O'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

Pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;

Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;

Pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilish;

Fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

Ritorika va notiqlik san'ati asoslarini bilish;

(Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, "Ta'lim to'g'risida"gi qonundagi vazifalarni hamda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy atamalari va tushunchalarini bilish.

**Tarbiyalash mahorati**-o'qitish va tarbiyalash jarayonining bog'liqligi, uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma'naviy saviyasi qator toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlarga. Uning vatanparvarlik, obro' va burchni his etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi.

**Pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlarga** quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqoniylik, halollik, mehnatonlik, xushnomalalik. Ushbu sifatlard pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahmiiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlard o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

**Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolissona nazorat qilish va baholash mahorati**-psixologik pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolissona

baholash printsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini muvaffaqiyatli qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchidagi maqsadga muvofiq ijtimoiy ko'nikmalar quyidagilardan

iborat bo'lishi lozim:

-O'z-o'zini namoyon qilish;

-Boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo'lish;

-O'z ustida tinimsiz ishlash;

-Vaziyatni baholash va muammolarni yechish ko'nikmasiga ega bo'lish;

-Tashkilotchilik, ijodiy yondashuv;

-Boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lish.

Ta'lim sifatini o'zgartirishda o'qituvchining roli:

1. Tashkilotchi-ijtimoiy pedagog: o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

2. Sinf yetakchisi-sinfda ijodiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko'rsatadi;

3. Metodist-ta'lim jarayonida o'quvchilarning muammoni yechishda yordam

beradi va qo'llab quvatlaydi;

4. Favlasuf-bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi;

5. Tajribali yaqin do'st o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf

etishga yordam beradi;

6. Tadqiqotchi-novator-yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o'z ustida

ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi, tabiiq etadi;

7. O'quv jarayonini rahbari va uni rag'batlantiruvchi-maqsadga etish vositalari,

istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarini tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga

o'rgatadi, ijodiy yondashadi;

8. O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi-jamoa bo'lib ishlay oladi va ishlashga o'rgatadi;

9. Maslahatchi-shaxsiy namunasini o'rgatadi;

10. Tartibiyachi-o'quvchilarga jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan

rivojlanishlariga yordam beradi;

11. Psixolog - o'zini yaxshi biladi va tushunadi;

12. O'zgarishlarga yo'naltiruvchi-o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi;

13. Ma'lumotlarni taqsimlovchi-o'quvchilarga asosiy yangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi.

#### **O'qituvchi o'quv jarayonida maslahatchi:**

-o'quvchilarga ko'nikmalarini o'qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;

- turli xil yo'nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo'llash kerakligi bo'yicha

maslahat beradi;

- faol qayta aloqani ta'minlaydi;

- noan'anaviy usullar bilan o'quvchilarning harakatlari qo'llaydi va

mustahkamlaydi;

- o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

- o'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

#### **O'qituvchi-yangilik kirituvchi:**

- yangiliklarni, ayniqsa o'zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va

tushunib yetadi;

- yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;

- yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo'llaniladi va kamchiliklarini to'g'rilaydi;

- o'z pedagogik amaliyotida yangiliklardan kreativona foydalana olishga

layoqatli.

#### **O'qituvchining vazifalari**

1. Moderator-ta'lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

2. Trener-o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi

maxsus tayyorlanishdan o'tgan mutaxassis.

3. T'yutor-masofadan o'qitishda sturlarining yaratuvchisi va bajarilishini

ta'minlovchi.

4. Mentor-ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).



5. Kouch-ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi.(Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

6. Lektor-nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.

7. Ekspert-aniiq mavzu, masala bo'yicha hakamlik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.Ekspert-kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

8. Innovator-yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.

9.Spektet-kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

10.Assisient-mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.

11.Sekretar-maqсадga muvofiq ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.

12.Texnolog-pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

13.Metodist-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis.

14.Fasilitator- inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yordam beruvchi", "engillashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o'quvchilarning muvaffaqiyatli hamkorligini shakllantiradi.

15.Menejer- o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

16.Maslahatchi- o'quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o'rtnlarni aniqlashtirishda yordam ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohadagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham yangiliklar kiritib borishni jadallasshirmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonini tashkil etish shart-sharoitlarning

shakl va mexanizmlarini o'zgartirishga ham maqsadga muvofiqat tug'ilmoqda. Ayniqsa, mazkur holatni kasbiy ta'lim sohasida yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan fasilitatsion yondashuv masalasi pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib bormoqda.

**Fasilitatsiya** so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, *facilitate* – yordam berish, yengillashtirish, kuchaytirish degan ma'nolarni anglatadi. Fasilitatsiya - o'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim-oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo'llab quvvatlashdir.

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko'rsatiladi. **Ijtimoiy fasilitatsiya** ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilita-siya lotin tilida - "socialis facilitar" - ijtimoiy qulaylashtirish degan ma'noni anglatadi. **Pedagogik fasilitatsiya** esa ta'lim oluvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining kasbiy pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi.

Ma'lumki, pedagogik fasilitatsiyaning asosini o'quvchilarning guruhlarda hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi. O'quvchilarning mustaqil ishla rini tashkil etish bilan bog'liqlikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularni pedagogik kasbiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Qo'llanilishi darajasi va tavsifi: lokal darajada qo'llanilish tavsifiga ega mezoetnologiya.

Falsafiy asosi:

- 1) antropologik;
- 2) ontologik;
- 3) dialogik.

Metodologik yondashuvi: insonparvar, algoritmli, amaliy yo'naltirilgan, qadriyatga yo'naltirilgan yondashuv.

Rivojlanishning yetakchi omillari:

- 1) sosio-gen;
- 2) psixogen.

Tajribani o'zlashtirishning ilmiy kontsepsiyasi:

**Assotsiativ reflektorli + faoliyati + rivojlanitiruvchi + bixevioristik.**

Shaxsni rivojlantirish sohasiga yo'nalganligi va tuzilishi:

**BKM (bilim, ko'nikma va malaka) + O'zBMS (o'z-o'zini boshqarish mexanizmi sohasi) + HAS (harakatli-amaliy soha).**

Mazmunli tavsifi: kasbiy yo'naltirilgan.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ta'limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlanitiruvchi

Qo'llaniladigan metodlari:

- 1) dialogli;
- 2) vaziyatli;
- 3) bir-biriga tushuntirish;
- 4) bir-biriga o'rgatish;
- 5) rolli-o'yinli;
- 6) izlanishli tadqiqotchilik

Tashkiliy shakllari:

- 1) individual;
- 2) guruhli;
- 3) juftliklarda ishlash;
- 4) jamoaviy.

Qo'llaniladigan vositalari:

- 1) targetma materiallar;
- 2) hujjatli fil'mlar;
- 3) badiiy adabiyotlar;

4) mul'timedia.

Ta'lim oluvchiga yondashuv va birgalikdagi o'zaro harakat tavsifi: faoliyatga yo'naltirilgan.

Modernizatsion yo'nalishi va an'anaviy ta'lim tizimiga munosabati: birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatni kuchaytirish asosidagi pedagogik texnologiya.

Qo'llanilish toifasi: o'quvchilar uchun.

Texnologiyaning mazmuni o'zida motivatsion – kognitiv-operatsion – faoliyat birligi va ana shu bosqichlarni har birida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi mustaqil ishini amalga oshirish darajalari (tanishuv, tushunish, analiz, va sintez)ni aks ettiradi (6-jadval).

Pedagogik fasilitatsiya asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi

6-jadval

|   | Texnologiyaning bosqichlari                                                                                                                                   | Funktsiyalar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Texnologiyaning motivatsion bosqichi quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:                                                                                    | 1) tanishuvga doir: mustaqil ish topshirig'i orqali o'quvchida avval o'rganilganlarini esga tushirish va guruhlashirish ehtiyoji shakllanadi;<br>2) tushunishga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan muammoni ichki ifoda etish rag'batini hosil bo'ladi;<br>3) analizga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini o'ylab topishga qiziqish paydo bo'ladi;<br>4) sintezga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini taklif etish istagi tarkib topadi. |
| 2 | Texnologiyaning kognitiv-operatsion bosqichi esa, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning to'rt (tanishuv, tushunish, analiz va sintez) darajasi | 1) tanishuvga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgi- lab oladi;<br>2) tushunishga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan vaziyatni sharhlaydi;                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |



| bilan bog'liqlikda quyidagicha namoyon bo'ladi:                                 | 3) analizga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ini bajaradi va o'zining fikrlarini boshqalariki bilan taqqoslaydi;<br>4) sintezga doir: o'quvchi mustaqil ish yechi- mini izlab topadi.                                                                                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 3<br>Texnologiyaning faoliyatga doir bosqichi quyidagi o'ziga xos mazmunga ega: | 1) tanishuvga doir: mustaqil ish yechimini bayon etadi;<br>2) tushunishga doir: mustaqil ish topshirig'i yechimini amalda ko'rsatib beradi;<br>3) analizga doir: mustaqil ish topshirig'idagi muammo mohiyatini ochib beradi<br>4) sintezga doir: mustaqil ish topshirig'i bilan bog'liqlikda o'z xulosalarini taklif etadi. |

Motivatsion bosqichda qo'llaniladigan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqishda erkin yozish, chalkashirilgan mantiqiy zanjirlar ket- maketligi, asoslangan esse kabi metodlardan keng foydalaniladi.

Raqobabardosh shaxsni shakllantirish boshlang'ich maktabda va ehtimol maktabgacha ta'lim muassasasida boshlanadi. Guruh, o'yin, rol o'ynash, amaliy yo'naltirilgan, muammoli, refleksiv shakl va ta'lim usullaridan foydalanish haqiqatga duch keladigan muammolarni hal qilishga yordam beradi: o'quvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirish; o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirish; ijodiy faoliyat qobiliyatini rivojlantirish; bag'rikenglik, boshqalarning fikriga bag'rikenglik, mulqot qilish, mazmuni muvossaga erishish va topish qobiliyatini oshirish.

Dastlabki bosqichda kompetentli yondashuvni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga imkon beruvchi loyihalar usuli. Ushbu usul o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z bilimlarini mustaqil ravishda loyihalashtirish, axborot makonida harakat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, muammoni aniqlash va hal qilish qobiliyatiga asoslangan. Loyiha

faoliyatining asosiy g'oyasi shundaki, u faqat o'zi tanlagan yuqori darajadagi sevimli mashg'ulotlarga ega bo'lgan talaba tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha faoliyati vektorni talabaning turli xil faoliyat usullarini o'zlashtirish uchun bilim miqdorini passiv to'plash jarayonidan o'zgartiradi.

Loyihani o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi uchun shaxsiy ishonchni shakllantirishga, o'z-o'zini anglash va aks ettirishga yordam beradi. Guruh faoliyatining natijalarini olish, o'zaro ta'sirning roli, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini tushunish. Tadqiqot ishlarida ko'nikmalarni rivojlantiradi.

loyiha usuli "isticboli bo'lmagan ta'lim" ni istisno qilmaydi, ya'ni maktab o'quvchilari bir necha yil ichida emas, balki hozirgi o'qishdan amaliy natijalarga erishishga intilmoqda. Loyihaning natijasi haqiqiy tayyor mahsulot bo'lib, u loyihaga faoliyatining ijobiy motivatsiyasini shakllantiradi.

Axborot yoki axborot kompetensiyalari bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish (kognitiv universal ta'lim faoliyati bloki) axborotni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash va ulardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim va bilim qobiliyatlarini shakllantirish (tartibga soluvchi universal ta'lim faoliyati bloki) o'z faoliyatini tashkil etish va boshqarish qobiliyatini o'rganish orqali amalga oshiriladi, ya'ni mustaqil ravishda va birgalikda faoliyat va hamkorlikni rejalashtirish, qaror qabul qilish, ish joyini tashkil etish va vaqtni oqilona ishlatish ko'nikmalarini shakllantirish.

Shu asosda, shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirish kompetentlari shakllantiriladi, bu esa o'quvchining individual ta'lim traكتورi va umuman uning hayotiy faoliyati dasturiga bog'liq.

Talabalarni loyihaga kiritish birinchi sinf darslaridan boshlab asta-sekin bo'lishi kerak. Dastlab oddiy va arzon ijodiy vazifalar bo'lsin. O'qish darslarida bu "mening alibosi" kitobini yaratishi mumkin.



## **Kompetenti yondashuvda dars algoritmi**

**Kompetenti yondashuv** nuqtai nazaridan, dars-asosiy malakalarni o'rganuvchilarda rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun ta'limni tashkil etish shaklidir. Ushbu kompetentlarni shakllantirish uchun malakali ta'lim sohasidagi o'quv mashg'ulotlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin.

### **1-bosqich. Maqsadga erishish.**

Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o'lchangan bo'lishi va darsning natijasi bilan aniqlanishi kerak. Darsning natijalari o'rganilayotgan materialning ilmiy faoliyati va miqdori emas, balki o'quvchilarning universal ta'lim faoliyati (qobiliyatga ega bo'lish, bilimlarni qo'llash qobiliyati, o'z loyihalarini amalga oshirish, ijtimoiy harakat qobiliyati) bilan bog'liq. Maqsad SMART texnologiyasiga mos kelishi kerak: o'ziga xos-o'ziga xos; o'lchovni o'lchash mumkin – muvaffaqiyatga erishish mumkin; Realists-realistik – vaqt - muayyan vaqt.

Biroq, darsning bunday qurilishi bilimlarning ahamiyatini inkor etmaydi, balki muammolarni hal qilishda olingan bilimlardan foydalanish qobiliyatini e'tiborga oladi. Darsda kompetenti yondashuv bilan, maqsadga erishish bosqichi talabaning ichki motivatsiyasini faol, faol pozitsiyaga aylantiradi, sabablar bor: o'rganish, topish, isbotlash.

**2-Bosqich.** Tarkibni loyihalash va uning kompetenti talqini. Ushbu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

Kontent ichidagi aloqalarni o'rnatish (kompetentlarni shakllantirish bosqichlari, ta'limning yangi mazmuni mantig'ini aniqlash).

Kompetentlar shakllanadigan bosqichlarni taqdim etish shakllarini va ularning kelib chiqish natijalarini prognoz qilish.

An'anaviy darsni amalga oshirishda mustaqil faoliyat o'qituvchilar tomonidan belgilangan vazifani bajarish sifatida anglanadi. Kompetenti darsda mustaqil ish sifat jihatidan boshqacha ma'noga ega bo'ladi. Bu bolaning ta'lim maqsadiga erishish uchun rejalashtirilgan ishidir. U muvaffaqiyatli deb ataladi, chunki natija – talaba tomonidan yaratilgan mahsulot (harakat, bilim, ko'nikma).

### **3-Bosqich.** Ta'lim faoliyatini tashkil etish shaklini tanlash.

O'quv-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish inson hayotining turli sohalarida turli xil vaziyatlarni modelashirish orqali amalga oshiriladi, unda ijodiy darsga ustunlik beriladi, asosiy vazifa muvaffaqiyatli faoliyatni tashkil etishdir. Ijodiy darsning asosiy xususiyatlari tadqiqot usuli va faoliyat turini o'z ichiga oladi; qat'iy rejaning yo'qligi, dars tarkibida vaziyat mavjudligi; yondashuvlar va nuqtai nazarlarning xilma-xilligi; tashqi nazorat o'rniga ijodiy mahsulotni o'z-o'zini tanishtirish va himoya qilish.

### **4-Bosqich.** O'qitish usullari va shakllarini tanlash.

Malakali yondashuvni amalga oshirish uchun o'qitish usullarini tanlashda o'quvchilarni faol faoliyatga jalb qilish va tashabbus va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradigan usullarga alohida e'tibor qaratiladi. O'qitishning asosiy usullari: faol o'qitish usullari (biznes o'yinlar, rol o'yinlari, munozaralar va boshqalar); muammoli ta'lim usuli (subbat, muammoli ma'ruza, muammoli seminar); ijodiy fikrlashni faollashtirish usullari (miya bo'roni); an'anaviy o'qitish usullari modernizatsiya qilindi; o'zaro o'qitish usullari (kollektiv, guruh va juftlik ta'limi).

Empati usuli (omon qolish, boshqa joyga qo'yish) maktab o'quvchilarining atrof-muhitining o'rganilayotgan ob'ektlariga kirib borishi, uni his qilish va ichkaridan o'rganishga urinishdir. Shu bilan birga tug'ilgan fikrlar, his-tuyg'ular, his-tuyg'ular va og'zaki, yozma ravishda ifodalangan o'quvchining ta'lim mahsulotidir.

**5-Bosqich.** Yakuniy bosqich (aks ettirish) (malakani rivojlantirish darajasini tekshirish uchun diagnostika vositalarini tanlash, shuningdek tahlil va tuzatish protseduralari).

O'qituvchi kadrlar kasbiy sifatlarining muhim jihatlari o'rganish va uni ilmiy jihatdan asoslash mustaqillik yillarida pedagogika fanlarining ham ustuvor vazifasiga aylandi.

Psixolog olim E.G. G'ozievning oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining do'zartb muammolari bo'yicha olib borgan



tadqiqotlari tahliliga ko'ra, kasbiy tayyorgarlikning sifati asosan uchta muhim omilga bog'liqdir:

E.G'.Goziev ko'p yillik ilmiy izlanishlariga tayanib, bo'lg'usi o'qituvchilarning kelgusi faoliyatida yetakchi va ustuvor qiyimga ega milliy xususiyatlarini aniqlaydi va ularni maqsadga muvofiq ravishda tartibga keltirib, tavsif beradi:

1) andishlilik, 2) bag'rikenglik, 3) dilkashlik, 4)samimiylik, 5) ibratnamunaviylik, 6) sabr-toqatlilik, 7) saxovatlilik, 8)pedagogik odoblilik, 9) ma'naviy yuksaklik, 10) kasbga sadoqatlilik, 11)yuksak tuyg'ularni egallaganlik, 12) ijtimoiy faollik, 13) nutqiy qobiliyatlilik, 14) tashabbuskorlik, 15) tashkilotchilik.

V.M.Karimova ham o'z tadqiqotlarida talabalarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo talabao'qituvchi o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirish, talabani ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish lozimligini ko'rsatadi. Buni muvaffaqiyatli tashkil etishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta'kidlaydi.

G'.B.Shounarov ta'lim tizimida psixologik xizmat va uni takomillashtirish muammolariga oid va o'qituvchi kasbiy sifatlarning rivojlanganlik darajasini jahon andozasiga ko'tarish va uyg'unlashtirish sohasidagi tadqiqotlarida bir qator qimmatli g'oyalarni va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni ilgari suradi. Olimning fikricha, bo'lg'usi o'qituvchi kasbiy tayyorgarlikning belgilangan darajasiga erishishi uchun o'zida mavjud bo'lgan individual-psixologik imkoniyatlar va oliy ta'lim muassasasida mazkur kasbni egallash uchun yaratilgan barcha maqsadga muvofiqiy shart-sharoitlardan unumli foydalanishi lozim.

G'.B.Shounarov o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi bosqichlarida ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etishda psixologik xizmatni belgilangan talab va me'yorlar darajasida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligini ham alohida ko'rsatib o'tadi.

Ijtimoiy dadillik omili ustun o'qituvchilarda qat'iylik, jur'atlilik, o'ziga ishonish, muvaffaqiyatga ehtiyoi, ta'sirchanlik, mustaqillik, pedagogik faoliyatning barcha turlari va komponentlarini yetarlicha mohirlik bilan amalga oshirish, milliy-

madaniy an'analarni bilish va amalda tatbiq etish kabilar boshqa muallimlardagidan ustunroq namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, bahslar oldidan sinchkovlik bilan tayyorlanishni va mashg'ulotni mohirona tashkil etishni taqozo etadi. Bunday boshqarishning yuqori darajalari aqliiy tashabbuskorlikda shakllanadi, aqliiy tashabbuskorlik esa ko'pincha ijtimoiy boshqa ob'ektdagi qaramaqarshi fikrlarni bayon etishda, o'z fikrlarining to'g'riligini muxolifga isbot qilishda, ziddiyatlarni bartaraf qilishning yangi usullarini ochishda namoyon bo'ladi. Shaxsning o'z xohishiga binoan fikrlarini bayon etishi aqliiy faollikning kuchli omili sifatida gavdalanaadi.

N.H.Muratlieva tadqiqotlarida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarning shaxsllilik yo'nalishi haqida to'xtalar ekan, bo'lg'usi boshlang'ich sinf pedagoglarining oliy ta'lim muassasasida tayyorgarlik jarayonida, yani kasbiy yetilish sharoitida shaxsllilik yo'nalishi eng muhim omil ekanligini qayd etadi.

M.M.Mavlanov tadqiqotlarida oliy o'quv yurtlari ta'limi jarayonida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tashxisiy malakalarni shakllantirishning psixologik hususiyatlari o'rganilgan. Olimning e'tirof etishicha, kasbiy tayyorgarlik bosqichida tashxisiy bilimmalakalarni egallanmagan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yoshlar taqdirini ishonib topshirish mumkin emas. Shu bois, pedagoglarni tashxisiy bilim va malakalar bilan qurollantirish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

M.M.Mavlanov tadqiqotlari natijalariga tayanib, ularning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash uchun diagnostik malakalarning me'yoriy modelini aniqlaydi. Me'yoriy model mezonlariga binoan kasbiy tayyorgarlikni egallagan talabalarda diagnostik malakalar: yuqori, yaxshi, o'rt va past darajada shakllangan bo'lishi mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonida erishilgan yutuqni o'quvchining o'zi izohlab berishi tusodif yoki omad kelishi deb bilishdan ko'ra kuchliroqdir.

O'qituvchining kasbiy muhim sifatlari va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalariga gumanizm nuqtai nazaridan yondaslgan A.Maslou, K.Rodjerlarining



tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, o'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va kreativligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi maqsadga muvofiq. Buning uchun o'qituvchi shaxslik hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to'liq egallagan bo'lishi lozim.

K. Rodjersning ta'kidlashicha, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona munosabatlarda bo'ladi, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, ular e'tiborini, kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi.

A. Maslouning fikricha, o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, kreativlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyat uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etishi o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir.

O'ziga-o'zi past baho beradigan, o'z imkoniyatlariga uncha ishonmaydigan shaxslar esa guruh ta'siriga ko'proq duchor bo'lar ekanlar. M. Vudstok va D. Frensislar o'z tadqiqotlarida hamkorlik faoliyatida atrofdagilarga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga quyidagilarni kiritadi:

- muvazililik – bu ishonch qozona oladigan insonlarning xususiyatlari;
- ijobiy o'zgarishlarni taqdirlovchi (mukofotlovchi) lozim;
- bizning orzu-umidlarning atrofdagilarga ta'sir ko'rsatadi;
- xalq oldida (oshkora) o'z fikrini bildirish yangicha munosabatlarni mustahkamlaydi;

- o'zimiz o'rgatganimizga, avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak;

- shaxsiy hamjihatlik – bu (hal qiluvchi) muhim yo'l ochib beradigan omildir. Ularning fikricha, atrofdagilarga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatuvchi odamlar reklama va muvaffaqiyatli taqdimot ko'nikmalariga (mahoratiga) egadirlar. Ular qat'iy biror-bir ish qilishga undaydigan sabablarni yaratishga qodirlar.

Amerikalik olim, maktabda falsafa o'qitish dasturlarini yaratish guruhining a'zosi P. Lipmaning ta'kidlashicha, maktab yoshni davri ta'lim olish shakllari imkoniyatini kengaytiradi.

Dj. Levinning fikricha, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi davrida o'quv-tarbiya jarayonlariga xos nizolarni tushunish ko'nikmasini o'stirish, shuningdek, mojarolarning sabablarini o'rganish va bartaraf etish yoki boshqarishning muvaffaqiyatli vositalarini topa bilish mahoratlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, o'quv dasturlarida, bir tomondan, nizolarning kelib chiqishi va sabablari bilan bog'liq, ikkinchi tomondan, mojarolarning oldini olish, hal etish va ularni boshqarish bilan bog'liq masalalarni (savollarni) aks ettirish maqsadga muvofiq.

Dj. Levi misol tariqasida boshlang'ich ta'lim (6-12 yoshli bolalar) uchun quyidagi mashg'ulot variantlarini keltiradi:

- 1) kooperativ ko'nikmalar (guruhda birgalikda o'qish va hamkorlik);
- 2) kommunikativ ko'nikmalar;
- 3) nizolarni ijodiy (o'ylab, maslahatlashib) hal qilish ko'nikmasi.

Mazkur mashg'ulot variantlarida rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va psixologik xulqiy treninglardan o'rinni foydalanish maqsadga muvofiqligi va uning afzalliklari haqida to'xtalib o'tiladi.

D. Jonson va R. Jonsonlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan mojarolarni konstruktiv boshqarishning uchta muhim asosi mavjud:

- ta'lim va tarbiya berish manfaatlaridan kelib chiqqan holda maktabda qulay va tinch shart-sharoitlarni yaratish;
- mojarolarning oldini olib, bolalarning o'qishga, bilim egallashga nisbatan e'tiborini, qiziqish va motivlarini oshirish usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish, ularni muammolarni yechishga ijodiy yondashish ko'nikmasini rivojlantirish;
- yosh avlodni o'z turmushida, oilada, jamiyada, milliy va xalqaro vaziyatlarda nizolarni konstruktiv boshqarishga tayyorlash.



Mualliflarning fikricha, o'quvchilar mavjud jamoasida kooperativ hamkorlikni shakllantirishning uchta sharti talim; o'quv munozarali talim; mediatsiya (xolis xizmat muhiti ustuvor) talimi.

**O'quv-munozarali ta'limning afzalligi** shundaki, sinf o'quvchilari juft-juftlarga yoki guruhchalarga bo'linib, har bir juft yoki guruh mavzu mohiyatiga doir o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun dalillar hozirlaydi. Munozara jarayoni asosan quyidagi beshta bosqichda amalga oshadi:

axborotlarni to'plash va nuqt (javob) tayyorlash; o'z nuqtai nazarini (pozitsiyasini) aytilish va uni himoya qilish; qarana-qarshi pozitsiyaga duch kelish, to'qnashish oqibatida g'oyaviy nizo kelib chiqishi; qo'shimcha axborotni izlash hamda masalarni bir vaqtning o'zida tomonlar nuqtai nazaridan turib o'rganish; ikkala tomonning ham qarashlarini yaqinlashtirib, g'oyalarni qayta ko'rib chiqish asosida nuqtai nazarlarni muvofiqlashtirish.

**Mediatsiya** (xolis xizmat muhiti ustuvor) talimi o'quvchini boshqalar nizolashayotganda murosaga keltirishga xolissona vositachilik qilishga o'rgatishdan iborat. Mualliflar bu jarayonni quyidagi algoritm bilan ifodalaydi: o'z xohishingizni ayting; o'z hissiy kechimmalaringizni bildiring; istak va kechimmalaringizning sabablarini ayting; raqibingiz nimani istayotgani, nima uchun shunday fikr bildirayotgani haqidagi tushunchalaringizni umumlashtiring; mojaroni yechishning uchta alternativ (mug'obil) yo'lini toping; ma'qul yo'lni tanlang, qo'lni-qo'lga bering. O'quv-tarbiya jarayonlarini yuqoridagi ko'rinish va usullarda tashkil etish, eng avvalo o'qituvchilardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni, pedagogik mahorat va psixologik bilimdonlik, shuningdek, pedagog shaxsiga xos qator sifat va fazilatlarini talab etadi.

Mazkur muammo bo'yicha rossiyalik psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq.

S.L. Rubinshteynning uqtirishicha, tarbiyaviy ishda insonni hayot bilan minglab ko'zga ko'rinnas iplar bog'lab turadiki, har qadamda unga shaxsan qimmatli, uni qiziqitiradigan, o'ziga jalb etadigan, o'zini hisoblanadigan narsalar ko'ndalang

kelaveradi. Bu fikr yosh mutaxassislarning kasbiy pedagogik shakllanishi va o'zligini namoyon etishi masalasiga ham to'la taalluqlidir.

V.M. Myasishchevning ta'kidlashicha, shaxs o'zini namoyon qilish orqali o'z imkoniyatlarini og'li ravishda ko'rsatadi. Shaxs uchun nima muhim ahamiyatli bo'lsa, nimagaga ko'proq qiziqsa, intilsa, o'sha sohada o'zini to'laroq namoyon qiladi. Shuning uchun ham yosh mutaxassis pedagogik faoliyat sohasida o'zini qanchalik ko'proq, to'laroq va og'li ravishda namoyon etsa, shu sohada ko'proq natijaga erishadi. Ikkinchi tomondan, yosh o'qituvchi o'zini kasbiy faoliyat sohasida namoyon etish uchun qanchalik jadal kurashsa, kasbiy shakllanishda, kasbiy yetuklikda shunchalik yuqori pog'onaga ko'tariladi.

Shuning uchun ham pedagoglarni kasbiy tayyorlashda o'z kasbiga ijobiy munosabatni, shaxsning o'zi uchun ahamiyatli og'li munosabatni shakllantirish, shu sohada o'zini ko'proq, to'laroq namoyon etishga intilishi va tayyorligi juda muhim.

V.A. Slastenin, V.P. Kashirinlarning fikricha, o'zini namoyon qilish asosan ijtimoiy muhiti bilan shaxsning faoliyat ko'rsatishi o'tasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladi. Garchi, shaxsning o'zligini, o'z xulqini namoyon etishning psixologik mexanizmlari bevosita uning o'zida bo'lsa ham, ana shu xulqi, xatti-harakatlari, qillqari, muomala-munosabat ko'rinishlari uning faoliyati orqali ijtimoiy muhida sodir bo'ladi.

Jumladan, yosh mutaxassisning kasbiy pedagogik jihatdan o'zini namoyon etish sohalari kasbiy pedagogik faoliyat, biror ijtimoiy rolni bajarish va ijtimoiy-psixologik (jamoadagi o'zaro munosabatlar) tizimidan iborat. Mualliflarning ta'kidlashicha, shaxsning o'zini namoyon etishi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan yosh pedagog uchun ham to'la taalluqli bo'lib, u asosan uch bosqichda: tayyorgarlik bosqichi, asosiy bosqich va yakunlovchi bosqichlarda amalga oshadi.

**Tayyorgarlik bosqichida** shaxs o'zligini aniqlaydi, ya'ni o'zini namoyon qilish ehtiyojini anglaydi, o'z nuqtai nazarini, atrof-borliqqa munosabatini belgilaydi, faoliyati maqsadlarini oydinlashtiradi, jamoaning rasmiiy va norasmiiy tuzilmalarida



o'zining o'rni va rolini aniqlaydi, o'z xatti-harakatlari, xulq-odobi, ko'zlagan maqsadlarini to'yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi.

**Asosiy bosqich** shaxsning o'zini namoyon qilish maqsadlarini amalga oshirish jarayonidir.

**Yakunlovchi bosqich**da shaxs o'zini namoyon etish sohasida erishgan natijalar baholanadi, qiyinchiliklarning sabablari aniqlanadi. O'z o'rini to'g'ri belgilab olish - o'zini namoyon etishning muhim bosqichi hisoblanib, uning mazmuni va xarakterini belgilaydi, erishilgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

B.G.Anan'ev ilmiy maktabi tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, talabalik yosh davri intellekt tuzilmasining o'ta murakkabligi, o'zgaruvchanligi va individualligi bilan namoyon bo'ladi. Buning ma'nosi shundaki, o'quv-biluv topshiriqlarini har doim bir vaqtning o'zida ham tushunish, ham anglab olish (fikrlash), ham esda qoldirish, ham esda saqlash hamda amalda qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Muallifning ilmiy tahlillariga ko'ra, talaba o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida uning asosiy faoliyati ikki xil motiv (faoliyatga undovchi kuch) – maqsadga erishish motivi hamda bilish motivlari bilan belgilanadi. Bilish motivi o'quv-biluv faoliyatining asosi bo'lib, fikrlash va aqliy faoliyat tabiatiga mos keladi. Bu, muammoli vaziyatlarda paydo bo'ladi, talaba bilan o'qituvchining o'zaro aloqa va to'g'ri munosabatlarida rivojlanadi. Talimda maqsadga erishish motivi esa bilish va kasbiy motivlarga uzviy bog'liq (qaram) bo'ladi.

N.F.Tal'izina oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonining muammolari haqida to'xtalib, oliy ta'limning boshqaruv tizimi sifatida o'ziga xos xususiyati shundaki, avvalo boshqariladigan ob'ekt-o'qish, bilim egallash jarayonini hamma vaqt aniq bir shaxs amalga oshiradi. Shaxsiy omillarning murakkabligi, har xililigi shu darajada kattaki, ta'limning asosiy dasturini tuzishda ularning hammasini e'tiborga olib bo'linmasligini ta'kidlaydi.

Ya.A.Klimovning fikriga ko'ra, pedagoglik kasbi "inson-inson" tipidagi mutaxassisliklar qatoriga kiradi va bunday kasb egasi quyidagi xususiyat va

qobiliyatlarni egallagan bo'lishi kerak: boshqarish, o'qitish, tarbiyalay olish; boshqa odamni tinglay olish va tushunish; ongillik, keng bilim va saviyaga egallik; muqaddamianiyatni egallaganlik; kishilarga nisbatan hushyor, ularning ruhiy olamini ko'z oldiga keltira oladigan; bolani kelajakda yaxshi odam bo'lib ulg'ayishiga ishonuvchi; qayg'uudosh, boshqaning tashvishlariga sherik bo'la oladigan; kuzatuvchanlik qobiliyatiga ega; xalq, jamiyat ishiga sodiq; o'zgaracha vaziyatlarda ham muammoning yechimini topa oladigan; o'zini tuta bilish qobiliyati.

**O'qituvchilik kasbi sohblariga to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar:** tili chuqur yoki yaxshi gapira olmaslik, odamovi, mug'ombir-ichi qora, o'zi bilan o'zi ovora, mulqotga kirisholmaydigan, jismoniy nuqsonli, tepsa-tebrannas (tanbal), bironing dardiga befarq, g'arazgo'yilik kabildardir.

N.V.Kuz'mina va uning shogirdlari ishlab chiqqan pedagogik qobiliyatlar kontseptsiyasi pedagogik qobiliyatlar tizimining bir qadar to'la va mukammal talqini hisoblanadi. Muallif pedagogik faoliyatning sub'ektiv omillariga quyidagilarni kiritadi:

- 1) shaxsning yo'nalganligi.
- 2) qobiliyatlarining o'sish darajasi.
- 3) kompetentligi (maxsus bilimlarga –pedagogika, metodika va psixologiya fanlarining turli sohalariga doir chuqur bilimga egalligi).

N.V.Kuz'minaning fikriga binoan, shaxsiy yo'nalganlik kasbiy pedagogik faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishish uchun eng muhim sub'ektiv omillardan hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning bosh strategiyasini tanlash muallifning mualliflarida ko'rsatilishicha uch xil yo'nalishni:

1. Haqiqiy pedagogik.
2. Formal pedagogik.
3. Qalbaki pedagogik yo'nalishlarni qamrab oladi.

Faqat birinchi (haqiqiy pedagogik) yo'nalishgina pedagogik faoliyatta yuksak natijalarga erishishga imkon beradi.



A.K.Markovning fikriga ko'ra, pedagogik faoliyatning subyektiv xususiyatlarini quyidagi guruhlar (bloklar) bo'yicha tavsiflash mumkin:

1. Ob'ektiv tavsiflar: ixtisoslikka doir bilimlar, kasbiy malakalar, psixologik-pedagogik bilimlar.

2. Subyektiv tavsiflar: psixologik nuqtai nazar, motivlari, "men" g'oyasi, yo'll-yo'riqlari, shaxslik xususiyatlari.

A.K.Markova o'qituvchilik ishining uchta jihatini: pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va o'qituvchi shaxsi tomonlari mavjudligini ta'kidlaydi. A.K.Markova o'qituvchining muhim kasbiy sifatlari qatorida:

pedagogik eruditsiya, pedagogik maqsadga yo'nalganlik, pedagogik tafakkur, pedagogik zukkolik, pedagogik ko'tarinki kayfiyat, pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik ishonch, pedagogik topqirlik, pedagogik bashorat, pedagogik refleksiya (o'zini namoyon qilish) larni ko'rsatib o'tadi.

L.M.Mitnaning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarning ellikdan ortiqrog'i qayd etilgan. Ular quyidagilar: xushmuomalalik, o'ylovchanlik, talabchanlik, ta'sirlanish, tarbiyalanganlik, e'tiborlik, o'zini tuta bilish, muloyim xulqilik, insonparvarlik, ishchanlik, intizomlilik, vijdonlilik, bag'ri kenglik, saxiylik, g'oyaviy e'tiqod, tashabbuskorlik, siyosiy onglilik, kuzatuvchanlik, tanqidivilik, qat'iylik, mantiqiylik, bolalarni sevisht, mas'uliyatlilik, hozirjavoblik, tashkilotchilik, mulqotga kirisha olish, tartiblilik, to'g'riilik, pedagogik bilimdonlik, oldindan ko'ra bilish, mustaqillik, o'ziga tanqidiy yondashish, kamtarlik, adolatlilik, hushyorlik, jur'atlilik, kamolotga intilish, pedagogik odob va o'z qadr-qimmatini saqlay bilish, yangilikka intilish, emotsional ko'tarinkilik, vatanparvarlik. Uning fikricha, mazkur xususiyatlar ideal o'qituvchining psixologik qiyofasini tashkil etadi.

N.D.Levitov o'qituvchining asosiy pedagogik qobiliyatlari sirasiga quyidagilarni: o'quvchilarga bilimlarni qisqa, aniq va qiziqarli shaklda yetkazsa olish, ular ruhياتidagini angelay olish, tafakkurning mustaqilligi va ijodiyligi, topqirlik yoki tez va aniq bilib olish, tashkilotchilik qobiliyatlarini kiritadi.

V.A.Kruteskiy o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini umumiyroq tarzda ifodalab, quyidagicha guruhlashtiradi:

1. Didaktik qobiliyatlari; 2. Akademik qobiliyati; 3. Pertseptiv qobiliyati; 4. Nuq qobiliyati; 5. Tashkilotchilik qobiliyati; 6. Avtoritar qobiliyati; 7. Kommunikativ qobiliyati; 8. Pedagogik bashorat qobiliyati; 9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Ko'rinadiki, xorij psixologiyasida o'qituvchilarning kasbiy muhim sifatlarning psixologik xususiyatlari muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ancha salmoqli va keng qamrovlidir. Ana shunday tadqiqotlarni ko'plab keltirib, o'rganilayotgan mavzu xarakteriga mos tomonlarni atroflicha tahlil qilish mumkin edi. Biroq, mazkur ilmiy izlanishlar natijalari, ulardagi ilmiy tavsifa va xulosalar ma'lum darajada cheklanganlik xarakteriga egadir.

Chunki, o'qituvchining kasbiy sifatlari hamda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish bilan bog'liq muammolar, yoxud ularning yechimi har bir xalqning milliy-madaniy, o'ziga xos psixologik va hududiy xususiyatlari mavjudligi bilan uygunlikda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarga yuqori baho bergan holda, bu ilmiy dalillarni o'zbek ta'lim tizimi va o'qituvchi kadrlar tayyorlash mazmuni uchun to'la taalluqli deya olmaymiz. Shubhasiz, bu borada vatanimiz psixolog olimlarining tadqiqot natijalarini o'rganib, psixologik tadqiqotlar o'tkazishga maqsadga muvofiqat foydalanadi.

#### Loyihaviy ta'limning asoslari

**Loyiha** (design - dizayn) — ba'zi murakkab ishlarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (projekt) — tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos maqsuliyatiga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklini belgilash uchun foydalaniladi.

**Loyihalash** - («loyiha» soʻzidan) —real natijaga olib keluvchi, qatʼiy tartibga solingan harakatlar izchilligini oʻz ichiga oluvchi muammoni oʻzgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

### **Taʼlim maʼnosidagi loyihalash**

Oʻqituvchi tomonidan talabani muammoni izlash, uni hal etish boʻyicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan toʻ (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini taʼminlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli oʻquv faoliyatidir.

### **Loyihaviy taʼlimning maʼnosi**

**Loyihaviy taʼlim** - taʼlim modeli boʻlib, unda oʻqituvchi tomonidan loyihalash koʻrinishiga ega, muammoni izlash, uni taqdim etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot) ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil oʻquv faoliyati tashkil etiladi.

“Oʻquv loyihaviy faoliyatning protsessual tuzilmasi (1-bosqich)

1. Talabalar quyidagilarni amalga oshirishadi:

-Vaziyatga moslashish;

-Muammoni shaxsan oʻzlashtirish (muammoni tushunish va analiy faoliyatining muayyan sohasi uchun uning yechimini dolzarb va muhimligini anglash);

-Loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;

Loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va oʻqituvchi bilan mulqotning xarakteri.

2. Talabalar loyiha ustidan ishlash shakllarini tanlashadi: alohida yoki guruh boʻyicha. Agar guruh shakl tanlangan boʻlsa:

- guruhlarga birlashtirish;
- loyiha boʻyicha ishlash turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
- loyiha bajarish boʻyicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;

-uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;  
-natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;  
-loyiha maʼsuli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

Loyihaning ushbu davrida talabalar oʻzlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va maʼlum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

-Turli manbalardan axborot toʻplash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar;

-Tadqiqot oʻtkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar;

-Maqsadga muvofiq tugʻilganda maslahatlashadilar;

-Oraliq natijalarni muhokama qiladilar;

-Hammadan olingan natijalarning umumiy toʻplanishi va muhokamasini oʻtkazadilar.

Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi:

-Oʻquv predmeti

-Oʻquv mavzusi

-Qatnashchilar

-Taʼlimning maqsadi

-Rejalashtirilgan oʻquv natijalari

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli hal etish uchun egress lozim boʻlgan oldingi bilim va koʻnikmalar roʻyxati.

Loyihaning turlanish belgilariga koʻra tavsifnomasi

- Loyihani bajarish tartibi
- Loyihaning baholanishi
- Loyihaviy taʼlimni tashkil etish bosqichlari
- Taʼlim modelining qisqacha tavsifnomasi.



## О'ز-о'зини назорат қилиш учун саволлар ва топшириқлар

1. Pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari
2. Pedagogik fasilitatsiya asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi,
3. O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish,
4. Faoliyat sub'yekti kompetentligining tashkil etuvchilari,
5. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligining invariantlari,
6. Ta'lim sifatini o'zgartirishda o'qituvchining roli haqida tushunchalar berish.
- Pedagogik fasilitatsiya. Loyiha faoliyatining asosiy g'oyasi
7. Loyiha uslubini qo'llash
8. Loyiha ta'limi o'rta maktab o'quvchilarning asosiy kompetentlarini shakllanti
9. Kompetentli yondashuvda darsni yaratish algoritmi
10. Kompetentlarni shakllantirish uchun malakali ta'lim sohasidagi o'quv mashg'ulotlari bosqichlari
11. Pedagogik qobiliyatlarning muhim komponentlari
12. Pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlar
13. M. Talen taklif etgan pedagogik mulqot uchun maqsadga muvofiq bo'lgan o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi
14. O'quvchilar mavjud: jamoasida kooperativ hamkorlikni shakllantirishning uchta sharti ta'lim; o'quv muhozaatali ta'lim; mediatsiya (xolis xizmat muhiti ustuvor) ta'lim
15. Pedagogik tizimlarni loyihalashtirish
16. Loyihaviy ta'limning asoslari
17. O'quv loyihaviy faoliyatning protsessual tuzilmasi

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al'zamov A., Юсупов А. "Ўқувчиларга билим беришда инновацион усуллардан фойдаланиш". — Тошкент, 2004.
2. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Ushbu kitob: -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.
3. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik. Ushbu kitob: -T.: BROK CLASSSERVIS, 2016. - 84 b.
4. Axmedova M. T. Pedagogik konfliktologiya. Ushbu kitob: -T.: Adabiyot uchun, 2017. - 320 b.
5. Ananyev V. G. On the problems of modern map of knowledge. - M.: "Science." 1997. C.235.
6. Antsyferova L.I. Personality research in dynamics: some totals/Psychological Journal.-M.-1992.No5. Page 13-35
7. Albert Bandura, Richard house: Ekmo-Press, Arpel-Press ISBN: 5-04-004214-0 Year of the edition: 2000 Walters. Teenage aggression. Studying of influence of education and family relations. Publishing Abraham Harold Maslow. Motivation and Personality. Year of the edition: 2011. -85)
8. Abraham Harold Maslow. Motivation and Personality. Year of the edition: 2011. -85
9. Абдукудусов О.А., Рашидов Х.Ф. Касб-хунар педагогикаси (Ўқув-усулбой кўланма). ЎМКУТТҚМО ва УКТТИ. 2009.-238 б.
10. Батышев С.Д. Производственная педагогика. Учеб. для раб. профессионального. обучения. - М.: Машиностроение, 1984. - 671 с.
11. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психология-педагогические основы развития креативности — СПб.: СПбГУТД. 2006.
12. Башинна Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. — СПб.: Питер, 2009.
13. Байденов В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования гос. вно нового поколения: методическое пособие. — М.: исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. — 72 с.
14. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программе. Педагогика. 2003. № 3.
15. Бондаревская Е.В., Кулинич С.В. Педагогика. 2004. № 10.
16. Бетимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот



- технологияларини жорий этишининг илмий-назарий асослари. Монография. - Т.: Фан, 2007.
17. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации и компетентностного подхода в образовании, www.eid.org.uk, 2005, 09, 10.
18. Дружиков С.А. Профессиональная компетентности и профессионализм педагога. Психологические подходы. Философия образования. Альянс. С.О.РАО. ИПК, г. Новокузнецк -2005. №5
19. Зиёмухаммедов Б. Педагогик маҳорат асослари. Ўқув қўл.-Т.: ТИБК ИТОБ, 2009. -183 б.
20. Zulfarov SH.M. Pedagogika kollejlarda innovatsion jaraonlarni tizimli boshqarish: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. -Т., 2010. -В. 70-71.
21. Ёлдамов Ж. Г., Усмонов С. А. "Педагогик технология асослари", Тошкент. — "Ўқитувчи", 2004.
22. Ишмухаммедов Р.Ж. "Инновацион технологиялар ёрдамида ўқитиш самардорлигини ошириш йўллари". Тошкент: 2000 й
23. Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебно-методическое пособие. — М.: АПК/ПРО, 2013.
24. Искандаров, К. А. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини тақомиллаштиришга муносабат: изланишлар, муаммолар, йechимлар / К. А. Искандаров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 29.3 (133.3). — С. 13-17. — URL: <https://moluch.ru/archive/133/37854/> (дата обращения: 06.10.2020).
25. Ишмухаммедов Р. Ж. "Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самардорлигини ошириш йўллари". — Тошкент, 2006
26. Ломакина, Г. Р. Педагогическая компетентность и компетенция: проблемы терминологии / Г. Р. Ломакина. — Текст : непосредственный // education of school students. Pedagogical education-Vol. No. 2. -М.: "Pedagogue", 1990. С.238-242.
28. Мединцева И. П. Компетентностный подход в образовании [Текст] / И. П. Мединцева // Педагогическое мастерство: материалы II междунар. науч. конф. (г. Москва, декабрь 2012 г.). — М.: БукВед, 2012.
29. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. -Т.: Фан ва технологиялар, 2013.
30. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Профессиональная компетентность будущ

148

- его учителя: теория и технология обучения Учебное пособие. -Т.: ТДПУ, 2014
31. Муслимов Н. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари / Пед. фан. докт. ... дисс. - Т.: ЎМЖХТТКМОКТИ, 2007. -315 б.
32. Novak, P., "The Growing Digital Divide: Implications for an Open Research Agenda." Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research, Ed. V. Kabin and E. Brynjolfsson, Cambridge, MA: The MIT Press., 2000.
33. Olsson, Thomas; Mattensson Katarina and Roxa, Torger. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.
34. Педагогическое мастерство : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). — Москва : БукВед, 2012. — С. 276-279. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2190/> (дата обращения: 06.10.2020).
- 22.
35. Педагогика. Большая современная энциклопедия /Сост. С.Р. Рапацевич. -М.: «Соврем. слово», 2005. - 720 с
36. Файзуллаева Д.М. Замоначная машина ва жихозлардан фойдаланиш бўйича ўқувчиларда кўникма ва малакаларни шакллантириш (кишлоқ хўжалиги йўналишидаги касб-хунар коллежлар мисолида) / Пед. фан. номз. ... дис. — Т., ЎМЖХТТКМОКТИ ва УЎТИ, 2005. —6.
37. Хойиров А. Pedagogik maslahat. Davlatlik -T.: Iqtisodiyot, 2011. - 420 b. Shasteyin A.A. Pedagogical problems and situations according to the theory and methodology of education. M.: MGPI, 1991, С.86.
38. Хидиров Ў.Д. Ўқувчиларда ишлаб чиқариш таълими жараянида касбий кўникма ва малакаларни шакллантиришнинг илмий-методик асослари (кишлоқ хўжалиги йўналишидаги касб-хунар коллежларида кичик мулкхосисларни тайёрлаш мисолида). / Пед. фан. номз. ... дис. автореф.—Т., ЎМЖХТТТИ, 2003. —21 б.
39. Холжабоев А.Р., Косимов Ш. Амалий касбий таълимининг таъкил қилиш ва ўқитиш методикаси. / Касб-хунар коллежларининг махсус фанлар ва амалий касбий таълим ўқитувчилари учун ўқув-методик қўлланма. - Т.: ЎМЖХТТКМОКТИ, 2007. - 148 бет.
40. Холжабоев А.Р., Хусанов И. Касбий таълим методологияси. - Т.: "Фан ва технология", 2007. - 192 б.
41. Эрнатарова Г.О., Исламова М.Ш. Педагогик маҳорат асослари. Ўқув қўл.-Т.: ЧДПИ, 2020. -224 б.

149



42. Эрназарова Г.О., Кадилова Х. Касбий педагогика. Ўқув кўпл.-Т.: ЧДПИ, 2021. -234 б.

43.Кодиров Б.Ғ., Бегимкулов У.Ш., Абдукодиров А.А. “Ахборот технологиялари”. Электрон дарслик. 2002 й.

44.Ядалов Ф.Г. Деятельностно – компетентностный подход к практико – ориентированному образованию. Интернет – журнал «Эйдос», 2007. <http://www.eidos.ru/journal/2007/0115-2.htm>

## MUNDARIJA

|                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish                                                                                                  | 3   |
| 1 Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari                              | 4   |
| 2 Pedagogik kompetentlikning nazariy — metodologik asoslari                                             | 10  |
| 3 Mamlakatimizda va rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar           | 15  |
| 4 Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish aspektlari                        | 18  |
| 5 O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish tizimi                                          | 26  |
| 6 Pedagogik mahorat va kompetentsiya mezonlari                                                          | 38  |
| 7 Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari  | 47  |
| 8 Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. Professiogramma.         | 56  |
| 9 Pedagogik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetentsiyalar                                       | 70  |
| 10 Pedagogik kreativlik                                                                                 | 76  |
| 11 Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari.                                                     | 99  |
| 12 Pedagogik tuyurtlik fasilitatorlik qobiliyatini asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti | 116 |
| 13 Adabiyotlar ro'yxati                                                                                 | 147 |

## Содержание

|                                                                                                                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Введение                                                                                                                                                                     | 3   |
| 1 Предмет, объект дисциплины педагогическая компетентность, цели и задачи                                                                                                    | 4   |
| 2 Теоретико-методологические основы педагогической компетентности                                                                                                            | 10  |
| 3 Научные подходы к педагогической компетентности в нашей стране и развитых странах                                                                                          | 15  |
| 4 Аспекты совершенствования профессиональной компетентности учителя высшего образования                                                                                      | 18  |
| 5 Система совершенствования профессиональной компетентности учителя                                                                                                          | 26  |
| 6 Критерии педагогической компетентности и компетентности                                                                                                                    | 38  |
| 7 Теоретические и практические аспекты совершенствования профессиональной компетентности учителя высшего образования чтобы получить квалификацию учителя высшего образования | 47  |
| 8 Требования. Профессиограмма                                                                                                                                                | 56  |
| 9 Компетенций, составляющих уровни педагогической профессии                                                                                                                  | 70  |
| 10 Педагогическое творчество                                                                                                                                                 | 76  |
| 11 Концептуальные идеи педагогики сотрудничества                                                                                                                             | 99  |
| 12 Классификационные признаки педагогики сотрудничества                                                                                                                      | 116 |
| 13 Педагогическая интуиция практика организации проектной деятельности на основе фасилитаторских способностей                                                                | 147 |

## Content

|                                                                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Introduction                                                                                                                                                                              | 3   |
| 1 Subject, object of the discipline pedagogical competence, goals and objectives                                                                                                          | 5   |
| 2 Theoretical and methodological foundations of pedagogical competence                                                                                                                    | 11  |
| 3 Scientific approaches to pedagogical competence in our country and developed countries                                                                                                  | 16  |
| 4 Aspects of improving the kashby competence of a higher education teacher                                                                                                                | 20  |
| 5 The system of improving the kashby competence of the teacher                                                                                                                            | 28  |
| 6 Criteria of pedagogical competence and competence                                                                                                                                       | 40  |
| 7 Theoretical and practical aspects of improving the kashby competence of a teacher of higher education in order to qualify as a teacher of higher education requirements. Professiogram. | 49  |
| 8 Competencies that make up the levels of the teaching profession                                                                                                                         | 58  |
| 9 Pedagogical creativity                                                                                                                                                                  | 72  |
| 10 Conceptual ideas of pedagogy of cooperation Classification                                                                                                                             | 78  |
| 11 Features of pedagogy of cooperation                                                                                                                                                    | 102 |
| 12 Pedagogical intuition is the practice of organizing project activities based on facilitation abilities                                                                                 | 119 |
| 13 List of literature                                                                                                                                                                     | 151 |

-14075/44-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'QUY TAYLIM,  
FAN VA INNOVATSIONALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI



Ernazarova Gulnora Obloquovna  
Isroilov Qobiljon Toshtemirovich  
Qurbonova Muattar Erkinovna

## PEDAGOGIK KOMPETENTLIK

O'quv qo'llama

|                  |                  |
|------------------|------------------|
| Muharrir:        | X. Taxirov       |
| Tehnik muharrir: | S. Melikuziva    |
| Musabih:         | M. Yunusova      |
| Sahifalovchi:    | A. Ziyamulamedov |

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichini 60x84<sup>1</sup>/<sub>6</sub> "Times new roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 13. Adadi 100 dona.

Buyurtma № 1568694

City of book MCHda chop etildi